

SH.K.Shayakubov, R.X.Ayupov

---

# **INTERFAOL TA'LIM USULLARI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
VA O'RTA MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

SH.K. SHAYAKUBOV, R.X. AYUPOV

# INTERFAOL TA'LIM USULLARI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan  
5140900 Kasbiy ta'lif (buxgalteriya hisobi va audit) yo'nalisi talabalarini  
uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.*

«TAFAKKUR-BO'STONI»  
Toshkent - 2012

**Mas'ul muharrir:**

**Yo.A. Abdullaev** – Toshkent moliya instituti ilmiy ishlar bo'yicha rektor muovini, professor.

KBK 74.2.202.5

**Taqrizchilar:**

**M. Almardonov**, Toshkent moliya instituti «Soliq va sug'urta ishi» fakulteti dekani, i.f.d., professor

**Kenjaboev O.T.**, Toshkent moliya instituti «Axborot texnologiyalari» kafedrasi mudiri, i.f.d., professor

**Ibragimov E.**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti «Axborot texnologiyalari» kafedrasi dosenti, i.f.n.

Interfaol ta'lif usullari: o'quv qo'llanma / Sh.K. Shayakubov, R.X. Ayupov ; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi.  
– T.: «Tafakkur-Bo'stoni», 2012-yil, 136 bet.

«Interfaol ta'lif usullari» deb nomlangan o'quv-uslubiy qo'llanma yangi pedagogik texnologiyalar yo'naliishiga bag'ishlangan bo'lib, unda xilmayxil sohalarda dars beruvchi o'qituvchi va lektorlar uchun dars berishning bir qancha interaktiv bo'lgan zamонавиy usullari yoritilgan. Ushbu usulni qo'llaganda o'qituvchi talabalar bilan bevosita muloqotda ishlaydi va ularga kerakli bilimlar majmuasini berish oson hamda samaradorroq kechadi. Qo'llanmada bir qancha amaliy ish o'yinlari, aktivatorlar, kuchaytirgichlar, boshqotirmalar va muzyoralar berilganki, ularni amaliyotda qo'llash darslarni yana ham qiziqarliroq hamda faolroq qilishga yordam beradi. Qo'llanma maktab va oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari hamda mustaqil lektorlar uchun mo'ljallangan.

Ushbu kitob Toshkent Moliya instituti asoschisi va uni rivojanishi uchun jonbozlik ko'rsatgan M.Sh.Sharifxodjaevning yorqin xotirasiga bag'ishlanadi.

**ISBN - 978-9943-362-64-2**

© «Tafakkur-Bo'stoni», 2012

**MUNDARIJA**

<b>KIRISH .....</b>	4
1. Interfaol ta'lifning maqsadi va vazifalari .....	6
2. Ma'ruza usulida ta'lif berish va uni tashkil qilish .....	10
3. Suqrot usuli yoki savol-javoblar vositasida ta'lif berish .....	25
4. Muloqot vositasida dars berish usullari .....	32
5. Tanqidiy mushohada usulini dars jarayonida qo'llash .....	40
6. Kooperativ usulda ta'lif berish .....	64
7. Mavzuni taqdimat qilish va talabalarni tartibga chaqirish usullari .....	72
8. Ommaviy chiqishlar va ma'ruzalarni tashkil qilish .....	76
9. Interfaol va samarador dars rejalarini tuzish .....	79
10. Interfaol dars o'tkazish jarayonida ishlatiladigan tadbirlar .....	85
Adabiyotlar va qo'shimcha ma'lumotlar .....	104
Ilovalar .....	107

## KIRISH

«Kim bilimni o'char dunyo, mol bilan,  
U gavharni teng qilar sopol bilan».

Sa'diy SHEROZIY

Jamiyatimizdagi ko'pchilik insonlar o'qituvchilarni kunlar, haftalar va oylar davomida o'qitiladigan fan bo'yicha asta-sekinlik bilan turli xil ko'rsatma va topshiriqlar beradigan hamda bir maromda qandaydir bilimlar majmuasini o'quvchilarga singdiradigan zerikarli mutaxassislar sifatida tushunadilar. Lekin ularning qanday ko'rsatma va topshiriqlar berishlari hamda bunday usullar qanday samara berishini ko'pchilik bilmaydi yoki tushunmaydi. Shuning uchun ham yillar davomida ta'limga berishning bir qancha usullari va uslubiyati vujudga keldiki, ularning jamiyatidagi o'rni beqiyos ahamiyatlidir. Ba'zi bir ta'limga berish uslublari yosh bolalarning bilim olish jarayonini o'rganish asosida tashkil etilgan bo'lsa, boshqalari dars berish jarayonida ro'y beradigan muammolarni hisobga olgan holda tashkil etilgan. O'qitish uslubiyatining yana boshqa birlari esa bir qancha olimlar tomonidan ishlab chiqilgan falsafiy-mantiqiy modellar asosida, masalan, Suqrot uslubida, muloqot usulida yoki korporativ usulda tashkil qilingan. Undan so'ng o'qitishning ta'limga berish modellari asosida tashkil etish keng miqyosda amalga oshirila boshlandi. Bunda o'quvchi-talabalarning ma'lum bir soha yoki fandan bilim olishlari maxsus usullar, modellar, ta'limga standartlari yoki strategiyalar asosida amalga oshirilar edi. Ba'zi bir modellarda o'qituvchi dominant rolida bo'lib, barcha ta'limga berish vazifalarini o'zi hal qilar, boshqalarida esa talabalarga to'la erkinlik berilib, ularni demokratik tamoyillar asosida o'qitilar, yana boshqa birlarida esa talaba va o'qituvchi orasida tenglik hamda ijodiy fikr almashinish jarayoni amalga oshirilib, o'zaro muloqot vositasida interfaol ta'limga jarayoni amalga oshirilar edi. Lekin bu modellarning ishlatalishi va samarasini o'quvchi-talabalarning bilim darajasiga, intilishlariga, ongingin rivojlanish ko'rsatqichlariga har doim ham mos kelavermaydi. Masalan, sinfdagi talabalarning aksariyati bilim olishni istamaydigan va bunga intilmaydigan bo'lsa-yu, ammo o'qituvchidan ularga qandaydir usullar bilan bo'lsa ham qandaydir bilim berish talab qilinsa, u holda yuqorida ko'rsatib o'tilgan har qanday model, usul yoki strategiya ham o'z-

o'zidan ojizlik qilib koladi. Bunday hollarda ta'limga berishning eng yangi modellaridan biri kooperativ ta'limga berish modeli bo'lib, unda talabalar va ta'limga beruvchi instruktor bирgalikda ma'lum bir hayotiy masala yoki muammolarni hal qilish jarayonida tegishli malakaga yoki bilimga ega bo'ladilar. Ammo hozirgi paytdagi ta'limga berish jarayoni asosan sinfda yoki maxsus jihozlangan xonalarda talabalar va o'qituvchining o'zaro muloqoti orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, hozirgi davrdagi ta'limga berish jarayonini quyidagi asosiy jihatlar bilan ifodalash mumkin:

– O'qituvchining faoliyati nafaqat ilmiy-amaliy asosda, balki ijodiy-artistik asosda ham amalga oshirilishi lozim.

– O'qituvchining dars berish jarayonidagi roli ancha murakkab bo'lib, uning o'ziga xos tarixiy va zamonaviy jihatlari mavjud. Oldingi davrlarda o'qituvchilarning faqatgina zamonaviy bilimlar berishi talab qilinsa, hozirda ulardan tarbiyaviy, madaniy-ma'naviy, siyosiy va amaliy bilimlar berish ham talab qilinadi.

– Ko'pchilik talabalar turli xil viloyatlardan kelganliklari va ularning bilim darajasi bir-biridan anchagini farq qilishini hisobga olganda, o'qituvchilarning ishi yanada murakkablashadi – endi ular ilgarigidan farqli-o'laroq, turli xil bilim darajasi va turli amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan talabalar jamoasida ishlashlariga to'g'ri keladi. Bu esa ulardan ta'limga berishda yangi usullarni va uslubiyatlarni qo'llashni taqozo qiladi.

– O'qituvchilarga bo'lgan talab ham sezilarli darajada oshdi va endi ular nafaqat ilmiy, balki ma'rifiy va amaliy bilimlarni ham puxta egallashlari zarur bo'layapti.

– Ilm, fan va texnikaning jadal rivojlanib borishi, yangi texnika va texnologiyalarning jamiyatning barcha qatlamlariga kirib borishi, informasion texnologiya vositalarining barcha davlat va nodavlat muassasalarida qo'llanilishi o'qituvchilardan uzlusiz bilim olishni talab qilayapti.

– O'qituvchilarning faoliyati ko'p qirrali bo'lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo'naltiruvchi, tashkil etuvchi va baholovchi rollarini amalga oshirishlari kerak bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilgan barcha muammolar va salbiy jihatlardan qutulish hamda ta'limga berish sifatini oshirishning eng asosiy yo'llaridan biri interfaol ta'limga berish usullari bo'lib, quyida biz ushbu zamonaviy ta'limga

berish uslubiyatining bir qancha yo'l-yo'riqlari va qonun-qoidalari bilan imkoniyat darajasida tanishib chiqamiz.

## 1. INTERFAOL TA'LIMNING MAQSADI VA VAZIFALARI

*«O'qish-o'rghanish uchun hech qachon ham  
keksayib qolganman dema».*

G. GERSEN

Keyingi paytlarda jamiyatimizda har bir inson uning boshlang'ich bilim darajasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, istalgan sohada bilim olishga haqli deb topildi va uning kelajakda davlat muassasalarida yaxshi mansab egallashi maqsadida ta'lif muassasalariga jalb qilish odad bo'lib qoldi. O'quv muassasalariga faqatgina bir necha fandan testlar topshirgan holda kirishni tashkil qilish ham o'quvchilarning dunyoqarashi va bilimlarining chegaralangan hamda bir tomonlama bo'lishiga sabab bo'layapti. Chunki maktab, lisey va kollejlarda ko'pgina fanlar chetga surilib, ularda faqatgina test topshiriladigan fanlar bo'yicha chuqur ta'lif berilishi, test javoblarini ularning mohiyatiga etmasdan yodda saqlashga harakat qilinishi bitiruvchilar bilimining sayoz va bir tomonlama bo'lishiga olib kelayapti. Agar kirish imtihonlari barcha fanlar bo'yicha integral usulda tashkil qilinsa, ya'ni bir qism fanlardan test orqali, boshqalaridan og'zaki savol-javoblar vositasida, yana boshqalaridan yozma usulda qabul qilinib, ularning natijasi umumlashtirilsa, chuqur bilimli va fikrlash doirasi keng bo'lgan abituriyentlargina o'quv muassasasiga kirishar edi va yuqoridagi salbiy holatlar yuz bermas edi, albatta. Bu mamlakat kelajagi bilan uzziy bog'liq strategik masala bo'lgani uchun ham ta'kidlamasdan boshqa ilojimiz yo'q. Bundan tashqari, ta'lif berish jarayonida asosiy diqqat e'tibor ta'lif muassasalarida qanday fanlardan dars berish, qanday ta'lif standartlariga rioya qilish va qanday kitoblardan foydalanishga qaratildi, xolos. Bunda ming afsuski, ta'lif berishning asosiy omili va yurituvchi kuchi bo'lgan bir nima yoddan chiqarildi – bu eng asosiy omil esa shak-shubxasiz – O'QITUVCHIDIR! Bu borada hozirgi zamonga mos bo'lgan quydagi fikr o'rini desak ham bo'ladi: «*Har qanday fan bo'yicha malakali o'qituvchini osongina tayyorlash*

*mumkin va u o'quv jarayoni mexanizmining bir detali sifatida istalgancha dasturlanishi va yo'naltirilishi mumkin?»* Bu tezis o'z-o'zidan o'qituvchining jamiyatdagi mavqeini juda ham pasaytirib, o'quvchilarning unga bo'lgan hurmat va e'tiboriga sezilarli darajada putur yetkazadi. Natija ham darhol ayon bo'ladi – malakali o'qituvchi bo'lishga intilish yo'qolib, bu sohada yetuk mutaxassis bo'ladiganlar soni keskin kamayadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lif berish sifatini ancha pasaytiradi. Lekin bu tezis hozirgi katta tezlik bilan rivojlanayotgan hayotga aslo mos kelmaydi va uni mamlakatimizdagagi uyg'onish hamda jadal rivojlanish davriga mos bo'lgan quydagi tezis bilan almashtirish maqsadga va tafakkurga muvofiqdir: «*Malakali o'qituvchini tayyorlash juda murakkab va qimmat turadigan faoliyat turi bo'lib, u o'quv jarayonining ijodi, yaratuvchi va yurituvchi kuchidir. Har bir o'qituvchini juda ham qimmatli insoniy zaxira sifatida hisoblab, uning jamiyatdagi mavqeini imkon darajasida ko'tarish mamlakatning uzoq muddatli strategik maqsadlariga aynan mos keladi».*

Haqiqatan ham, o'quvchilarga ta'lif berish va malakali o'qituvchi bo'lish juda murakkab hamda ko'p mehnat talab qiladigan faoliyat turidir. Bizning jamiyatda o'qituvchilik professional ish turi hisoblanib, ularning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Ular biror bir sohaning professional mutaxassisini va malakali eksperti hisoblanib, o'quvchitalabalarga kerakli bilimlarni egallashlariga hamda malakali mutaxassis bo'lishlariga yordam beradilar. Zamonaviy o'qituvchilar tibbiyot, texnika, iqtisodiyot va boshqa soha mutaxassislariga o'xshab, o'ziga xos qoida va standartlar asosida ishlaydilar. Boshqa tomonдан nazar solganda, o'qituvchilik ham o'ziga xos san'at darajasida bo'lishi kerak. Shuning uchun ham har qanday o'qituvchi o'quvchi-talabalarga biror-bir fan yoki mavzu bo'yicha ta'lif berayotganida uning «*Qanday qilib, qaysi usullar orqali bilim olish jarayonini faollashtirish mumkin?*» – degan haqqoniy savolni hal qilish zaruriyati kelib chiqadi. Hamma zamonlarning va mamlakatlarining olim hamda yetakchi mutaxassislari bu haqda ko'p yillardan buyon bosh qotirib kelishgani hech kimga sir emas. Bularning ichida eng inqilobiy va ijobiy fikrni, fikrimizcha, insonlarning bilim olish jarayonini o'rganish bo'yicha yirik G'arb mutaxassisini Blum bildirgan va o'zining mashhur faol bilim olish tizimi konsepsiyasini ishlab chiqqan. Bu tuzilma ko'pincha «Bilim olishning olti pog'onasi

yoki Blum taksonomiysi» deb ataladi. Bu taksonomiya quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

**Bilim olish** – asosiy dalillarni qidirish va topish, xotirada saqlay olish, tavisiflash, tanish, qayta jonlantirish, nomini aytish, izlanish, tuzilishini bilish va ko'rsatish kabilalar orqali amalga oshadi.

**Tushunish** – qayta so'zlash, mohiyatini tushunish, tushuntirish, tasvirlash va boshqacha usulda hamda boshqacha so'zlar bilan ta'riflay olish natijasida erishiladi.

**Ishlatish (qo'llash)** – olingen bilimni boshqa sharoitlarda qo'llash (ishlatish, yechish, tajriba o'tkazish, qo'llash, kuzatish, oldindan bashorat qilish, biror-bir muammoni hal qilish) ni o'z ichiga qamrab oladi.

**Tahlil (Analiz)** – tushunchalar orasidagi asosiy munosabatlarni aniqlash va ularning mohiyatini tushunish – soha materiali (bilim, hodisa, mashina, ma'lumot)ni tashkil etuvchilarga (tarkibiy qismlarga) bo'lib chiqish va ularning har birining vazifasini tushunish. Oddiydan murakkabga va murakkabdan oddiyga yo'nalishida tahlil qila olish (qismlar orasidagi munosabatlarni aniqlash, bir-biriga ulash, birlashtirish, bo'lib chiqish, turkumlarga ajratish, guruhlarga ajratish, umumiy qonuniyatlarni topish, toifalarga bo'lib chiqish).

**Sintez** – yangi narsa (bilim, predmet, mashina)ni uning bir qancha qismlari (bo'laklari)dan va ularning xossalardan foydalangan holda tashkil qilish (tuzish, konstruksiya yig'ish, kombinatsiyalash, yangi fikr yaratish, yangi farazlarni taklif qilish), ularni sinashni amalga oshirish va natija asosida yangilarini mavjudlariga raqobatchi sifatida ishlab chiqish.

**Baholash** – erishilgan natijani aniqlash, qaror qabul qilish yoki echim topish (baholash jarayonini amalga oshirish, hal qilish, sabab va oqibat zanjiridagi aloqalarini aniqlash, toifalarga bo'lish va ularni aniqlash).

Ushbu qo'llanmada ta'lim sohasidagi jahon adabiyotida mavjud bo'Igan va atroficha o'rganilgan hamda ko'pchilik ilg'or o'qituvchilar tomonidan real hayotga tatbiq qilinib, qoniqarli natijalar olingen xuddi shu yoki shunga o'xshash usullarga, maslahatlarga va ko'rsatmalarga tayanildi. Ularni hayotga tatbiq qilish yo'llari va usullarini olingen hayotiy tajribalar asosida baholi qudrat yoritildi. Chunki bizning istak va talabimizga umuman bog'liq bo'Imagan holda Blumning bu usuli hozircha mag'ribda ham, mashriqda ham bilim olish (berish, o'zlashtirish)ning eng yaxshi usullaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda. O'quvchi (talaba)lar

ushbu zamонавиј та'lim usullарни ishlatishлари, tegishli fanлардан to'laqonli saboq олишлари va fanni tegishli bosqichda yaxshi (a'lo) o'zlashtirishлари uchun ular gimnaziya (mакtab, lisey, kollej) dasturi hajmida hamda o'рганилаготган fan haqidagi bir qancha tayanch bilimlarga ega bo'lishлари lozim. Ya'ni, iquisodiyot asoslari, matematika, ona tili va adabiyot, tarix kabi maktab dasturiga oid fundamental bilimlarni puxta o'zlashtirib олишлари kerak. Chunki fundamental bilim doirasiga ega insondagina mantiqiy fikrlash qobiliyati bo'lib, u bilan qandaydir bir soha haqida fikr almashish va uning dunyoqarashini (bilim doirasini) tegishli yo'nalishda mantiqan rivojlantirish mumkin. Agar bunga ba'zi bir obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra imkoniyat bo'lmasa, o'quvchi (talaba)larni fundamental yo'nalishlarning tegishli sohalarida boshlang'ich tayyorlash va ularga lozim bo'Igan bilimlar majmuasini berish zarur bo'ladi. Masalan, universitetda iqtisodiyot bo'yicha dars o'tilishi kerak bo'lsa, ularning maktab dasturi doirasida nimalarni o'zlashtirganlari, qaysi yo'nalishga ko'proq ahamiyat berilganligi, qaysi yo'nalishlar esa nazardan chetda qolganini aniqlab olish iqtisodiy ta'lim berishdagi muvaffaqiyatning asosidir. Agar talabalar bu aniqlash (o'rganish) natijasida mos guruhlarga bo'linib, maqsadli o'qitsa, natijalar yana ham ko'zga ko'rinarli bo'lishi mumkin. Samarali ta'lim muhitini yaratish rejalashtirilgan holat (muhit) da guruhdagi talabalar bilan bevosita munozara va faol fikr almashinish amalga oshirilganda uni yanada samarali qilish uchun quyidagilarga ahamiyat berilishi maqsadga muvofiqdir:

a) tinglovchilardan qanday javoblar kutayotganingizni o'z so'zлaringiz, jonli misollaringiz va boshqa usullar bilan bildirishingiz talab qilinishi mumkin. Ko'pincha talabalar Siz bergen savollarga qisqa, lo'nda, yaxshi o'ylanmagan, sayoz va mavhum javoblar bersa, Siz bundan to'g'ri xulosa chiqarib olishingiz hamda mashg'ulotni kerakli yo'nalishga burib yuborish uchun harakat qilishingiz lozim bo'ladi;

b) ba'zi paytlarda Sizga munozara yo'nalishini yana o'rganilayotgan matn (fakt, hodisa, qoida)ga qaratishingiz ham zarur bo'lib qolishi mumkin. Bu hol munozara butunlay boshqa mavzu tomonga burilib va o'zgarib ketgan holatlarda kerak bo'ladi;

d) tinglovchilarga o'quvchilarda har bir masala bo'yicha xilma-xil javob (fikr, munosabat)lar mavjud bo'lishiga hurmat uyg'otish ham munozarani jonli ravishda rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb

etadi. Bu hol talabalarning tajribalari, hayotiy ko'nikmalari va qiziqishlari xilma-xil bo'lgani uchun tabiiy ravishda yuzaga keladi. Bunda ularning kutilmagan «noklassik» savollariga undov berish va ularni ijobiy/ijodiy jihatdan muhokama qilish hamda keraqli yo'naliшhda rivojlantirish yaxshi natjalarga olib keladi;

e) tinglovchilar/talabalarning javoblarini «to'g'rilash»ga urinish ko'pincha yaxshi natjalarga olib kelmaydi. Bu ularni boshqalar oldida noqulay ahvolga solib qo'yishi mumkin. Chunki ularning javoblarini amaliy tajribasini hisobga olgan holda nazardan kechirsak, bundan o'ziga xos bir ma'no topishimiz mumkin, albatta. Har qanday javobni ham qo'llab-quvvatlab, uning yaxshi tomonlarini, rasional mag'zini topa olish va buni o'quvchilarga ko'rsatish ularda o'z-o'ziga ishonch uyg'otadi hamda ularning fikrlash jarayonini faollashtiradi. Bunda «Ishlagan odam yanglishadi» deb ba'zi o'quvchi/talabalarga tasalli berish ham ijobiy natjalarga olib kelishi mumkin.

## 2. MA'RUZA USULIDA TA'LIM BERISH VA UNI TASHKIL QILISH

*«Oldin dalillarni yig'ing, so'ngra ularning mazmunini bog'lang».*

Aristotel

Bu bo'limda ta'limga ma'ruza usuli haqida fikr yuritiladi. Chunki bu usul hozirgi paytda deyarli har bir o'quv-tarbiya muassasasida keng miqyosda qo'llanilmoqda. Ma'ruza usulida ta'limga berish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- Mavzuni va dars berish maqsadini tanlash.
- Tanlangan mavzu bo'yicha ko'zlangan maqsadlarni amalga oshirish uchun dars berish.
- Talabalarning o'zlashtirish darajalarini kuzatish (monitoring).
- Kamchiliklarni tuzatish va nazardan qochirilgan jihatlarni to'ldirish.
- Ta'limga berishda ta'limga quyidagi tamoyillarini qo'llash:
  1. Motivatsiya. 2. Intilish. 3. Jalb qilish. 4. Faol ishtirot. 5. O'zlashtirish darajasini qayd qilish.
  - Olingen natjalarni hisobga olgan holda keyingi darslarni yanada puxtarok tayyorlash

Bunday hammabop usulni qo'llaganda o'qituvchi tomonidan barchaga bir tekisda bir xil ma'lumot berish juda ham osonlashadi. Ya'ni, bunda «*Ommadan chiqgan insonlarga ommaviy ravishda xizmat ko'rsatiladi*», deb nomlangan ma'lum va mashhur tamoyilga amal qilinadi. Ma'ruza dars berish jarayonini umumiylashtirishga imkon yaratadi va hech kimga sir emaski, talabalar hozirgi paytda xuddi shu dars uslubiyatiga qiziqib, ko'pincha unga deyarli yuz foiz qatnashadilar. O'tilayotgan darslarning asosiy qismi va mag'zi xuddi shu xilda tashkil etiladigan darslarda talabalar ixtiyoriga havola qilinadi. Shuning uchun ham ta'lim berishning bu usulining ijobiy va salbiy tomonlarini batafsilroq ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Haqiqatan ham, juda keng miqyosda qo'llaniladigan ushbu ma'ruza usulining ko'pchilik olim va mutaxassislar tan olgan quyidagi uch yirik kamchiligi mavjud:

1. Ko'pchilik ma'ruzalarning ancha kam qismi tinglovchilar tomonidan to'la o'zlashtiriladi. Masalan, ellik daqiqalik ma'ruza davomida talabalar fikrining yo'naltirilganligini aniqlash (ushbu holda ularning konspektlaridagi yozuvlar hajmi va ma'nosи o'rganilib chiqilgan) ularning darsning 15 daqiqasi davomida 41 foiz hajmdagi materialni yozib olganliklarini, keyingi 30 daqiqada esa 25 foiz hajmdagi materialni yozib olganliklarini va butun ellik daqiqalik ma'ruza davomida talabalar ma'ruza materialining bor-yo'g'i 24 foizinigina yozib olganliklarini ko'rsatgan. Boshqa bir ilmiy izlanishda esa ma'ruza boshlanishidan 15 daqqa o'tgandan so'ng talabalar 10 foizining diqqat-e'tibori boshqa narsalarga chalg'iy boshlagan, 25 daqiqa dan keyin esa 30 foiz tinglovchilarning fikri boshqa tomonga o'zgargan, 35 daqiqa dan so'ng hamma tinglovchilarning fikri tarqoq holga kelgan, 45 daqiqa dan so'ng esa diqqat-e'tibor yana ham susayib, talabalarning ba'zilari inudrab qolganlar. Bir sutkadan so'ng ularning ushbu mavzu bo'yicha olgan bilimlari tekshirilgan. Bunda tinglovchilar berilgan materialning atigi 15–25 foizinigina o'zlashtirganliklari aniqlangan. Qolgan ma'lumot va raqamlarni esa ular qandaydir noaniq hamda mavhum holda eslab qolganlar.

2. Ko'pincha ma'ruzalar tinglovchilardan oddiy, ibtidoiy va ancha sodda darajadagi fikrlashni talab qiladi. Ko'pchilik hollarda ma'ruzalarda inson miyasi va aql-idrokining vazifasi eshitish, so'zlarni ilg'ash, tanib olish va eslab qolish bilan chegaralanadi, xolos. Lekin shuni ham

ta'kidlab o'tish kerakki, o'zgalarning biror-bir sohadagi ajoyib fikrlarini va mavjud dalillarni eslab qolish hech qachon samarali fikrlash hamda ijod qilishga olib kelmagan va olib kelmaydi ham. Tadqiqotchilar tomonidan aniqlanishicha, ma'ruzani insonlar orasidagi bir-biriga ma'lumot/informasiya uzatish usuli sifatida munozaradan yaxshi deb bo'lmaydi. Munozara esa ma'lumot oluvchilar va uni beruvchilar orasida bevosita muloqot/aloqani mustahkamlaydi, xatolarga kamroq yo'l qo'yiladi va tinglovchilarda tahliiy/mantiqiy fikrlashni rivojlantrib, ular muammolar qo'yish, tushunish/tanish va ijodiy ravishda hal qilishga undaydi/o'rgatadi.

3. Ba'zi yosh o'qituvchilar, dars berishning ma'ruza usulini talaba-o'quvchilarga aytib yozdirish (diktovka) usuliga aylantirib, uning mavqeini juda ham tushirib yuborishlari mumkin. Buni bir qancha sabablar bilan izohlashlari, masalan, bu sohadan o'zbek tilida adabiyot mavjud emas, talabalar bu darsdan daftarlariغا bir nima yozib ketadilar, imtihonga kelganlarida bu yozuvlar yordam beradi va shunga o'xshash sun'iy bahonalar keltirishlari mumkin. Bularning hammasi ham asosiz bo'lib, o'quvchi/talabalarni to'laqonli bilim olishdan chalg'itadi, xolos.

Lekin shuni ham aytib o'tish kerakki, ma'ruzalarning ham o'ziga xos bir qancha yaxshi, diqqatga sazovor hamda ijobiy tomonlari mavjud:

1. **Biror-bir soha, fan, yo'nalish, yangilik** haqida umumiylar ma'lumot berish va tinglovchilarga ushbu yo'nalish bilan bog'liq ko'rsatma/yo'l-yo'riqlar berish uchun ma'ruza usuli juda qulay, oson va maqsadga muvofigdir. Bunda tinglovchilar sohani/yo'nalishni umumiylar holda chuqurroq va tezroq o'zlashtiradilar. Bu xuddi ovqatlanish muassasasida tayyor va sifatlari ovqatlarni ularning qanday tayyorlanganini bilmasdan huzur qilib yeyishga o'xshab ketadi. Chunki ularning qanday tayyorlanganini bilmasdan ham, ovqatlearning qaysi biri yaxshi va qaysi biri unchalik emasligini bemalol ayta olasiz-da. Ularning mazasi haqidagi fikringiz ham tayyorlanish jarayonini bilish bilan aslo bog'liq emas.

2. **Agar auditoriyada**, o'quv muassasasida har bir tinglovchini/talabani alohida ma'ruza matni yoki u bilan bog'liq bo'lgan o'quv materiali/kitob/ma'ruza matni bilan ta'minlashga imkoniyat bo'lmasa, ma'ruza tinglovchilarga ommabop, chegaralangan va umumiylar holdagi tegishli ma'lumot (yoki bilim) berishning eng yaxshi usulidir, desak hech ham yanglismagan bo'lar edik. Agar talaba-o'quvchi harakatchan,

aqli, bilimli va faol bo'lsa, ta'limning an'anaviy va sust ma'ruza usuli orqali ham ancha katta bilim hajmiga ega bo'lishi mumkin, lekin uning ijodiy va samarali fikrlash doirasi baribir (taxminan 95 foizli ehtimollik darajasida) chegaralangan bo'lib qoladi. Agar o'quvchi-talabaning tug'ma qobiliyati, oilaviy sharoiti yoki muhitni buni to'ldirmasa, uning tanqidiy mushohada qilish qobiliyati ham shubhasiz chegaralangan, bir yoqlama bo'lib qolishi mumkin. Demak, boshqacha qilib aytganda, insonning kichik aqliy salohiyati (intellektual koeffitsienti) uning juda katta hajmdagi haqiqiy bilimlar majmuasi tufayli katta bo'lib ko'rinishi mumkin, chunki u o'yamasdan va fikr qilmasdan o'zining bilimlar majmuasidan tayyor kerakli javoblarni topib, darhol aytish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning isboti uchun atrofingizdagi insonlar bilan muloqot qilish va ularning betakror harakatlarini o'rganish kifoya.

3. **Tinglovchilar soni ko'p bo'lganda** ushbu usulning samarasini yuqori bo'ladni deb ayta olamiz. Ma'ruza yuzlab o'quvchi-talabalarga bir vaqtning o'zida ma'lumot yetkazish, unda mavzu bilan bog'liq savollarni muhokama qilish, yo'nalish olish va mavzuning mohiyatiga tushunish uchun real imkoniyat yaratadi.

4. **Bu usul ta'lim berishda unchalik tajribasi** ham, bilimi ham, intilishi ham bo'lmasdan o'qituvchilarni ta'lim jarayoniga jalb qilishga imkon yaratib, o'quv muassasasidagi o'qituvchi kadrlar safini bir qadar to'ldirishga xizmat qiladi. Chunki ular uchun ma'ruza usulini qo'llash, o'zini bilimdon qilib ko'rsatgan holda o'rtamiyona dars berishga cheksiz imkoniyatlar yaratadi, bunda o'qituvchi o'quvchilar bilan bevosita muloqotda bo'lmasdan, minbardan turib ma'ruza o'qish orqali o'z pedagogik mahoratini ma'lum darajada namoyish etishga imkoniyat topadi. Mavzu bilan uzviy bog'liq biror-bir savol yoki muammo bilan unga murojaat qilinsa, u, masalan, quyidagi tarzda javob berishi mumkin: «*Azizim men hech qachon palov pishirmaganman, lekin palovning mazasini har qanday oshpazdan ham yaxshiroq bilaman*». Demak, yuqorida keltirilgan an'anaviy ma'ruza usuli haqidagi tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, ta'limni bunday tashkillashtirishda talabalar ma'ruzaning mazmun-mohiyatini yaxshi eslab qololmaydilar, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlanira olmaydilar va olingen ma'lumotlarni hayotda ishlatishtiga birmuncha qynaladilar. Ya'ni, ular xuddi kompyuterning xotirasidagi saqlanayotgan ma'lumotlar bankidagi ma'lumotlar majmuasiga o'xshash

passiv bilimlarga ega bo‘ladilar, xolos. Shuning uchun ham undan farqli o‘laroq, quyida biz zamonaviy faol ma’ruza usulini va uni tashkil qilish qonun-qoidalarini ko‘rib chiqamiz. Hozir biz ko‘rib chiqishimiz lozim bo‘lgan Aktiv/Faol ma’ruza usuli quyidagi asosiy bosqichlardan iborat bo‘ladi:

**1. Ma’ruzani o‘qish jarayoniga tayyorlanish bosqichi (uni boshqacha qilib shartli ravishda «Chaqiriq», «Tayyorlanish» atamalari bilan atash ham mumkin).**

Bu bosqich ma’ruza darsi o‘tilishining ilk bosqichi bo‘lib, unda o‘qituvchi talabalarning diqqat-e’tiborini o‘rganilishi lozim bo‘lgan mavzuning materialiga (sohasiga, muammosiga) iloji boricha tezroq jamlashga yordam beruvchi biror-bir topshiriq, masala yoki fikr beradi. U bunda ikki maqsadni ko‘zlaydi: tinglovchi, o‘quvchi yoki talabalarga ushbu soha bo‘yicha ularning bilgan barcha bilimlarini eslashni taklif qiladi va buning asosida ma’ruzada javob berilishi zarur bo‘lgan savollar majmuasini tuzadi. Demak, ushbu birinchi (**Chaqiriq, Tayyorlanish**) bosqichning asosiy maqsadi talabalarning ma’ruza o‘qilishi kerak bo‘lgan yo‘nalishdagi bilimlarini faollashtirish, ularda bo‘lajak ma’ruzaga ma’lum bir darajada qiziqish uyg‘otish va ma’ruzaning pirovard maqsadlarini aniqlashga qaratilgan. Bunda, masalan, o‘qituvchi quyidagi tartibda o‘z ishini tashkil qilishi mumkin:

a) tanlangan ma’ruza mavzusi bo‘yicha o‘quvchi-talabalarning bilimlarini jamlash uchun besh daqiqa vaqt ajratish (bu ishni o‘qituvchining topqirligi va aql-farosati bilan bog‘liq ravishda xilma-xil usullarda va ko‘rinishlarda uyushtirish mumkin);

b) o‘quvchi-talabalarning ma’lum tartibda hosil qilingan guruuhlarida yoki ikki kishilik juftliklarda (bu holda har bir o‘quvchi o‘zining yonidagi sherigi bilangina muloqot qilishi mumkin) muhokama qilish uchun savollar qo‘yish va ularning muhokamasini jonli ravishda tashkil qilish;

d) tinglovchilarga ushbu aniq ma’ruza ma’nosi va matni bilan bog‘liq iboralar, tayanch so‘zlar, atamalar yoki tushunchalar ro‘yxatini ko‘rsatish va ulardan bu iboralar hamda atamalarni izohlab berishni, mohiyatini yoki ma’nosini so‘rash. Agar shunday ish amalga oshirilsa, ma’ruzani berish jarayoni ancha oson va ortiqcha muammolarsiz o‘tadi hamda o‘quvchilar o‘zlarini erkin his qilib, masalaning mohiyatini anglay boshlaydilar.

**2. Ma’ruzaning birinchi qismiga oid ma’lumotlarni berish (buni talabalarning mavzu haqida ma’lumot olishiga qiyoslagan holda «Ma’lumot olish» bosqichi deb atasa ham bo‘laveradi.)**

Mazkur hal qiluvchi bosqichda o‘qituvchi 10–15 daqiqa davomida ma’ruza matnini tushuntiradi yoki uning tub mohiyatini o‘quvchilar diqqat-e’tiboriga havola qiladi. Bu vaqt butunlay tasodify ravishda mualliflarning o‘zlarini tomonidan tanlangan emas, albatta. Uning o‘ziga xos ilmiy-uslubiy va amaliy asosi mavjudki, bunga riosa qilmasdan aslo ilojimiz yo‘q. Chunki ma’ruza qanday bo‘lmasin, uning davomiyligi belgilangan vaqtdan oshib ketgandan so‘ng tinglovchilarning ma’ruzaga bo‘lgan e’tibori asta-sekin susaya boshlaydi. Demak, ular uchun qandaydir miya faollashtiruvi turidagi yoki ularning mudragan miyasini jonlantirish uchun turtki bo‘luvchi ishchan faoliyatni tashkil qilish lozim bo‘ladi. Ushbu ish esa keyingi bosqichda amalga oshiriladi.

**3. Ma’ruza o‘qilishi jarayonida oraliq xulosalar chiqarish (ushbu bosqichni uning fikrlash jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi uchun shartli ravishda «Fikrlov» bosqichi deb atashimiz mumkin)**

Ma’ruzaning ikkinchi bosqichida ta‘rif etilgan birinchi **«Ma’lumot olish»** deb nomlangan qismi tugaganidan so‘ng, o‘qituvchi o‘z ma’ruzasini ma’lum muddatga to‘xtatadi va tinglovchilardan hozirgina tinglangan ma’ruza qismi bo‘yicha eshitganlarini va o‘zlarining ushbu yo‘nalish, fan yoki soha haqidagi shaxsiy fikrlarini o‘zlashtirilgan ma’lumot bilan solishtirishni va ijodiy fikrlashni taklif qiladi. Masalan, o‘qituvchi tinglovchilarni juftliklarga bo‘lib, ularga birgalikda (o‘z sheriklari bilan) quyidagi turdagি savollarni muhokama qilishga yo‘llashi mumkin:

– Hozir eshitgan ma’ruzadagi Siz olgan eng asosiy ma’lumotlardan ..... ni aytib bera olasizmi?

– Ma’ruzadan olingan ma’lumotlar Sizning ushbu soha haqidagi fikringiz va tajribangiz bilan mos keladimi?

– Uning qaysi bir jihatlarini yoki tarkibiy qismlarini o‘zingiz uchun muhim deb bilasiz?

– Ma’ruzada bayon qilingan fikrlar Sizning shaxsiy fikringiz va tajribangizga mos keladimi?

**4. Ma’ruzaga navbatdagи tayyorlanuv bosqichi va uning mohiyati (bu bosqichni unda talabalarni ma’lumotlarning keyingi qismini olishga chaqirish uchun tayyorlanish ko‘zda tutilgani uchun**

**shartli ravishda «Chaqiriq» yoki «Tayyorlanish» bosqichi deb ham atashimiz mumkin.)**

Bu bosqichda ma'ruza o'qiydigan o'qituvchi talabalar yoki tinglovchilarga aynan birinchi bosqichda amalga oshirilgan jarayonga o'xshash yakka yoki juftliklarda ishlash uchun qisqa topshiriqlar beradi va bu topshiriqlar ularning ongida mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otishi lozim bo'ladi. Bundan pirovard maqsad bo'lib qu'yidagilar xizmat qilishi mumkin:

- o‘quvchi-talabalarning o‘zlashtirgan bilimlarini jamlash, ularda ma’ruzaning keyingi qismini eshitish uchun qiziqish (stimul) hosil qilish;
  - ma’ruza qiziqarli ekan, degan ijobjiy fikr uyg‘otish;
  - o‘quvhilarning diqqatini yana bir marta ijodiy bilim olishga jalb qilish.

*5. Ma'ruzaning ikkinchi qismiga oid ma'lumotlarni imkoniyat darajasida qiziqarli qilib berish (ushbu bosqichni uning mohiyatiga mos ravishda «Ma'lumot olish» deb atash maqsadga muvofiqdir).*

Bu bosqichda o'quvchilarga mavzu davomining mohiyati qisqa va ifodali qilib tushuntiriladi va shundan so'ng o'qituvchi yana 10–15 daqiqa mobaynida mohirlik bilan ma'ruzaning keyingi qismini tinglovchilar diqqat-e'tiboriga havola qiladi hamda uning mazmunini (mohiyatini, tub ma'nosini, materialini) tanqidiy (jonli ravishda, ijodiy) jihatdan o'yash va tahlil qilish uchun talabalar diqqatiga havola qiladi. Bunda jonli missollardan foydalangan holda, tushunarli va hayotiy qilib ma'ruza savol va masalalarini tavsiflash katta amaliy ahamiyatga egadir. Agar o'qituvchi shu masalani muvaffaqiyatli hal qila olsa, hech qynalmasdan keyingi bosqichga o'tishi mumkin.

*6. Ma'ruza mavzusi bo'yicha ikkinchi marta oraliq xulosalar chiqarish bosqichi* (bu bosqich yana o'quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtirish bilan uzviy bog'liqligini hisebga olgan holda uni «Fikrlash bosqichi» deb ataymiz).

Bunda o'qituvchining hurmat va e'tiboriga loyiq tinglovchilar c'z shaxsiy fikrlarini hamda bilimlarini ma'ruzadan olgan ma'lumot va g'oyalar bilan solishtirish hamda tegishli xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bizningcha, faol ma'ruza o'tkazishning asosiy va hal qiluvchi bosqichlari hamda uni tashkil qilishning tub sir-asrorlari kitobxoniga ancha tushunarli bo'ldi chog'i. Demak, biz olg'a qarab harakat qilishga

o'ziga xos harakat dasturi yaratdik va ma'ruza bilan bog'liq keyingi qadamlar ma'nosini ham ko'rib chiqishga tayyormiz. Xuddi shu tartibda harakat qilinsa, ma'ruzaning uchinchi, to'rtinchi va boshqa hamma qismlari muvaffaqiyatl o'qiladi va nihoyat darsni yakunlash bosqichiga etib kelinadi. Bu esa o'z-o'zidan yakuniy topshiriq turidagi mashg'ulot bo'lib, yalpi miqyosdagi (ko'rinishdagi), ma'ruzaning hamma tarkibiy qismlarini va mohiyatini qamrab olgan ijodiy va tanqidiy ko'rinishdagi fikrlashni talab qiladi.

*7. Faol ma'ruzaning oxirgi bosqichi yakuniy topshiriq va fikrlash deb atalishi mumkin (demak, uni shartli ravishda «Fikrlash» bosqichi deb ham atay olamiz).*

Faol usulda o'tkazilayotgan ma'ruzaning ushbu oxirgi va hal qiluvchi bosqichida o'qituvchi o'quvchi-talabalarga shunday turdag'i topshiriq, masala, test, muammo yoki ko'rsatma berishi lozimki, unda tinglovchilar ma'ruzada berilgan asosiy ma'lumotlar, faktlar va qoidalar to'g'risida ijodiy hamda jonli fikrlasinlar. Bu esa, o'z navbatida, albatta, o'qituvchining mavjud tajribasi va bilimi darajasi bilan aniqlanib, xilma-xil ko'rinishlarda va usullarda tashkil qilinishi mumkin. Bunday tadbirlarga yaqqol misol tariqasida quyidagi larni keltirishimiz mumkin:

- sinfdagi (guruhdagi) talabalarni (o‘quvchilarni, tinglovchilarni) maqsadga muvofiq ravishda tashkil qilingan guruhlarga yoki juftliklarga bo‘lingan holda ma’ruzaning asosiy qismlari haqida oldindan tuzilgan ochiq turdagи savollarga javob berishlarini so‘rash mumkin;
  - har bir tinglovchiga ma’ruzaning asosiy qismini, undagi berilgan qoidalar va ma’lumotni hamda ma’ruza mohiyatini qamrab oluvchi «5 daqiqalik insho (hikoya)» yozishni taklif qilish ham samarali natijalarga olib kelishi mumkin;

— har bir tinglovchi/talabaga ma'ruza davomida ko'rib chiqilgan muammolar bilan bog'liq birlina savolga bag'ishlangan «5 daqiqalik insho» yozish topshirig'ini berish va ular uchun ma'ruza davomida javobsiz qolgan birlina savolni yozishlarini taklif qilish. O'qituvchi bu insholarni yig'ib oladi va ularni kelajakda o'z ma'ruzasini yanada boyitish uchun ishlatishi mumkin yoki ularning ichidan eng qiziqarli/maqsadiga muvofoklari bo'lgan tashqari talabalar bilan birlgilashda uchun ma'qilishi mumkin. Endi har bir alofida olingan bosqichda so'flarigaani mumkin bo'lgan faol pedagogik usullar habida bata'sifro to'xtalib o'tamiz.

363160

No 36316C

**(Chaqiriq, Tayyorlanish)** bosqichida talabalarning o'rganilishi zarur bo'lgan yo'nalishdagi bilimlarini faollashtirish, ularda o'rganilayotgan mavzuga nisbatan ma'lum bir darajada qiziqish uyg'otish va ma'ruzaning berilishi bilan bog'liq pirovard maqsadlarini aniqlash uchun quyidagi turfa usullarni qo'llash mumkinki, ular o'qituvchining ishini ancha osonlashtiradi va uning o'quvchilar bilan maqsadga muvofiq ravishda muloqot qilishiga imkon beradi:

### *Mantiqiy zanjir usuli*

Bu usul ko'pincha tezda faollashtirilish va o'rganilayotgan mavzuning mohiyatiga etish o'ta muhim bo'lgan mavzularni o'rganishda yoki shunday xususiyatlarga ega bo'lgan guruhlarda qo'llaniladi. O'qituvchi ushbu mavzu bilan uzviy bog'liq bo'lgan so'zlar ketma-ketligini (gapni, fikrni, qoidani, faktini, tushuntirishni, gipotezani, xronologik ketma-ketlikni, sabab-oqibat zanjirini va hokazo) ixtiyoriy ravishda tanlab oladi va ularni bir qancha alohida so'z qismalariga bo'lib, alohida qog'ozlarga yozib chiqadi. Keyin talabalar (tinglovchilar) guruhlariga fikrlarini jamlab muhokama qilish natijasida, so'zlarni ma'no-mohiyatiga ko'ra to'g'ri tartibda joylashtirish vazifasini beradi. Bir qancha tinglovchi/talaba bu ishni bajarib, guruh yagona bir xulosaga kelganidan so'ng, o'qituvchi ularga bu fikr o'rganilayotgan ma'ruba matnida qanday ma'noda kelishiga e'tibor berishni va ma'ruzadan so'ng uni iloji boricha aniqrok va batafsilroq aniqlashga harakat qilish kerakligini bildiradi. Demak, endi talabalar ma'ruba davomida bu so'z/fikr qachon va qay tarzda hamda qanday ma'noda kelishiga alohida e'tibor beradilar, ya'ni ularning fikri ma'ruba davomida bir tomonga yo'naltirilgan (fokuslashgan) holatda bo'ladi. Yo'naltirilgan fikr-e'tibor esa ularga mavzuni aql nuri bilan yoritishga va undan tegishli ma'noni atroficha o'qishga olib kelishi tabiiy.

### *Ma'ruba mavzusi bo'yicha ma'lumot yozish*

Tinglovchi/talabaga besh daqiqa davomida taklif etilgan mavzu bo'yicha ular biladigan hamma ma'lumotlarni erkin uslubda yozish taklif qilinadi. Besh daqiqa o'tgandan so'ng esa ishni ijodiy ravishda yakunlash uchun yana bir daqiqa qo'shib berish ham yaxshi natjalarga olib keladi. Chunki tig'iz (kritik) sharoitlarda inson miyasiga eng yaxshi

va samarali fikrlar kelishi mumkin. Keyin esa ularning ba'zilaridan yozganlarini bir-birlariga aytishlarini, munozara qilishlarini yoki barcha sinf o'quvchilariga o'qib berishlarini so'rash mumkin. Ularga ma'ruba davomida qaysi bir fikr, g'oyalar yoki kimning fikri to'g'ri chiqishiga ahamiyat berishni so'rash ularning fikrini jamlashga va keyinchalik bo'ladigan ma'ruzani diqqat-e'tibor bilan tinglashga katta yordam beradi. Bunda, albatta, o'qituvchi shart-sharoitga va o'quvchilarning qiziqish darajasiga bog'liq ravishda bundan boshqa imkoniyatlarni ham keng miyosda qo'llashi mumkin.

### *Semantik xususiyatlar tahlili*

Bunda tinglovchi (talaba)larga ma'lum bir ko'rinishdagi va tuzilishdagi jadval tuzish taklif qilinadi. Ushbu jadval birinchi ustunining birinchi satrida ularga yaxshi ma'lum bo'lgan bir hodisa, dalil yoki faraz, ikkinchi satrda bugun o'rganiladigan mavzu bilan bog'liq hodisa, dalil yoki farazning yo'nalishi qo'yiladi. Jadval birinchi satrining qolgan katakchalarida esa mavzu bilan bog'liq asosiy ko'rsatkichlar yozib chiqiladi. Talabalarga hosil bo'lgan jadvalning ikkinchi va uchinchi satrlaridagi bo'sh katakchalarini to'ldirish taklif qilinadi. Agar ular tegishli ma'lumotlar yo'qligi yoki uni yaxshi bilmasliklari sababli jadval katakchalarini to'ldira olmasalar yoki javoblarining to'g'ri ekanligiga unchalik ishonmasalar, buni ma'ruba davomida eshitgan ma'lumot, qoida yoki faktlardan foydalanib, amalga oshirishlari (tekshirishlari) mumkinligini yotig'i bilan tushuntirish kerak bo'ladi. Demak, endi talabalar ma'ruba davomida uni tinglash va tegishli ma'lumot olish uchun yordam beradigan bir yordamchi vositaga ega bo'ladilar. Bu usul matematika, fizika, iqtisodiyot kabi aniq fanlarni o'rganishda juda ham qo'l kelishi va foyda berishi mumkin.

**(Ma'lumot olish)** bosqichiga tinglovchilar (talabalar) (**Chaqiruv, Tayyorlanuv**) bosqichidan so'ng bir qadar tayyor bo'ladilar. Chunki ular bu bosqichga ma'ruba mavzusi bo'yicha bilganlarini imkoniyat darajasida eslab olgan, o'zlariga mavzuga oid aniq savollar bergen, oldilariga tegishli maqsadlarni qo'ygan va demak, ushbu mavzuga qiziqkan holda keldilar. Bu bosqichda ham quyida keltirilgan bir qancha metodik usullarni qo'llash mumkinki, ular darsning samaradorligini birmuncha oshiradi:

### *O'zaro so'rov usuli*

Bu metodik usul quyida bayon qilingan tarzda qo'llanilishi mumkin. Ikki talaba (o'quvchi) mavzuga bog'liq biror-bir matnni, ma'lumotni, qoidani, dalilni o'qiydi va har bir bo'lim yoki xat boshidan so'ng bir kancha muddat to'xtaydilar hamda bir-birlariga o'qilgan material qismining mazmuni yuzasidan tegishli savollar beradilar. Bunda ular bir-birlaridan ushbu matn qismidagi asosiy fikrlar haqida so'raydilar. Mabodo qiyinchilik tug'ilsa yoki tushunmovchilik ro'y bersa, o'qituvchi ularni maqsadga muvofiq ravishda yo'naltirib turishi va masala mohiyatini tushuntirishi lozim bo'ladi. Bu usulni qanday qo'llash keraqligini auditoriyadagi talabalarga ko'rsatgandan so'ng, o'qituvchi guruuhning barchasini maqsadga muvofiq bo'lgan juftliklarga bo'ladi hamda ularning ko'rsatilgan tartibda birgalikda ishlashlarini amalgalash oshiradi va kerak bo'lganda, ularga yana yaqindan uslubiy-axborot tarzda yordam beradi. Bunday juftliklar o'qituvchi-sinf tarzida ham tashkil qilinishi mumkin. Bunda o'qituvchi matnning biror-bir qismini o'qiydi va o'quvchilar uning mazmunini tushunganlaridan so'ng, talabalar ushbu qism bilan bog'liq savollar beradilar. Keyin esa o'qituvchi rolini biror-bir talaba egallashi mumkin. Bunda o'qituvchi sun'iy ravishda o'z-o'zidan «oddiy tinglovchi/o'quvchi» darajasiga tushishi lozim bo'ladi.

### *O'zaro bir-birini o'qitish usuli*

Ko'pchilikka ma'lumki, o'rganishning eng yaxshi usuli o'zgalarni biror-bir narsaga o'rgatishga harakat qilishdir. Bunda inson o'zining hamma bilimi va imkoniyatlarini ishga solib, bu vazifaga ijodiy ravishda yondashadi. O'zaro bir-birini o'qitish usuli ham xuddi shu tamoyilga asoslangan bo'lib, bunda o'quvchilarga vaqtinchalik o'qituvchilik rolini bajarish taklif etiladi va ular guruhdag'i boshqa talabalarni o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq matnlar, qoidalar, dalillar yoki ma'lumotlar bilan ishlashga o'rgatish imkoniyatiga ega bo'ladir. Guruhdag'i har bir talabaga biror-bir matnning bir xil nusxasi tarqatiladi. O'quvchilar galma-galdan o'qituvchilik rolini o'ynaydilar. Bunda «o'qituvchi» rolini o'ynaydigan talabadan quyidagilarni bajarish so'raladi. Ya'ni, guruhdag'i hamma talabalar matnning biror-bir bo'lagini o'qib bo'lishganidan so'ng «o'qituvchi»:

- matn bo'lagidagi ma'lumotlarning mohiyatini qisqacha aytib va tushuntirib beradi;
- matn bo'yicha savollar o'ylab topib, ularga boshqa talabalarning javob berishini so'raydi;
- boshqalar uchun tushunarsiz bo'lgan joylarini qayta tushuntirishga va ularning ma'nosini chaqishga harakat qiladi;
- matnning keyingi bo'lagida nimalar kelishi mumkinligi haqidagi o'z taxminiy fikrlarini aytib va tushuntirib o'tadi;
- matnning keyingi bo'lagini o'qish va uni atroflicha tahlil qilish uchun topshiriq beradi.

Bunday turdag'i darsning boshlanishida, avvalo, o'qituvchining o'zi talaba/o'quvchiga bu usulni aniq va ravshan namoyish qilib berishi lozim bo'ladi. Shuning uchun ham u talabalarga o'zining matning birinchi qismi bo'yicha munozara boshlovchi bo'lishini bildiradi va ulardan bu jarayonni diqqat bilan kuzatish kerakligini so'raydi. Talabalarning o'zları ham bu usulda dars olib borishlari zarurligini bilganlaridan so'ng o'qituvchining namoyish qilayotgan darsini diqqat bilan kuzatadilar va keraqli xulosalarni chiqaradilar. O'qituvchi yuqorida keltirilgan besh bosqichdan iborat harakatlar ketma-ketligini tinglovchilarga batafsil tushuntirib bo'lidan so'ng, har bir bosqichda shaxsan o'zi nima qilish lozimligini aniq va ravshan namoyish qilib berishi juda muhimdir. Bundan tashqari, o'qituvchi matnni qanday usulda maqsadga muvofiq bo'lgan qismlarga bo'lish muammosini ham oldindan hal qilib olishi lozim. Bunda asosiy ko'rsatkich sifatida tanlangan matn qismini 8–10 daqiqa davomida muhokama qila olinishi ish muvaffaqiyatining garovidir. Demak, matnni qismlarga bo'lganda, uning har bir alohida bo'lagida qanday turdag'i va hajmdagi ma'lumotlar mavjudligini hisobga olish kerak bo'ladi.

Savollarni ham mantiqiy, ma'lum me'yorlarga rioxha qilgan holda berish maqsadga muvofiqdir. Bunda ham talabalarga savol berish malakasini namoyish qilish lozim bo'ladi (bu boradagi qo'shimcha foydali maslahat va ma'lumotlarni qo'llanmaning tegishli bo'limidan olishingiz mumkin). Savollar matn parchasida mavjud bo'lgan fikrlarni oydinlashtirish va yanada chuqurroq tushuntirish, unda aytilmagan (lekin yashirin holda mavjud) tomonlarni aniqlash va ularni talabalarning fikrlari bilan solishtirish maqsadida berilgani ma'qul. O'qituvchi ma'lum turdag'i

va ma'nodagi savollar vositasida talabalarning predmetni/sohani o'rganish jarayonini iloji boricha maqsadli ravishda boshqarishi lozim. Matnning keyingi qismida nima kelishi mumkinligi haqida o'z fikrlarini aytishda o'qituvchi o'z shaxsiy fikrlarini bildirishi yoki bu hakda talabalarning mulohazalarini ham so'rashi mumkin. Agar talabalar birinchi namoyish vaqtida usulning mohiyatiga to'la tushunmasalar yoki shartli «o'qituvchi» sifatida ishlashga qiyalsalar, o'qituvchi ularga hamma bosqichlarni yana bir karra batatsil tushuntirib, ikkinchi marta namoyish qilish jarayonini amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir.

#### ***O'qitish bo'yicha talabalar uchun maxsus qo'llanma tayyorlash***

Bunday turdag'i qo'llanmalar tayyorlash o'qituvchi bo'limgan taqdirda ham (yoki shunday sharoitni sun'iy ravishda yaratib) talabalarning o'rganishlariga va bilim olishlariga asos yaratib, ularning ilmiy izlanishlar olib borish malakalarini rivojlantiradi. Masalan, ular mustaqil ravishda biror-bir narsani, hodisa yoki mavzuni o'rganmoqchi bo'lsalar bu juda ham qo'l keladi. Oldindan aniq berilgan savollar mavjud bo'lganda talabalarning diqqat-e'tibori matnda u yoki bu yerda tarqoq holda berilgan ma'lumotlarga, dalillarga va qoidalarga yo'naltiriladi hamda bu hol ularning sohani chuqurroq o'zlashtirishlariga va ijodiy fikrashlariga yordam beradi. Tegishli matn parchasi o'qib bo'linganidan so'ng, qisqa muddatli munozara uyushtiriladi. Tanqidiy munozara qila olish qobiliyatini rivojlantirish va fikrash jarayonini mukammal tashkil qilish maqsadida ishlab chiqilgan ushbu turdag'i qo'llanmalar quyidagi ijobjiy natijalarga olib kelishi mumkin:

a) ular talaba (o'quvchi)larga matndagi muhim, ammo unchalik ko'zga tashlanmaydigan fikr va g'oyalarni ilg'ab olishga imkon beradi. Oddiy holatlarda talabalar bunday fikr va ma'lumotlarni unchalik tushunmaydilar yoki tub mohiyatiga eta olmaydilar;

b) ushbu turdag'i qo'llanmalar va yozma materiallar ta'lim olishning hamma bosqichlarida yuqori darajadagi va sermahsul o'ylash jarayonini rivojlantirishga olib keladi hamda pirovard natijada o'quvchilarning ta'lim samaradorligini va saviyasini sezilarli darajada oshiradi;

d) bunday yozma manbalar va qo'llanmalar talabalarning bo'lajak munozara hamda yozma ishlari uchun o'ziga xos imkoniyat (vositachi) vazifasini bajaradi.

#### ***Ikki bo'limdan iborat kundaliklar***

Bunday ko'rinishda tashkil qilingan kundalik turiga mansub yozuvlar talabalarga o'rganilayotgan (o'qilayotgan) mavzu matning mazmunini o'z shaxsiy tajribalari hamda real hayot bilan solishtirishga, o'zlarining tabiiy ravishdagi qiziqishlarini imkoniyat darajasida qondirishga va fikrlarini bir yo'nalishda jamlashga yordam beradi. Bunday ikki bo'limdan iborat kundaliklar tuzishni talaba (o'quvchi)larga biror-bir katta hajmli matnni yoki mavzuni mustaqil ravishda o'zlar o'rganib kelishlari haqidagi uy vazifasi yoki mustaqil topshiriq sifatida berilganda juda ham foydalidir. Bunday ko'rinishdagi kundalikni tuzish uchun daftarning har bir varag'i o'rtasidan teng ikkiga bo'linadi. Daftardagi ushbu chiziqning chap tomonida matning qaysi qismi ularda katta taassurot koldirgani haqida yoziladi. Masalan, matnning bu qismi ularga hayotlarida uchragan biror-bir voqeа yoki hodisani, tajribani, hikoyani yoki voqeani eslatgandir yoki ular biror-bir narsaga qarshidirlar, ishonmaslar, astoydil qarshilik qilishni xohlarlar. Kundalikning o'ng tomonida esa talabalar chap tomonda o'zlarining yozganlariga tushuntirish yoki izoh berishlari lozim bo'ladi. Ya'ni,

- Nega bu qism ularda katta taassurot koldirdi?
- Nima sababdan ular shu matn qismini tanlab olib yozdilar?
- Bu ma'lumot ularda qanday ijobjiy yoki salbiy fikrlarni yuzaga keltirdi?
- O'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq qanday savollar yoki muammolar tug'ildi?

Demak, talabalar matnni mustaqil o'qish va o'zlashtirish jarayonida vaqt-vaqt bilan to'xtab, fikrlab, o'zlarining ikki bo'limdan iborat kundaliklarida tegishli xulosalar qilishlari lozim bo'ladi. Bu esa ularni o'ylashga, fikrashga va mushohada yuritishga majbur qiladi. Ushbu yozuvlar hajmi o'qituvchi tomonidan tavsiya qilingan bo'lishi ham mumkin, masalan, har besh betli matnni yoki mavzuni o'qiganda talaba (o'quvchi) o'z kundaligida o'nta yozuv qilishi shart deyilsa, ularning ishini yanada samaralirok qilish mumkin bo'ladi. Yozuvlar hajmi albatta matnning yo'nalishi, ma'nosi va ahamiyatiga bog'liq bo'lishi kerak.

Navbatdagi (**Fikrlov**) bosqichda oldingi bosqichlarda qo'llanilgan ko'pgina usullarni qaytdan ishlatish mumkin bo'ladi. Bu aqliy (mental)

ko‘rinishga ega bo‘lgan bosqichda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ba’zi bir usul va uslubiyatlarga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz:

### *Asosiy atamalar, qaytaruv*

Agar matnni yoki mavzuni mutolaa qilishdan oldin talaba (o‘quvchi) larga unda uchraydigan asosiy atamalarni va so‘zlarni umumiy ravishda izohlash talab qilinsa hamda ular konkret matnda qanday ma’noda ishlatilganligi so‘ralsa, matnni o‘qib bo‘lgandan so‘ng ulardan «Bu so‘z, atama, so‘z qismlarini yana qayerlarda va qanday ma’nolarda ishlatsa bo‘ladi?» – degan savol bilan murojaat qilish mumkin bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, talabalar va o‘qituvchi orasidagi qizg‘in munozara hamda fikr almashinuv uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

### *Bir-biriga bog‘lanmagan mantiqiy zanjirlar, qaytaruv*

Matnda uchraydigan voqeа-hodisalar aks ettirilgan gaplar (gap qismlari, bo‘laklari)ni alohida so‘zlarga ajratgan holda talabalarga tavsiya etiladi va matnni o‘qib chiqish jarayonida (yoki undan keyin) so‘zlarning matn bilan uzviy bog‘liq ravishda joylashuvi, ketma-ketligini topib, so‘zning boshlang‘ich ko‘rinishini tiklash topshirig‘i beriladi. Bu vazifa talab darajasida bajarilganidan so‘ng, o‘quvchilar (talabalar) sinfdoshlari oldida bajargan ishlarini tushuntirib va izohlاب berishlari lozim bo‘ladi.

### *O‘qitish bo‘yicha talabalar uchun maxsus qo‘llanma tayyorlash, qaytaruv*

Agar o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan qo‘llanma yaxshi uylab tuzilgan bo‘lsa, undagi topshiriqlar o‘quvchi (talaba)larga matn mazmunidagi mavjud ma’lumotlarni chuqr fikrlagan va topshiriqqa ijodiy yondashgan holda to‘plashga va umumlashuv hosil qilishga yordam beradi. Albatta, bunda bajarilgan ishlardan xulosa chiqarish deb ataladigan va alohida ahamiyatga molik bo‘lgan bosqichni ham aslo yoddan chiqarmaslik zarur. Chunki har bir talaba o‘z tajribasi va bilimidan kelib chiqqan xolda muqobil va o‘ziga xos ko‘rinishdagi yechimlarga kelishi tabiiy. Bu esa, o‘z navbatida, talabalar orasida jonli muloqot hamda qizg‘in munozarani amalga oshiradi va ushbu munozara haqiqatning mezoni sifatida xizmat qiladi.

### *Ikki bo‘limdan iborat kundaliklar, qaytaruv*

Matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng, (**Fikrlash**) bosqichida talabalar yana ikki bo‘limdan iborat kundaliklar bilan ishslash jarayoniga qaytadilar. O‘qituvchi matnni yoki tegishli mavzuni qismlarga bo‘lgan holda kundaliklaridagi yozuvlardan foydalaniб, bir-birlari bilan mavzu doirasida o‘zaro fikr almashishlarini so‘raydi. O‘qituvchining o‘zi ham matnga, mavzuga va uning tarkibiy qismlariga tegishli bo‘lgan izohlarni tayyorlab kelishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu ishga iloji boricha ijodiy yondashish lozim. Chunki o‘qituvchi muloqot chog‘ida o‘quvchilarga o‘zining shaxsiy fikrlarini ham bayon etishi va ularni har taraflama izohlashi lozim bo‘ladi.

### *O‘ylang/Birgalikda ishlang/Fikr almashing*

Bu faoliyat turi o‘quvchilar (talabalar)ni matn mazmuni hamda mohiyati haqida atroficha fikr yuritishga va unga oid ma’lum bir xulosa chiqarishga undaydi. Buni tashkil etish uchun o‘qituvchi talabalarни chuqr o‘ylashga va mushohada yuritishga undaydigan savollar tayyorlaydi. Keyin har bir talabaga ushbu savollarga qisqa va lo‘nda javob yozishni so‘raydi. Shundan so‘ng talabalar juftliklarga bo‘linib, bir-birlari bilan mavzu haqida fikr almashadilar va ikkala talabaning javobini ham hisobga olgan holda bir butun javob tayyorlashga harakat qiladilar. Mashg‘ulot oxirida o‘qituvchi talabalar juftliklariga qisqa muddatda o‘z ishlarining yakunini (muhokamalarining natijasini) guruhgа so‘zlab berishlarini so‘raydi. Bu mashg‘ulot ularni faoliikka, o‘zaro fikr almashishga, tanqidiy mulohazaga va ijodiy fikrlashga undaydi.

### *3. SUQROT USULI YOKI SAVOL-JAVOBLAR VOSITASIDA TA‘LIM BERISH*

*O‘zingga ma’lumdir, ey dahr sitaming.  
Sitam chodirida o‘tar har damping.  
Yomonga ne’mat-u yaxshiga kulfat,  
Yovmisan yo eshak? Bu ne alaming?*

*Umar XAYYOM*

Ushbu usul qadimgi greklar tomonidan keng qo‘llanilgan bo‘lib, uning asoschisi grek olimi Suqrot hisoblanadi. Bu usulning mohiyati

ta'lim jarayonida induktiv sabab-oqibat zanjiridan foydalanishga va buning vositasida talabalar bilan faol muloqotni amalga oshirishga asoslangan. Ko'pincha bu usulni «reflektiv faol fikrlash usuli» deb ham atashadi va bunda o'qituvchilar talabalarga sermaxsul fikrlash ko'nikmalarini orttirishga va bu bilan bog'liq ruhiy pozitiv jarayonlarni rivojlantirishga ko'mak berishlari kerakligi uqtiriladi. Bunda o'qituvchilar talabalarga «faol konstrukcionist» bo'lish ko'nikmalarini singdiradilar va ular bilimlarini o'z kuchlari bilan barpo qiladilar. Suqrot usulining asosiy maqsadi va mag'zi talabalarga qanday qilib savollar berishni o'rgatish, ushbu savollarga tegishli javoblar topish, bu savollar bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal qilish va bular asosida tevarak-atrofdagi dunyo va u bilan uzviy bog'liq bo'lgan o'z g'oyalari, gipotezalari, nazariyalari va qarashlarini shakllantirishdir. Bunda o'qituvchilar talabalarga muammoli hayotiy masalalarni va hodisotlarni bayon qiladilar hamda ularning mos yechimlarini savol-javob vositasida topishga harakat qiladilar. Masalan, o'qituvchi qo'lida ingichka trubkacha bilan bir-biriga ulangan ikkita dumaloq shisha idishni o'quvchilariga namoyish qiladi. Shisha idishlarning biri qizil rangli suyuqlik bilan to'ldirilgan bo'lsin. Agar o'qituvchi bir qo'li bilan qizil suyuqlik to'ldirilgan shisha idishni ushlab tursa, qizil suyuqlik ikkinchi shisha idishga oqib o'ta boshlaydi. Namoyishdan so'ng o'qituvchi o'quvchilariga savol beradi:

*Nima sababdan qizil suyuqlik ikkinchi shisha idishga oqib o'ta boshladi?*

O'quvchilar bu savolga javob topish uchun bir-birlariga savol berib, mantiqan mulohaza qilib, kerakli bo'lgan to'g'ri javobni axtara boshlaydilar. O'qituvchi esa bu jarayonni boshqaradi va o'quvchilarga nima uchun qizil suyuqlik harakatlanayotganligi haqida ularning o'zlarini yechim topishlariga va o'z shaxsiy nazariyalarini yaratishga hamda uni tekshirishlariga ko'mak beradi. Xuddi shunday tajribalarni ijtimoiy fanlarda ham, iqtisodiyotda ham ishlatish mumkin. Bu usulda ta'lim berishda o'qituvchilar «*Fikrlash o'zi nima?*», «*Fikrlash malakalari nimalardan iborat?*», «*Yuqori darajada fikrlash ko'nikmalar qanday tashkil etuvchilardan iborat?*» – degan savollarga mos bo'lgan javoblar topishlari kerak bo'ladi, chunki faqat shundagina bu usul vositasida ta'lim berish jarayonini to'g'ri va samarali uyuشتirish mumkin.

Quyidagilarni fikrlashning abstrakt intellektual jarayonlari va bu bilan bog'liq operasiyalarning asosi deyishimiz mumkin:

- fikrlash induksiya, deduksiya, tasniflash va sabab-oqibat zanjirini topish bilan bog'liq jarayon;
- fikrlash abstraksiyalar va maxsus tamoyillar asosida hamda dalillar va alohida hodisalar tahlili vositasida voqeа-hodisotlarning asosiy prinsiplarini topish bilan bog'liqdir;
- fikrlash tahlil qilish va kritik mulohaza yuritgan holda kerakli natijalarga erishmoq;
- fikrlash algoritmik bo'limgan jarayon bo'lib, uning biror-bir qismi oldindan aniqlanib quyilmagan;
- fikrlash juda murakkab jarayon bo'lib, uni oldindan bashorat qilish mumkin emas. Bunda fikrlayotgan individum o'z bilimlar majmuasi va tajribasidan kelib chiqqan holda biror-bir konkret natijaga keladi;
- fikrlash ko'pincha bir qancha turli xil yechimlarga olib keladi hamda ularning har biri o'z kamchilik va afzalliklariga ega bo'ladi. Ularning orasidan eng muhimini tanlab olish ko'pincha bir qancha qiyinchiliklar tug'diradi (tarplash muammosi);
- fikrlash ko'pincha noaniq natijalarga olib keladi, bu noaniqlikni hal qilish uchun qo'shimcha ma'lumotlar yoki tajribalar talab qilinadi.

Fikrlash jarayonining bunday murakkabligi konkret fan, g'oya yoki ko'nikmalarini tushuntirishda bir xil qoidalarni ishlatishga monelik qiladi. Suqrot usulida ta'lim berishning besh asosiy bosqichi (fazasi) bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

<i>Fazalar nomi</i>	<i>Nimalar bajariladi?</i>	<i>O'qituvchi nimalar qiladi</i>
1-faza	Maqsadlarni aniqlash va o'quvchilarga darsda nimalar analga oshirilishini tushuntirish.	O'qituvchi darsning har bir maqsadi ustida alohida to'xtaladi va o'quvchilarni savol-javob tariqasida o'tiladigan darsga tayyorlaydi. Darsning asosiy qoidalari tushuntiriladi.
2-faza	O'quvchilarga topshiriq berish va muammoni yotig'i bilan tushuntirish.	O'qituvchi muammoli holat yoki situatsiyani imkon boricha ko'proq ko'rgazmali qurollarni ishlatgan holda tushuntiradi.

3-faza	Ma'lumot yig'ish va talabalar bilan birgalikda tajriba o'tkazish.	O'qituvchi masalani hal qilish uchun yo'naltirilgan ma'lumotlar yig'ish uchun o'quvchilarini muammoli holat bo'yicha iloji boricha ko'proq savollar berishga rag'batlantiradi.
4-faza	Muammoni tushuntirish va turli gipotezalarni muhokama qilish.	O'qituvchi o'quvchilarini muammoning echimini topish maqsadida ilmiy bashorat qilishga undaydi va muammoli holat bo'yicha kerakli bo'lgan hamda relevant tushuntirishlar beradi.
5-faza	Savol-javob jarayonini tahlil qilish.	O'qituvchi o'quvchilarga o'z intellektual jarayonlari haqida fikrlashga imkon beradi va dars bilan bog'liq savol-javoblarni tahlil qiladi hamda bu bilan bog'liq kerakli jihatlarini tushuntiradi.

Bu usulda ta'lif berganda boshqa usullardan, masalan, muloqot usulidan, tanqidiy mushohada usulidan, taqdimot yoki kooperativ usulda dars berishdan farqli o'laroq, dars butun guruhgaga o'tiladi, dars jarayoni esa ochiq bo'lib, talabalar unda faol ishtirok etadilar. Konseptual jihatdan qaraganda, Suqrot usulida dars berish juda qiziqarli ravishda amalga oshiriladi va u pedagogik tajribasi kam bo'lgan o'qituvchilar uchun tajribalarini anchagina oshirishga xizmat qilishi mumkin. Oldindan ko'rsatib o'tilganidek, savol-javob vositasida dars berish mavzu bilan bog'liq bo'lgan va muammoli yoki tushunarsiz bo'lgan holatlarni topish va ularni tahlil qilishdan iboratdir. Muammoli vaziyat yoki holat o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq biror bir masalaning ko'rinishi bo'lib, u «Nima bo'lardi, agar .... ?» degan savollarga javob topish tariqasida qo'yiladi. Har qanday soha yoki fanda bunday muammoli vaziyatlar soni juda ko'p miqdorda topilishi mumkin. Agar Siz dars uchun qandaydir bir muammoli holat (situatsiya) topmokchi bo'lsangiz, u holda quyidagilarni bajarishingiz maqsadga muvofiq bo'ladi:

— Siz tahsil berayotgan soha yoki fanga uzviy bog'liq bo'lgan va o'zingiz uchun muammoli bo'lgan biror bir holat haqida fikrlab ko'ring. Bu holat biror-bir savol yoki muammo vositasida ifodalananib, darsda o'quvchilar orasida tahlil qilishga munosib bo'lishi mumkin.

— Agar biror-bir masala, holat yoki muammo Siz ishiayotgan o'quvchilar orasida tabiiy qiziqish tug'dirgan bo'lsa, bu ham muammoli holatga (situatsiyaga) asos bo'lishi mumkin.

— Ta'lif berayotgan sohangizdagagi biror-bir masala, muammo yoki fakt talabalar tushunishi uchun juda qiyin bo'layapti. Siz buni boshqacha usullar bilan tushuntirish uchun tegishli muammoli holat o'ylab topishingiz kerak bo'ladi.

Yuqorida Suqrot usulida ta'lif berishning besh asosiy fazasi ko'rsatib o'tilgan edi. Endi ularning har birini batafsilroq ko'rsatib va tushuntirib o'tamiz.

#### ***Maqsadlarni aniqlash va o'quvchilarga darsda nimalar amalga oshirilishini tushuntirish***

Savol-javob vositasida dars berishning eng avvalida barcha turdag'i darslar singari, o'qituvchi talabalarga darsning maqsadini aniq va ravshan tushuntiradi, ularni motivasiya asosida bilim olishga tayyorlaydi, so'ngra o'quvchilarning dars davomida nimalarni kutishlari mumkinligini tushuntiradi. Bunday turdag'i darslarga hech qachon qatnashmagan talabalarga, ularning yoshidan qat'i nazar, bunday usulning mohiyatini va qonun-qoidalarini iloji boricha batafsil va aniq tushuntirish kerak bo'ladi. Aks holda afsus qilishingiz mumkin. Suqrot usulida tashkil qilinadigan darslarning asosiy bosqichlari talabalarga quyida bayon qilinganiday tashkillashtirilishi yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin:

— Talabalarga darsning maqsadi nafaqat yangi ma'lumotlar olish, balki mantiqiy fikrlab, munozara asosida va savol-javoblar vositasida yangi bilimlarga ega bo'lish ekanligini yotig'i bilan tushuntirish kerak.

— Savollar berishni boshlashdan avval o'qituvchi muammoli holat haqida biror-bir savolni o'rtaga tashlashi lozim. Bu savolga aniq bir mantiqiy javob yo'q bo'lib, o'qituvchi unga javob qanday bo'lishi kerakligini boshidan aytib qo'ymasligi kerak.

— Darsning ma'lumot to'plash fazasi davomida talabalar qo'yilgan savolga javob topish uchun ma'lumot to'plash maqsadida savollar berishga undaladilar. O'qituvchi bu savollarga o'z bilimidan foydalangan holda batafsil javoblar berishi kerak va agar u o'quvchilar so'ragan ma'lumotlarni bilmasa, bu haqda ularga ochiq aytishi kerak.

– Darsning gipotezalar topish hamda tushuntirish fazasida talabalarning o‘z g‘oyalarini ochiq va bemalol aytishlariga imkon yaratish zarur. Hech qaysi bir g‘oya yoki fikr, u qandayligidan qat‘i nazar, o‘qituvchi yoki sinfdoshlar tomonidan kamsitilmasligi kerak. Har bir ilm tolibiga o‘z g‘oyasini aytishga, uni himoya qilishga va savol-javob jarayonida ishtirok qilishiga imkon yaratish lozim.

### ***Muammoli holatni taqdimot qilish***

O‘qituvchi muammoli holatni o‘quvchilarga ehtiyojkorlik bilan, qiziqarli holda va aniq-ravshan tarzda taqdim qilishi kerak. Agar qisqa tasvirlar yoki hodisalar multimedia vositalar asosida ko‘rsatilsa, bu ish talabalar orasida darsga qiziqishni kuchaytirib, yuksak motivasiya darajasiga sabab bo‘ladi. Buning eng muhim tomoni shundaki, muammoli holatni qiziqarli va hammabop tarzda bayon qilish darsning jonli o‘tishiga va savollarning turli xil hamda serma’no bo‘lishiga olib keladi. Bu chora-tadbirlar asosida dars yanada muvaffaqiyatli, qiziqarli va foydali o‘tishiga zamin yaratiladi.

### ***Ma‘lumot yig‘ish va tajribalar o‘tkazish***

Darsning bu fazasi juda ham muhim bo‘lib, unda o‘qituvchi talabalarni ma‘lumot yig‘ishga undaydi va muammoli vaziyat haqida fikriy (yoki amaliy) tajribalar o‘tkazishga chorlaydi. Bunda asosiy maqsad – talabalarga etarli ma‘lumotlar yig‘ish va buning asosida o‘z shaxsiy g‘oyalarini yaratishga imkon berishdir. Ammo bu faza o‘quvchilar va o‘qituvchi orasidagi oddiy savol-javob o‘yiniga aylanib ketmasligi kerak. Barcha savob-javoblar muammoli vaziyatni tushunishga, faktlarni o‘rganishga va ularni tahlil qilishga qaratilishi zarur.

### ***Gipotezalar tuzish va tushuntirish***

Talabalar muammoli vaziyat haqida etarli bo‘lgan miqdorda ma‘lumotlar yig‘ib, kerakli tajribalarni o‘tkazganlardan so‘ng, ular o‘z tushuntirishlarini gipotezalar yoki nazariyalar ko‘rinishida ifodalashlari kerak. Ushbu faza davomida o‘qituvchi barcha g‘oya va gipotezalarni ko‘rib chiqib, ularni to‘laligicha qabul qiladi. Bularni hammaga ko‘rinadigan holatda doskaga yozib chiqish ham yaxshi natija beradi. Bu fazada o‘qituvchining roli talabalarning barcha g‘oyalarini qabul qilish va

ularni ochiq fikr almashinishga rag‘batlantirishdan iborat bo‘ladi. Undan tashqari, o‘qituvchi talabalarga o‘z gipotezalarini qo‘llab-kuvvatlashlari maqsadida «Qanday ma‘lumot yoki holat sizga bu gipotezani ilgari surishga undadi?» yoki talabalarni aniqrok fikrlashga undash uchun «... ..... deganda Siz nimani ko‘zda tutasiz?» degan savollar berishi ham mumkin. Bu faza davomida talabalarni muammo haqida yanada chuqurrok fikrlashga yoki ko‘proq ma‘lumot yig‘ishga undash uchun «Siz o‘z g‘oyangiz yoki gipotezangizning to‘g‘riligini isbotlash uchun yana nimalarni bilishni istardingiz?» yoki «Siz o‘z g‘oyangizni tekshirib ko‘rish uchun yana qanday qo‘srimcha ma‘lumotlar keltira olasiz?» kabi savollarni ham berishi mumkin.

### ***Savol-javob jarayonini tahlil qilish***

Savol-javob vositasida ta’lim berish usulining oxirgi fazasi talabalarga o‘z fikrlash jarayonlarini tahlil qilishga imkon berish va berilgan savol hamda javoblarni tanqidiy nuqtai nazardan o‘rganishni qamrab oladi. O‘qituvchi talabalardan fikran orqaga qaytishni taklif qiladi hamda ularga darsning har bir fazasida ularga qanday fikrlar kelganini eslashni va bu fikrlar sonini hisoblashni topshiradi.

– Qachon ular birinchi marta muammoli holatni tushunishga erishdilar?

– Nega ular ba’zi tushuntirishlarni boshqalarga nisbatan tezroq tushuna boshladilar?

– Dars davomida ular muammoli holat haqida o‘z fikrlarini nima uchun o‘zgartirdilar?

– Bu o‘zgarishga nima sabab bo‘ldi?

Bu usulda ta’lim bergandan so‘ng talabalardan teskari aloqa ko‘rinishidagi ma‘lumotlar olish va darsning samarasini aniqlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda deklarativ usulda ta’lim berish usullarini baholash uchun o‘tkaziladigan usullar va qoidalardan farqli o‘laroq, baholov usullari ham o‘ziga xos bo‘lishi lozim bo‘ladi.

## 4. MULOQOT VOSITASIDA DARS BERISH USULLARI

«*Qiyin fan yo'q, faqat hazm etilishi  
qiyin bo'lgan izohlargina bor, xolos».*

GERSEN

Ushbu usulda dars berish talabalarni fikrlashga o'rgatadi va ularda bu bilan bog'liq malakalar hosil qiladi. Muloqot vositasida dars bera oladigan o'qituvchilar ko'pincha bu sohadagi (yo'nalishdagi, fandagi, mavzu bilan bog'liq) eng malakali, ta'lif va amaliyot sohasida katta tajribaga ega ustozlar bo'lib, ular ta'lif jarayonida xilma-xil zamonaviy usullarni ongli, ijodiy va jonli ravishda qo'llay oladilar. Ko'pincha, «*Dars berishga o'rganishning eng yaxshi usuli – dars jarayoniga bevosita kirishishdir*», – deb noto'g'ri ta'lif beradilar. Chunki sohani to'liq bilmasdan dars berish suzishni bilmay, suvga tushganday gap. Bundan tashqari, bunday etarli darajada malakaga ega bo'lмаган o'qituvchilar o'qish uchun bilim dargohiga kelgan o'quvchilar (talabalar)ning hafsalasini pir qilib, o'qishdan sovitadi. Bunday o'qituvchidan saboq olganlar esa o'ziga xos chalasavodlar (yoki «*intellektual nogironlar*» deyishimiz ham mumkin) safini to'ldirishi aniq. Bizningcha, dars samaradorligini oshirishning birdan-bir yo'li, o'z sohasini va tanlangan fanni puxta o'zlashtirib olishdir. Haqiqatan ham, agar o'qituvchi o'zi dars berayotgan sohani chuqur va har taraflama bilmasa, qanday qilib uning nozik tomonlarini tushuntirishi, savollarga to'liq javob berishi va samarali hamda ilg'or pedagogik usul (texnologiya)larni qo'llay olishi mumkin. Bunda o'qituvchining dars samarasini ham pasayib, talabalarga o'zi bilmagan, his qilmagan va ko'rмаган asosiy dalillarni hamda ta'riflarni kitobiy va sayoz holda tushuntirib beradi, xolos. Talabalar bunday o'qituvchilar haqida ko'pincha «*U nazariy masalalarnigina biladi, xolos»*, – deb o'zaro fikr yuritadilar. Bu esa, o'z navbatida, darsga qiziqishning ancha susayishiga olib kelib, oxir-oqibatda bu o'qituvchi talabalar orasida o'z obro'-e'tiborini batamom yo'qotadi. Muloqot vositasida dars bera oladigan o'qituvchilar jarayonni boshqarishni, tartibni saqlash usullarini yaxshi bilishlari, psixologiyani, o'zaro muloqot asoslarini tushunishlari, soha bilan bog'liq nazariy va amaliy muammolarni puxta o'zlashtirib olgan bo'lishlari lozim. Ular doimiy ravishda 20–30 nafar malakali va

qiziquivchan tinglovchilar oldida so'zlash, fikrini bildirish, muloqot qilish va o'z nuqtai nazarini himoya qilish qobiliyatini namoyish qilishga qodir va tayyor turishlari kerak. Muloqot vositasida dars bers berishning uch asosiy va ajralmas tarkibiy qismi mavjud:

- ta'lif berish etikasi va estetikasi;
- ta'lif berishga amaliy jihatdan yondashish;
- muammolarning qiziqarli tomonlarini tushunish va ko'ra olish hamda buni ma'lum bir artistik, mohirona harakatlar vositasida namoyish etish.

### **Ta'lif berish etikasi**

Ta'lif berish etikasiga rioya qilish o'qituvchining talabalar ko'z o'ngidagi obro'-e'tiborini, darsning ahamiyatini ancha oshiradi. O'qituvchining dars davomida jamoa orasida o'zini tutishi, so'zlash va muomala madaniyati, kiyinishi, nutq mazmuni, muhim bilimlarni bera olish qobiliyati, savollarga javob berishi, dunyoqarashining kengligi shak-shubhasiz uning reytingi (imidji, obro'si)ni oshirishga olib keladi. Ta'lif berish etikasini rivojlantirish va uni har bir bosqichda tekshiruvdan o'tkazish uchun amalda quyidagi uch vositani qo'llash mumkin:

- tasdiqlov;
- dialog (muloqot);
- o'zaro, hamkor (kooperativ) muloqot.

Har bir talabaning bergen savollarini diqqat bilan tinglash, ijobiy fikrlarini tasdiqlash, ularning intilishlarini, qiziqishlarini va qobiliyatlarini hisobga olgan holda tegishli javob berish talabalar ko'z o'ngida o'qituvchining xurmatini yanada oshiradi (ko'taradi), ular bu o'qituvchi bilan bog'liq fanga yana ham qiziqa boshlaydilar. Chunki ko'pincha fan va uni o'qitadigan o'qituvchi haqida talabalar ko'z o'ngida biday tasavvur hosil bo'ladi. Ko'pincha insonlar Siz nimani gapirayotganingizga emas, balki qanday gapirayotganingizga ko'proq e'tibor beradilar va shu asnoda aytmoqchi bo'lgan fikringizni qabul qiladilar. Agar Siz ularning o'qituvchilar haqidagi ichki fikrini, dunyoqarashini va tasavvurini tasdiqlasangiz hamda ularning tasavvuridagi «yaxshi» va «ijobiy» o'qituvchi bo'la olsangiz, ular ham Sizning fanningizni qiziqish bilan va yaxshi o'zlashtiradilar.

**Dialog (muloqot)**ni tashkil qilish ta'lim berish etikasini rivojlantirishning ikkinchi asosiy bosqichidir. Talaba va o'qituvchi orasidagi muloqotni maqsadga muvofiq ravishda to'g'ri tashkil qilish va mumkin bo'lgan usullar bilan uni rivojlantirish ta'lim sohasida o'ziga xos inqilobiy o'zgarish yaratadi desak, yanglismagan bo'lar edik. Chunki bu usulni qo'llaganda talaba o'qituvchidan cho'chimasdan o'z fikrlarini aytadi va u bilan o'rtoqlasha oladi, bilmagan savollariga to'g'ri javoblarni olish va boshqalar bilan fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladi, shu bilan birga kelajakda faol kurashuvchan va izchil demokratik pozisiyalarda bo'lish sabog'ini ham oladi. Talabalarning dialog usulidan bezdirmaslik uchun ularning har qanday savollariga e'tirozsiz, yotig'i bilan javob berish kerak. Fikrlariga esa, ular qanday bo'lmasin, ijobji va ijodiy yondashish lozim. Ba'zi hollarda esa, bu usul ularni xilma-xil ko'rinishdagi o'ta mutaassib (fanatik) dunyoqarashdan qaytarish uchun ham amaliy vosita bo'lishi mumkin. Chunki keng va ijodiy fikrlovchi inson hech qachon «fanat» bo'la olmaydi. Agar dialog davomida Siz bilmagan savol yoki muammolar kelib chiqsa, buni to'g'ri tan olish va keyingi darsda o'rni javob berish zarur. Talabalarning har qanday savoli javobsiz qolib ketmasligi juda muhim. Chunki shundagina ular o'zlarining shaxsiy fikrlari ham ma'lum bir qiymatga ega ekanligini qalban his qiladilar. Bu esa teskari aloqa signali sifatida muqarrar ravishda talaba miya faoliyatining kuchayishiga va yangi foydali fikrlar oqimi yuzaga kelishiga (generatsiyasiga) olib keladi.

**Kooperativ (o'zaro, hamkor) muloqot** esa talabalar bilan yaqin bo'lishni, ularning muammolarini yaxshi tushunishni, munozaralar uyuştirishni va iloji bo'lsa, ota-onalari yoki yaqin odamlari bilan ham ma'lum turdagи tarbiyaviy, madaniy-ma'naviy va ijodiy aloqalar o'rnatishni o'z ichiga qamrab oladi. Bunda o'qituvchining roli nafaqat ma'lum bir fandan ta'lim beruvchi inson sifatida, balki tarbiyachi, maslahatchi, mehribon ustoz hamda yo'l ko'rsatuvchi sifatida bo'lishi lozim.

#### **Ta'lim berishga konstruktiv (amaliy) jihatdan yondashish**

Muloqot vositasida dars berishning ikkinchi asosiy tarkibiy qismi ta'lim berishga **konstruktiv (amaliy) jihatdan yondashishdir**. Har bir

o'qituvchi ma'lum bir fanni yoki sohani nazariy va amaliy jihatdan chuqur bilgani holda, ikki asosiy talabga (savolga) javob berishga tayyor bo'lishi zarur:

1. Men dars bermoqchi bo'lgan fan soha/predmet) bilan talabalarning oldingi o'quv yoki hayot tajribasi orasida qanday bog'liqlik mavjud?

2. Men dars bermoqchi bo'lgan fan soha/predmet) bilan talabalarning shaxsiy istak va maqsadlari orasida qanday bog'liqlik bor?

Bu nuqtai nazar asosida o'quvchi (talaba)lar o'qish-o'rganish jarayonida ma'lumotni sust qabul qiluvchilar emas, balki bilim olish jarayonining faol qatnashchilaridir, degan g'oya yotadi. Ular o'zlarining o'quv yoki hayotiy tajribalari va shaxsiy istak hamda maqsadlari asosida dars jarayonini tashkil qiladilar va o'rganadilar. O'qituvchi esa ularga maslahatchi, yo'l ko'rsatuvchi va kerak bo'lsa, o'z bilimining asosiy qismlarini etkazuvchi hamda ularni tushuntiruvchidir. O'quvchi (talaba)lar mushohada va munozara orqali tegishli fanni chuqur egallashga erishadilar, bu bilan kelajak hayotga va ilmiy izlanishlar uchun puxtarloq tayyorgarlikdan o'tadilar. Faol muloqot vositasida dars beruvchi o'qituvchi bilim olish jarayonini talabalar va o'zining faol muloqoti orqali amalga oshiriladi, deb tushunadi (va bunga astoydil ishonadi) hamda uni xilma-xil usullar yordamida ro'yobga chiqaradi.

Muammolarning qiziqarli tomonlarini tushunish va ko'ra olish hamda buni ma'lum bir **mohirona harakatlar** vositasida namoyish etish usulida o'qituvchilar har bir dars bilan bog'liq bo'lgan tadbir va o'yinlar tashkil qilish orgali, o'quvchi (talaba)larning hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda qiziqarli holatlarni tahlil qilishga, ularning qiziqishlari va intilishlarini inobatga olishga harakat qiladilar. Dars berish va biror-bir narsani o'rganishda loqaydlikka (sustlikka) aslo yo'l qo'yilmaydi. Har bir talaba (o'quvchi) o'zining qiziqishi, iste'dodi va imkoniyatiga bog'liq ravishda nimagadir jalb qilinadi, qiziqtiriladi va ular bundan qandaydir ma'naviy qoniqish hosil qiladilar. O'rganilayotgan soha bilan bog'liq ishbilarmon o'yinlar, qiziqarli holatlar, Case Study (ishlab chiqarish bilan bog'liq hayotiy misol)lar, hikoyalari, hodisalar, muammolarni jonli ravishda ifodalash va bu bilan o'quvchi (talaba)larda bilim olish uchun intilish uyg'otish o'qituvchidan katta mahorat va bilim talab qilishi tabiiy, albatta.

## Munozara o'tkazish usullari

Muloqot vositasida dars berishning eng yaxshi usullaridan biri munozara (diskussiya) desak, yanglismagan bo'lar edik. Munozarada o'qituvchining monopol (yakka hokim) ravishda yo'l-yo'riq ko'rsatishi, birligina uning o'zi «monolog» (yakkaxon) sifatida gapirishi va fikrlar almashinishi faqat uning ko'rsatmasi asosidagina amalga oshmasligiga diqqat-e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Bunday holda o'quvchilar juda ham zerikib va ba'zi holatlarda esankirab qoladilar. Munozara talabalar tomonidan mavzu tanlanganda, ular erkin fikr almashinish yo'nalishini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lganlarida va bu ularning tabiiy qiziquvchanligini qondirgandagina qiziqarli va jonli o'tadi. Bunda o'qituvchining asosiy o'rni «tanqidiy-yo'naltiruvchi-jonlantiruvchi» shaqlida bo'lishi lozim. Jarayonni amalga oshirish va munozarani bo'shashtirmay, tashabbus shak-shubhasiz talabalar qo'lida qolishi uchun o'qituvchi to'rt bosqichdan iborat bo'lgan vazifalar (ishlar) ketma-ketligini amalga oshirishi zarur bo'ladi:

### 1. Tasdiqlash

Bu usul aytilgan fikrning tushunilganini bildirish, uni o'zlashtirilganlik (tasdiqlash) belgisini berish yoki bu fikr haqida biror-bir tanqidiy mulohaza bildirishdir. Tasdiqlash bilan bog'liq gaplar o'quvchi (talaba) larga unchalik qattiq botmaydi va shuning uchun ham ularni javob berishga undaydi. Masalan, Siz bunday deyishingiz mumkin:

«Mening tushunishimcha, Siz bunday deyapsiz: .....».

«Bu menga oldin aytib o'tilgan ..... larni eslatdi».

«Menimcha, Siz bunday demoqchimisiz: ....., lekin Nosir Sizdan oldinroq bunday degan edi: .....».

«Menga ..... tushunarsiz bo'layapti».

### 2. Savollar

O'quvchi (talaba)lar o'qituvchining savollaridan ko'ra, o'z savollarini katta qiziqish bilan muhokama qiladilar («*Sizning barmog'ingiz kesilganidan ko'ra, boshqa bir inson uchun uning o'zini chivin chaqib*

*olgani muhimroqdir*» – Deyl Karnegi). Shuning uchun ham ularni munozarali savollar berishga jalb qilishga intiling. Buni amalga oshirish uchun, masalan, quyidagi mazmunda savollar berishingiz mumkin:

«Ushbu matning mazmuni bo'yicha nimalarni oydinlashtirish va tegishli savollar berish mumkin?»

«Biz o'z munozaramizda hozircha nimalar xususida to'xtalmadik?»

«Ushbu matnda yana qanday tushunarsiz so'zlar va holatlar qoldi?»

«Siz ushbu muammo bo'yicha nimalarni to'g'ri deb hisoblaysiz va bunga ishonch hosil qilgansiz?»

«Ushbu muammo bo'yicha nimalarni noto'g'ri deb hisoblaysiz, bunga qat'iy ishonch hosil qilgansiz?»

### 3. Belgilar va ishoralar berish

Ko'pincha o'qituvchining bevosita munozaraga aralashuvi va talaba (o'quvchi)larga yo'l-yo'riq ko'rsatishi ulardagi erkin fikrlash jarayonini chegaralashga olib kelishi mumkin bo'lgani uchun munozarani so'zlamasdan, ma'lum bir belgi va ishoralar yordamida boshqarish maqsadga muvofiqdir. Masalan, o'qituvchining tushunmaslik yoki norozilik alomatini berishi o'quvchilarga tushuntirib berish kerakligini anglatadi. Qo'llarning ikki narsani solishtirish shaklidagi tarozi turidagi ko'rinishi talabalarga fikrlarni solishtirib, ularning qaysi biri bilan talabalarning roziligidagi aniqlash lozimligini bildiradi. Qiziqib, e'tibor bilan eshitish va ko'tarinki kayfiyat talabalarga qo'shimcha kuch-kuvvat hamda intilish baxsh etadi va hokazo.

### 4. Sukut saqlash

Savol berilgandan so'ng o'quvchi (talaba)larga ijodiy fikrlash (o'yash) uchun ma'lum vaqt bering. To'rt, besh, o'n soniya davomida sukut saqlash hosil bo'lgan vaqt oralig'ini to'ldirish uchun o'quvchi (talaba)larga katta imkoniyat beradi. Agar bu vaqt oralig'ini o'qituvchi to'ldirmasa, talabalar ichidan, albatta, buni bajarishi mumkin bo'lgan birorta ko'ngilli topiladi. Ya'ni, «*Bo'sh joy har doimo to'ldirilish xususiyatiga egadir*».

## «Menga yakunlovchi yoki oxirgi so‘zni bering»

Ushbu ta’lim jarayonini faollashtirish uslubi ham matnni o‘qigandan so‘ng fikrlash jarayonini faollashtirish uchun qo‘llaniladigan bir usuldir. Bu uslub har qanday turdag'i matnni o‘rganish va muhokama qilish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. U, ayniqsa, umumiylar munozara jarayoniga juda ham sust, uyatchan talabalarni jalb qilish uchun foydali bo‘lishi mumkin. «Menga yakunlovchi yoki oxirgi so‘zni bering» usuli quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

1. O‘quvchilardan ularning matnni o‘qish va o‘rganish jarayonida bir necha, ular uchun qiziqarli va diqqatga sazovor joylarini yoki so‘z bo‘laklarini (sitatan) topish so‘raladi.

2. Talaba ushbu qismlarni birorta qog‘ozga (kartochkaga) yozib oladi va matndagi uning betini (joyini) ko‘rsatib qo‘yadi.

3. Qog‘ozning (kartochkaning) orqa tomonida o‘quvchi ushbu so‘z tarkibi yoki fikrga nisbatan o‘zining javobini (taqrizini, ilovasini, sharxini) yozib qo‘yadi. Bunda u ushbu fikr bilan rozi bo‘lmasligi, unga biror nima qo‘sishi, rivojlantirishi yoki shunga o‘xhash narsalarni amalga oshirishi mumkin. Bu uning shaxsan o‘ziga havola etiladi.

4. Keyingi darsda o‘quvchilar ushbu kartochkalarni olib keladilar va o‘qituvchi ularning ayrimlaridan yozganlarini o‘qishni so‘raydi. Bunda, albatta, talaba bu qismni (so‘zni, sitatan) qaysi joydan (betdan) olganini aytishi lozim, chunki bu holda boshqa o‘quvchilarning ham u bilan birgalikda sinxron (baravar, ayni bir vaqtida) fikr yuritish jarayoni osorlashadi.

5. Bu qism (so‘z, sitata) o‘qib bo‘lingandan so‘ng, o‘qituvchi boshqa o‘quvchilarning bunga javoban munosabat bildirishlarini so‘raydi. Bu munosabat ijobiy, salbiy, rozilik, norozilik ko‘rinishida bo‘lishi yoki boshqa bir muhim jihatlarni qo‘sish haqida bo‘lishi ham mumkin. Lekin buni amalga oshirganda talabalarning munozara maqsadidan chetga og‘ib ketishlariga va berilgan fikrlarning ma‘nosiz bo‘lishiga va boshqalarni xafa qilishiga yo‘l qo‘ymang.

6. O‘quvchining oldindan yozib qo‘yan fikrini aytishiga imkon bering va u o‘z shaxsiy fikrini guruh (auditoriya)ga bayon qilsin. Shundan so‘ng munozara hech qanday ko‘rinishda o‘quvchilar yoki o‘qituvchi tomonidan zinhor davom etmasligi lozim. Shuning uchun ham bu usul

«Menga yakunlovchi yoki oxirgi so‘zni bering» deb atalishini anglagan bo‘lsangiz kerak.

7. O‘qituvchi keyingi o‘quvchini chaqiradi va jarayon yangidan boshlanadi. Bir dars davomida hamma o‘quvchilarga ham bunday imkoniyat yaratib bo‘lmaydi, albatta. Shuning uchun bu ishlarni keyingi darsda ham davom ettirish mumkin.

## Erkin ravishda o‘z fikrini ifodalash

O‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq biror-bir matn parchasi o‘qilganidan so‘ng yoki bironta muammoli mavzu bo‘yicha o‘tkazilgan munozaradan so‘ng, talaba (o‘quvchi) larga ma’lum vaqt berilib, ularning o‘z fikrlarini erkin va yozma ravishda ifodalashga imkon berish ham ijobjiy natijalarga olib keladi. Bu hol talabalarga muammoni (mavzuni) hech kimdan tortinmasdan, erkin ravishda fikrlash imkonini beradi, ularning ijodiy imkoniyatlarining ko‘z ilg‘amas qirralarini rivojlantirishga olib keladi. Ya’ni, «*Har bir o‘quvchida ham geniylikning bir bo‘lagi mayjud*». Shunday qilib, bunda talaba-o‘quvchilar berilgan muddatda matn (mavzu, muammo) haqida o‘z fikrlarini to‘xtamasdan yozadilar. Agar ulardan birortalari men nima yozishni bilmayapman desa, xuddi shu gapni yozib qo‘yishlarini so‘rasangiz, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Demak, bunda asosiysi to‘xtovsiz va tez yozish, uni qayta o‘qimaslik, tuzatmaslik. Ushbu yozma ishni (esseni) bajarib bo‘lingandan so‘ng ko‘rib chiqish va tahlil qilish mumkin, bunda asosiy g‘oyalarga, fikrlarga nazar solib, o‘ylagandan so‘ng, yangi yozma ishni bajarish mumkin. Albatta, bu holda oldingi bosqichdagi hamma chala va chuqur o‘ylanmagan fikrlar olib tashlanadi hamda yozma ish bir qadar tugallangan holatga keladi.

## Qisqa muddatli yozma ish

Bu turdag'i yozma ishning dars oxirida o‘tkazilishi maqsadga muvofiq bo‘lib, bunda o‘quvchi-talabalar o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha olgan bilimlarini umumlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘qituvchi esa o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi qanday bo‘layotganligini bilib oladi. Bunda o‘quvchi (talaba) larga ikki yo‘nalishdagi ishni bajarish taklif etiladi:

1. Ushbu mavzu yuzasidan nimalarni bilib oldilar?
2. Qaysi bir savolga ular qoniqarli javob ololmadilar?

O'quvchilar tomonidan yozilgan ishlarni o'qituvchi yig'ishtirib oladi va ularni keyingi darsni rejalshtirishda yoki o'quvchi (talaba) lar bilimini tegishli yo'nalishlarda yanada chuqurlashtirish maqsadida ishlatishi mumkin.

## 5. TANQIDIY MUSHOHADA USULINI DARS JARAYONIDA QO'LLASH

«Yolg'iz holda quvonish juda  
ham zerikarlidir».

Gotxold LESSING

Ushbu tanqidiy mushohada usulining tub ma'nesi va mohiyati talabalarni nafaqat tinglash hamda fikrlashga undashdan, balki bunga qo'shimcha ravishda o'rganilayotgan mavzuning mohiyati haqida boshqa birovlar bilan faol va ijodiy fikr almashinishdan iborat bo'ladi. Shuning uchun ham darslarni tashkil etish jarayonida shunga katta ahamiyat berish lozimki, o'quvchi (talaba)larni mashg'ulotlarning mazmun-mohiyati bo'yicha atroficha va chuqur fikrlashga undash, o'zaro fikr almashinishga chaqirish va qiziqtirish samarali natijalarga olib keladi. Darsni bu yo'nalishda tashkil etish talabalar o'zlashtirish darajasining ham keskin o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin. Chunki dars jarayonining bunday to'laqonli ravishda tashkil qilinishi darsning zerikarli o'tilishiga barham berib, o'qituvchi bilan talabalarning faol fikr almashishiga, munozara qilishiga va bevosita muloqotga olib keladi. Shuni yodda tutish lozimki, biz (ya'ni, barcha o'qituvchi va hurmatli ustozlar) har doim o'quvchi va talabalarga u yoki bu yo'nalishlarda samarali, tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim berishimiz lozim bo'ladi. Buni **tanqidiy nuqtayi nazardan mushohada qilish** deb atasak, uning o'zi nima ekanligini quyidagicha aniqlab olishimiz kerak bo'ladi:

1. Tanqidiy mushohada yuritish – bu qandaydir fikrlar ketma-ketligi va majmuasining pirovard natijasidir. Bu biror-bir shaxs birota narsa haqida fikr yuritganda, uning fikrlarini o'zgalar tomonidan boshqa yo'nalishlarda, chuqurlashgan holda tanqidiy nuqtai nazardan ko'rib chiqishdir. Demak, bu yangi hamda boshqacha noan'anaviy fikrlar, ma'lumotlar orqali atroficha mushohada va munozara qilish usulidir.

2. Tanqidiy mushohada faol jarayonlar turiga mansub bo'lib, o'rganuvchining bilim olish jarayonida atayin yoki tasodify (spontan) ravishda yuzaga keltiriladi va uning o'rganayotgan ma'lumotlar to'plamini ijobji ravishda o'zgartirishga, moslashtirishga, kengaytirishga yoki ma'lum bir keraksiz va muhim bo'lmagan qismining o'zgartirilishiga yoki yo'qotilishiga olib kelishi mumkin.

3. Tanqidiy mushohada jarayoni quyidagi mazmundagi savollar berilganda yoki muammolar o'rtaga tashlanganda yuzaga kelishi mumkin:

- 1) Men ushbu bilimlarni qanday qilib amaliyotda ishlata olaman?
- 2) Ushbu soha bo'yicha oldindan bilganlarim bilan mazkur bilimlar orasida qanday munosabat yoki bog'liqlik bor?
- 3) Bu ma'lumotlar men uchun kerakmi, foydalimi yoki yo'qmi?
- 4) Bu ma'lumotlar yoki mavzu haqida shaxsan men qanday fikrdaman?
- 5) Bu ma'lumot hamda g'oyalarni qo'llash men va o'zgalar uchun qanday qo'shimcha imkoniyatlari yaratadi?

### A. Tanqidiy mushohada uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish (bu o'qituvchining mas'uliyatidir)

– Tanqidiy mushohada yuritishni dars jarayonida amalga oshirish uchun vaqt va imkoniyat yaratish.

– Talabalarga dars davomida mushohada yuritish, o'ylash, savollar berish va tanqidiy fikrlash uchun imkoniyat berish.

– O'qituvchining talabalar tomonidan bildirilgan xilma-xil fikrlar, g'oyalari, ma'lumotlar, qoidalar, faktlar va mulohazalarni qabul qilishga (va tushunishga) tayyor bo'lishi.

– Talabalarni tegishli mavzularni o'rganish va uni tanqidiy tahlil qilish jarayoniga faol hamda keng miqyosda jaib qilishni tashkil qilish.

– Talabalarning darsda ham, undan tashqarida ham hech narsadan va hech kimsadan cho'chimasdan, o'z tanqidiy fikrlari uchun izza bo'lishdan yoki jazolanishdan qo'rmasdan mulohaza qilishlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish.

– Har bir talabaning ongida tanqidiy fikr bildirishga layoqatli ekanligiga hamda bunga to'la haq-huquqi borligiga ishonch hosil qildirish.

– Tanqidiy mushohadaning kerakli va foydali ekanligini talabalarga muntazam tushuntirish hamda uni qadrlash lozimligini o'quvchi (talaba) lar ongiga turli usullardan foydalanim singdirish.

### **B. Talabanining tanqidiy mushohadaga jahb qilinishi uchun lozim bo'lgan mas'uliyatlari**

– O'quvchi o'z shaxsiy fikrlari va mulohazalarining qadr-qimmatini hamda ahamiyatini har tomonlama tushunib etishi.

– O'quvchining darsda, darsdan tashqarida va boshqalar bilan muloqotda o'z-o'ziga ishonchini mumkin bo'lgan usul va vositalar yordamida rivojlantirish.

– Talabalarning mavzuni atroflicha o'rganish jarayonida faol va bevosita ishtirok etishi.

– Atrofdagilarning fikrlarini imkoniyat darajasida hurmat qilgan holda, ularning qanday bo'lishidan qat'i nazar, eshitish va ular haqida mulohaza qila olish.

– Mavjud va hosil bo'lishi mumkin bo'lgan muammolar haqida puxta o'yamasdan turib, tegishli xulosalar chiqarishga shoshilmasiлик.

– Har tomonlama o'ylab, fikrlab, nuqtai nazarlarni solishtirib va tegishli dalillar bilan tasdiqlagan holda xulosalar chiqarish.

### **D. Tanqidiy mushohada qilish uchun zarur bo'lgan jihatlar**

– Ma'lumot to'plash va uni topa olish qobiliyati – ma'lumot olish uchun mavjud adabiyotlarni (ommaviy yoki elektron nashrlar) yoki atrof-muhitni o'rganish, tevarak-atrofdagi insonlardan tegishli ma'lumotlarni yig'ish.

– Ma'lumotni saqlash va uni o'zgalarga bera olish qobiliyati – aniq va tushunarli hisobotlar yozish, muammoni tushuntirish yoki boshqa usullardan foydalangan holda jarayon (mavzu, hodisa) haqida ma'lumotlar berish.

– Tahsil qila olish qobiliyati – atrof-muhitdagi butun bir hodisa yoki jarayonni, mavzuni, ma'lumotni ma'lum tartibda qismalarga bo'lgan holda ularning mohiyatini o'rganish.

– Boshqa obyektlar yoki ma'lumotlar majmuasi bilan solishtirish qobiliyati – obyektdagi yoki ma'lumotdagagi o'xshashliklarni hamda farqlarni har tomonlama chuqr tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarish.

– Obyektlarni yoki ular bilan bog'liq ma'lumotlarni turkumlarga ajrata olish qobiliyati – obyektlarni yoki ma'lumotlarni ma'lum bir ma'noda hamda maqsadga muvofiq ravishda guruhlarga bo'lib chiqish va ularning sabab-oqibatlarini mulohaza qilish.

– Oldindan ko'ra olish yoki bashorat qilish qobiliyati – o'rganilayotgan mavzu, voqeа, hodisa yoki ma'lumotning kelajakda olib kelishi mumkin bo'lgan tafsilotlarni o'rganish va ularni sabab-oqibat zanjiriga ulay olishlik.

– Faraz qila olish (gipotezalar tuzish) qobiliyati va ularning oqibatlari haqida xulosa chiqarish.

– Fikri himoya qila olish qobiliyati – harakatlarga, fikrga, qabul qilingan qarorlarga hamda nuqtai nazarga doir sabablarni ko'rsatish va tushuntira olish. Sabab-oqibat zanjirini boshqalarga tushuntira olish va ularni qat'iy himoya qilish, natijalarni oldindan ko'ra bilih.

– Boshqalarni o'z nuqtai nazariga va fikriga ishontira olish qobiliyati – boshqa odamlarni yoki insonlar guruhini o'z qat'iy fikriga aniq dalillar keltirish orqali ishontira olish.

– Mayjud yoki kutilayotgan muammolarni echa olish qobiliyati – atrof-muhitda ma'lum bir sabablarga binoan hosil bo'lgan masala va muammolarni atroflicha hamda chuqr o'rgangan holda tegishli va mos echimlar taklif qilish.

– Qismlardan butun bir fikri yoki g'oyani sintez qila olish (umumlashtirish) qobiliyati – mavjud bo'lgan bir qancha xilma-xil g'oyalardan, dalillardan, qoidalardan yoki mulohazalardan bir butun mulohaza, fikr yoki g'oya yarata olish.

– Muammoning yoki masalaning ahamiyatini aniqlay olish qobiliyati – ma'lumot, obyekt, fikrning yoki qabul qilingan qarorming qanchaik ahamiyatga ega ekanligini to'g'ri ma'lumot, asosiy dalil va qoidalarga asoslangan holda aniqlay olish.

## E. Tanqidiy mushohada qilishni tashkil etish uchun qo'llaniladigan usullar

### a) yo'naltirish:

*Talabalar o'rganilayotgan soha yoki muammo bilan bog'liq maqsadlarni aniqlashga va savollarni tuzishga qanday qilib o'rgatiladi?*

1. *Malakali tashkilotchilik* – ushbu yo'nalish, mavzu yoki soha bo'yicha chuqur va har tomonlama bilimga ega bo'lish, insonlarni ishontira olish va ularga yo'boshchilik qila olish hamda o'rganilayotgan muammoga, mavzuga yoki savolga qiziqish bilan yondashish.

2. *Yo'naltirilgan savollar* – taqdimat paytida, mavzuni tushuntirishda, uni himoya qilishda, boshqalar bilan muloqot davomida yoki matnni o'qish davomida vujudga kelgan xilma-xil savollarga javob bera olish.

3. *Aqliy hujum yoki juft aqliy hujum* – talabalarning ushbu soha haqida tegishli bilimi yoki amaliy tajribasi mavjudligini aniqlash maqsadida yakka tartibda yoki guruhlarda ishlash jarayoni.

4. *Guruhshtirish* – soha haqidagi bilimga ega talabalar orasida aqliy hujum usulini qo'llab, buning natijalariga mos ravishda tegishli xulosalar chiqarish va shunga mos bo'lgan guruhlar tuzish.

5. *Yo'naltirilgan mutolaa – fikrlash faoliyati* – mavzuga oid matnni bir necha qismalarga bo'lish, uni o'qib chiqish va talabalardan matnning keyingi qismida nima bo'lishi mumkinligini oldindan aytib berishni yoki keyin nimani o'rganishlari kutilishini so'rash.

6. *Oldindan berilgan so'zlar* – talabalarga matndan olingan bir qancha asosiy so'zlar, jumlalar, fikrlar yoki ma'lumotlar ro'yxati beriladi. Keyin esa, talabalar juftliklaridan, bu so'zlarning ma'nosini va ularning matnda qanday ahamiyatga ega bo'lishini aniqlash va natjalarni guruhda aytish so'raladi.

7. *Bilmoq/Bilishni xohlash/o'rganish* – sinfni mavzu bo'yicha nimalarni oldindan bilishlariga qarab, alohida guruhchalarga ajratish va ularga mavjud bilimlarga tegishli savollar tuzish haqida topshiriq berish.

8. *Erkin insho (Bayon)* – biror-bir mavzu yoki sohaga oid dars boshlashdan avval talabalarga bu haqdagi o'z shaxsiy fikrlarini qisqacha bayon shaklida yozish topshirig'i beriladi. Bu jarayonda ushbu mavzuga, undagi asosiy dalillarga va uning berilishiga qiziqish uyg'otiladi;

### b) mohiyatni bilishga intilish:

Talabalar mavzuning tub ma'nosini va mohiyatini bilishga qanday qilib erishadilar?

1. *Muammolar tahlili usuli* – talabalar orasida biror-bir oldindan berilgan matn yoki mavzu haqidagi bilimlar to'g'risida «aqliy hujum» usuli qo'llanilganidan so'ng, mavzu bo'yicha bilganlariga aloqasi yo'q qismlarni, ularning bilimlariga qarama-qarshi kelayotgan qismlarni, kutilmagan ma'lumotlar bor bo'lgan qismlarni va muammoli savol berishlari mumkin bo'lgan jumboqli qismlarni belgilash so'raladi.

2. *Yo'naltirilgan mutolaa – fikrlash va bashorat qilish holatlari* – matnni yoki mavzuni bir necha alohida qismchalarga bo'ling va har bir matn qismi bilan tanishib bo'lganlaridan so'ng nima bo'lishi yoki kutilishini talabalardan aniqlang, agar bu biror-bir ma'lumot berilgan matn yoki mavzu bo'lsa, keyingi bosqichda nimalarni o'rganishlari mumkinligini oldindan aytib berishlarini (bashorat qilishlarini) ulardan so'rang.

3. *Ikki qismga bo'lingan yozuvlar usuli* – daftar varaqlarining o'rtasiga chiziq tortib, ikkiga bo'ling. Chap tomonga o'rganilayotgan matndagi ular uchun juda muhim ko'ringan qismlarini yozishni so'rang, o'ng qismiga esa o'sha qism haqida talabaning shaxsiy fikrini, u qanday bo'lishidan qat'i nazar, yozishni so'rang. Ba'zilar buni yozishga tortinislari ham mumkin, shuning uchun ham bunday o'quvchilarni nazardan qochirmaslik lozim.

4. *Talabalar orasidagi o'zaro dars berish usuli* – biror-bir matnni yoki mavzuni kichik talabalar guruhi tomonidan mutolaa qilib bo'lingandan so'ng, biror-bir talabaga uning vaqtincha o'qituvchi rolini o'ynagan holda o'qib bo'lingan matn mohiyati haqida sinfdoshlarga bir qancha savollar berishini so'rang, tushunilmagan joylarini tushuntirish va matnning keyingi qismida nimalar bo'lishini oldindan aytib berish ham bu mashg'ulotning ajralmas tarkibiy qismi bo'lishi lozim.

5. *Birgalikda o'rganuvchi guruhlar* – ushbu guruhlar boshqa guruhlarga o'rganilayotgan mavzu bo'yicha turli savollar berib, unga javob olishga intilishlari yoki mavzuga oid dolzarb muammolar topib, uni hal qilish vazifasini boshqa guruhlarga yuklashlari mumkin. Masalan, bunda talabalar uchun ma'lum bir rollar berish yoki «muammoli dars» o'tish taklif qilinishi mumkin. Bunda talabalarni rag'batlantirish yoki ularga ma'lum darajada baho yoki reyting ballari qo'yishni tashkil qilish ham ayni maqsadga muvofiq bo'ladi.

6. *O'ylash/fikr almashish/juftliklarda ishlash* – talabalarga o'tilgan mavzu yoki dars haqida bir qancha muammoli savollar bering va ulardan bu savollarga beriladigan javoblar haqida yakka tarzda o'ylab ko'rishlarini yoki bu savollar yuzasidan ma'lumot tayyorlab, yozi'b kelishlarini so'rang. Keyinchalik ular juftliklarga bo'lingan holda birlarining javoblarini eshitadilar, solishtiradilar va tanqidiy muhokama qiladilar. Keyin esa ba'zi juftliklar sinfdoshlari oldida o'z fikrlarini o'rtoqlashib, ijodiy ravishda fikr almashadilar.

7. *Yo'naltiruvchi savollar* – talabalarga fikrlarini mavzu yoki matnning ba'zi asosiy qismlariga qaratadigan yo'llanma bering va mavzuni o'rganayotgan davrlarida yo'naltiruvchi savol yoki ko'rsatmalar asosida ijodiy ravishda fikrashlariga erishing (intiling);

**d) fikrlash:**

**Talabalar dars (mavzu)ning mohiyatini qanday qilib hayotga ta'biq qila oladilar?**

1. *O'quvchining savollarga javoblari* – ma'ruza o'qib bo'linganidan so'ng talabalarga faol fikrlashni talab qiladigan va mavzuni yoritadigan umumiyoq ko'rinishdagi bir qancha savollar majmuasi beriladi. Ular, masalan, quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi ham mumkin:

- Ushbu mavzu bo'yicha Siz nimalarni bilib oldingiz?
- Mavzuning qaysi jihatlari Sizni o'ylashga va fikrlashga majbur qildi?
- Mavzu haqida shaxsan Siz qanday fikrdasiz?
- Shu bugun o'rganganlaringizni hayotga qanday tarzda tatbiq qilish mumkin?

2. *Ikki qismga bo'lingan yozuvlarni ko'rib chiqish* – talabalardan mavzu bo'yicha yozgan fikrlarini bir-birlari bilan o'rtoqlashishlarini so'rang va bu bo'yicha bahs-munozara uyuştirishga harakat qiling.

3. *Maxsus savollarga javob berish* – talabalarga ma'ruza mavzusi bilan uzviy bog'liq bir necha xil javoblar berilishi mumkin bo'lgan savollar tayyorlab kelishni topshiring va bu savollarni hamda ularga berilishi mumkin bo'lgan javoblarni guruhda tanqidiy muhokama qilishni uyuştiring.

4. *Oxirgi so'zni menga bering* – bir talabani doskaga chaqirib, unga mavzu bilan bog'liq ma'lumotlarning biror qismini doskaga yozishni, ikkinchi tomoniga esa, bu matn to'g'risida uning shaxsiy fikr-

mulohazasini yozishni so'rang. Keyin sinfdagi barcha talabalarni buni faol muhokama qilishga chaqiring. Lekin doskaga chaqirilgan talabaning yakunlovchi so'z aytishi kerakligini yoddan chiqarmang.

5. *Munozara* – talabalar juftliklaridan muhokama qilinayotgan mavzuga oid muammoning ijobiy va salbiy (negativ va pozitiv) tomonlarini yoritadigan savollar tuzishni so'rang. Ular birgalikda ishlab, tegishli savollarni tuzib bo'lishganidan so'ng, keyingi juftliklar bilan birgalikda javob variantlarni muhokama qilishi lozim bo'ladi. Demak, bu xildagi tadbir o'tkazishda bir guruhning o'ylab topgan savollariga boshqa guruhdagi talabalarning javob berishlari lozim bo'ladi. Shuning uchun ham ushbu tadbir munozara deb atalishini anglab olgan bo'lsangiz kerak.

6. *Muhokama/Munozaralar/Debatlar* – talabalarni ikki alohida guruhga bo'lib, o'rganilayotgan muammo bilan bog'liq masalalarni, savollarni yoki muammolarni qizg'in muhokama qilishni uyuştirish. Bunda barcha talabalarning teng huquqlilik asosida munozarada qatnashuvini, barcha ishtirokchilarning faol bo'lishini ta'mintash o'qituvchining zimmasida bo'ladi.

7. *O'n daqiqali bayon* – talabalarga o'n daqiqa davomida mavzu bilan uzviy bog'liq bo'lgan o'rganilayotgan muammo haqidagi o'z fikrlari bo'yicha bayon yozish topshirig'i beriladi. Ba'zi talabalarning hech nima tushunmadim deb, bekor o'tirishlariga yo'l qo'ymaslik o'qituvchining mas'uliyatlari doirasiga kiradi. Ularni ham mavzu bo'yicha nimalarnidir o'ylash va yozishga undash yaxshi natijalarga olib keladi.

8. *Tugallash kartochkalari* – biror-bir mavzuga bag'ishlangan darsdan so'ng, talabalarga quyidagilar haqida ma'lumot yozishni topshiring:

- Bugungi darsda o'rganilgan eng muhim g'oya, fikr, ma'lumot yoki o'zlashtirilgan bilim.
- O'rganilgan mavzu bilan bog'liq materiallar haqida juda bo'lmaganda bitta savol.
- O'rganilgan soha haqidagi ma'lumotlar bo'yicha umumiyoq ravishda ifodalangan mulohaza.

9. *Takrorlash* – Talabalar darsda bundan oldin o'rganilgan matnlarni (mavzular, muammlolar)ga bog'liq savollarga javob berib, bu javoblarni hayotiy (shaxsiy, jonli) misollar bilan to'ldiradilar. Bu usulni qo'llaganda «Takrorlash – bilimning onasi» degan maqolni yana bir marta eslash va hayotga tatbiq qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

10. *Bilimlarni boshqa muammolarga qo'llash* – o'rganilgan bilimlarning qanday qilib va qaerda hamda qay tartibda qo'llanilishini talabalarga jonli misollarda atroficha tushuntirib bergandan so'ng, ulardan bu bilimlarning, ma'lumotlarning yoki usulning yana qaerda va qanday qo'llanishi mumkinligini so'rang. Ularning shaxsiy fikri bo'lishiga, ushbu fikrni ularning ishonch bilan himoya qila olishlariga va bu fikrlarning iloji boricha turli-tuman va yangi (original) bo'lishiga e'tibor bering. Ijodiy fikrlar ko'lami (generatsiyasi) keng bo'lgan talabalarni imkoniyat doirasida rag'batlantirish ham yaxshi natijalarga olib keladi;

e) **yakunlash/xulosa:**

*O'tilgan darsdan qanday asosiy xulosalar chiqarish mumkin?*

*Bu muammoni qaysi darajagacha ko'rib chiqish maqsadga muvofiq?*

O'qituvchi oldindan har bir darsni (mavzuni) qanday ko'rinishda muvaffaqiyatli yakunlashi lozimligini aniqlab olishi lozim va bunda u quyidagilarga alohida e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir:

– Darsda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan mavzu yoki muammoni o'rganish chegaralari qay darajada bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

– Bu muammo yoki mavzuni qaysi darajada(gacha) va qanchalik batafsil o'rganish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin?

– Talabalar bilishi zarur deb topilgan asosiy dalil, qoida, konsepsiya yoki tamoyillar to'plami mavjudmi? Agar ular haqiqatan ham mavjud bo'lsa, bular qanday asosiy dalil, qoidalari, konsepsiya yoki prinsiplari?

– Talabalar mavzuga yoki o'rganilayotgan muammoga oid qo'shimcha material, kitob, davriy nashr yoki ma'ruza matnlarini qaerdan va qanday qilib topa oladilar? (Agar bularni Internetdan topish kerak bo'lsa, saytlar ro'yxati beriladi.) O'qituvchi bu borada amaliy yordam bera oladimi va qanday qilib?

– Mavzuga yoki o'rganilayotgan masalaga oid hozirgacha echimini topa olmagan muammolar ham mavjudmi? Agar bo'lsa, bular qanday turdag'i va ko'rinishdagi muammolar? Ularni hal qilishning qanday asosiy usullari (yo'llari) mavjud?

O'qituvchining mavzu bilan bog'liq ma'lum bir turdag'i savollarni yoki ularning bir-biri bilan bog'liq bo'lgan majmuasini yo'naltirilgan va maqsadga muvofiq holda bera olishi ham talabalarda tanqidiy

mushohada bilan bog'liq qobiliyatni rivojlantish yoki aks natija beruvchi muhim amaliy-uslubiy vositalardan biridir. Agar berilgan savollar o'quvchi (talaba)larning fikrlash jarayonini bir kadar cheklab qo'ysa va ular uchun faqat o'qilgan (tinglangan) materialni oddiygina tarzda qaytarishni talab qilsa, bu hol o'quvchilarning fikrlash jarayonini ancha sust holatga olib keladi va ularning fikri hech kimga kerak emas, degan ma'noni bildiradi. O'ylashga, erkin fikrlashga, har tomonlama tahlil qilishga va yaratuvchilikka qaratilgan savollar esa fikrlash ko'lamenti, darajasini va samarasini oshiradi. Bunday tadbirlar o'quvchilarni ular bilan hisoblashishlari lozimligini va ularning fikri ham qandaydir bir qiymatga ega ekanligiga ishontiradi. Bu borada «Savollar qanday ko'rinishda bo'lishi maqsadga muvofiq?» – degan muammo yuzaga keladi. Bunga bir qadar qoniqarli javob topishga urinib ko'ramiz. Talabalar o'rganilayotgan mavzu yoki muammo bilan uzviy bog'liq bo'lgan savollar to'plamini berganda quyidagi mezonlarga alohida ahamiyat berish yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin:

– Beriladigan savol o'tilgan yoki o'tilayotgan mavzu bilan bog'liq, aniq, lo'nda va qisqa bo'lishi kerak.

– Talabalariga berilgan bitta savol bilan mavzuga bog'liq bo'lgan faqat birgina narsani (faktni, qoidani, holatni va hokazolarni) so'rash zarur.

– Savol o'rganilayotgan soha, mavzu yoki muammoning biror bir jihatni bilan bog'liq bo'lishi lozim, chunki talabalardan ular hali yaxshi o'rganmagan mavzu bo'yicha nazariy savollarni so'rash va unga qaysarlik bilan javob olishga urinish yaxshi natijalarga olib kelmaydi va ularni mavzuni o'rganishdan cho'chitadi.

– O'qituvchi savollar tuzayotganida mavzu bilan bog'liq har bir savolga bir qancha javoblar berish mumkinligiga e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir.

– Beriladigan muammoli savolning ma'nosi o'quvchi (talaba)larga to'la tushunarli bo'lishi kerak. Aks holda, savol berish jarayonini boshlashdan oldin bu haqda ularga boshlang'ich tushunchalar berib o'tish lozim bo'ladi.

– Mavzuda tahlil qilib o'tilgan aniq narsa, dalil, voqe'a-hodisa, qoida yoki predmetlardan umumiylariga qarab boring. Faqat shu holda harakat

qilingandagina o'quvchi (talaba)larga fikrlash, tushunish, o'ylash va javob berish oson bo'ladi.

– «Ha» yoki «Yo'q» shaklidagi va «To'g'ri» yoki «Noto'g'ri» ko'rinishidagi javoblar berilishi mumkin bo'lgan yopiq turga mansub savollarni iloji boricha kamroq bering.

– O'quvchi (talaba)lar javob bera olmaydigan va mavzu bilan bog'liq bo'lmagan turdag'i savollarni zinhor bermang.

– O'quvchi/talabalarga o'zlarining hayotiy tajribalariga, ko'rgan va o'rgangan narsalariga hamda kelajakda ular duch kelishi mumkin bo'lgan hayotiy vaziyatlarga tayangan holda javob qidiriladigan savollar berishga intiling.

– Mavzu bilan uzviy bog'liq ravishda va undan kelib chiqqan holda o'z nuqtai nazarlarini boshqalarga yotig'i bilan va atroflicha tushuntirishga undaydigan savollar berishga harakat qiling.

– O'quvchi (talaba)lar savollarga javob berayotganlarida, iloji bo'lsa, ba'zan «Nega bunday deb o'ylaysiz?» – turkumiga mansub qo'shimcha savollar berish ham yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin.

### Savol berish usullari

Agar talabalar (o'quvchilar)ga o'rganilayotgan mavzu yoki muammo bilan bog'liq bo'lgan savollar berish jarayonida quyidagilarga alohida diqqat-e'tibor qaratilsa, shak-shubxasiz ijobiy natijalarga erishish va talabalarning faolligini sezilarli darajada oshirish mumkin bo'ladi:

– Tegishli savol yoki savollar majmuasi berilgandan so'ng (bu ish og'zaki yoki yozma ravishda tashkil etilishi mumkin) o'qituvchi talaba (o'quvchi)larga bu haqda o'ylash uchun bir necha daqiqa vaqt berilishini tashkil qilsa, ular bu qisqa muddatda berilgan savolning mag'zini chaqib, chuqr tushunishga hamda asl mohiyatiga etishga harakat qiladilar va javoblari ham to'liq bo'lishi tabiiy. Talabalarning to'g'ri javoblariga alohida urg'u berish va rag'batlantirish ularni bundan keyin ham faol bo'lishga undaydi.

– O'quvchi (talaba)larga berilgan savollar bilan bog'liq va mumkiri bo'lgan muqobil javoblarni yozish topshirig'i beriladi. Bu esa savolga bir necha ko'rinishda javob topish, solishtirish, aql tarozusidan o'tkazish va fikrlarini jamlash imkoniyatini beradi. Buning pirovard natijasida

berilgan savollarga javoblarining yaxshi o'ylangan, asosli va mantiqli bo'lishiga erishiladi.

– Ba'zi paytlarda o'rtaga tashlangan savollarga javob berish uchun ko'ngilli bo'lib, o'z ixtiyori bilan otilib chiqqanlarga, iloji boricha javob berish taklif etilmasligi maqsadga muvofiq, chunki ular mavzuni, muammoni yoki sohani ko'proq bilganliklari uchun munozarada etakchi o'rinni egallashga harakat qiladilar. Bu esa ba'zi tortinchoq, va uyatchan talabalar (o'quvchilar)ga javob berish va munozarada ishtiroy etish uchun yetarli darajada imkoniyat qoldirmaydi. Javob bergisi kelayotgan, ammo buning uchun tortinchoqligi va uyatchanligi imkoniyat bermayotgan talabalarga ko'pincha javob berish tajribasi yetishmaydi, shuning uchun ham ularga ko'proq e'tibor berish lozim bo'ladi. Chunki «Ular qo'rqaq emaslar, faqatgina qo'rqaqilar, xolos». Ko'ngilli bo'lib chiqqanlardan ular osonlikcha javob berishi mumkin bo'lgan savollarga javob olishni rejalashtirmang. Boshqa tortinchoqroq talabalardan esa ular javob berishi mumkin bo'lgan savollargagini javob berishlariga harakat qiling. Talabalarning bilim darajasini hisobga olgan holda savol berish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilish kerakki, tortinchoq, kamtar va uyatchan talaba (o'quvchi)lar javob berishga qynalib, boshqalar oldida esankirab va dovdirab qolmasinlar. Shunday hol yuz bersa, bunday talabalar qattiq ruhiy iztirobga tushib, bilganlarini ham tamoman yoddan chiqaradilar.

– Mavzu yoki o'rganilayotgan muammo bilan bog'liq bo'lgan savolni bir qadar o'zgartirib, qaytadan berish usuli munozaraning faollahuvni uchun yaxshi yordam beradi va vaqt ni tejaydi. Bunda o'qituvchi savolni shunday qilib tuzishi lozim bo'ladiki, unga birdan ortiq xildagi javoblar berish mumkin bo'lsin. Talabalar javoblaridan kelib chiqqan holda, u bilan uzviy bog'liq bo'lgan boshqa savollar ham berilishi, mavzuni o'rganish jarayonini yanada chuqurlashtirishga olib keladi. Shunday qilib, guruhdagi (sinfdagi) hamma talaba (o'quvchi)lar qiziqarli va faol munozaraga jalb qilinishi mumkin.

– Yuqori (oliy) darajadagi (ya'ni, chuqr, atroflicha, ijodiy va g'oyaviy) fikrlash jarayonini boyitadigan savollar berish talabalarning munozaraga ko'proq va keng ko'lamda jalb qilinishiga, qiziqishlarining ortishiga olib keladi. Bu sharotlarda ular munozara jarayoniga berilib va raqobat muhitini yaratgan holda faol qatnashadilar. Bunda aksariyat

savollar turkumi talabalarni fikrlashga, o'ylashga, tahlil qilishga, oddiydan murakkabga borishga, baholashga va xulosa chiqarishga majbur qilishi lozim bo'ladi. O'qituvchi bunday turdag'i muammoli savollarni tez-tez berib turishga harakat qilishi kerak, chunki bu ishni amalga oshirish talabalarning tanqidiy mushohada qobiliyatlarini yana ham va sezilarli darajada oshirishga olib keladi.

– Talabalarning turli mavzu va yo'nalihlarda savollar berish qobiliyatini hamda bu boradagi malakasini oshirish maqsadida ularning bu yo'nalihsda bevosita mashq qilish jarayonini amalga oshirish kelajakda ular bilan ushbu yo'nalihsda ishlashni ancha osonlashtiradi va darsni ham juda qiziqarli o'tilishini ta'minlaydi. O'qituvchi talabalar (o'quvchilar)ga aniq misol va masalalar bilan bog'liq savollar berib, ularni iloji boricha ko'proq mashq qildirishi kerak. Bu savollar, misol va masalalar atrof muhittdagi real amaliy hayot bilan va talaba (o'quvchi)larning kundalik faoliyati bilan uzviy bog'langan holda bo'lsa, yana ham katta samaraga erishish tabiiy. Bular, masalan, o'quvchini aniq savolga tegishli javob topish jarayonini tahlil qilishga undaydigan yoki javobning mohiyatini har tomonlama o'ylashga yo'llaydigan qo'shimcha savollar turkumi ko'rinishida ham be'lishi mumkin.

Agar talaba (o'quvchi)lar mavzu bilan bog'liq savollarga noto'g'ri javob bergen taqdirlarida ham o'qituvchi jahl qilmasligi, bayon etayotgan fikridan adashmasligi, ruhiyati va kayfiyati buzilmasligi kerak. Bunday sharoitlarda u quyidagi ko'rsatma va maslahatlarni dasturilamal qilib olsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

– Talaba tomonidan berilgan javobning to'g'ri tomonini bo'rttirib ko'rsatgan holda, o'quvchi (talaba)da o'z kuchiga qat'iy ishonch uyg'otish lozim. Keyin esa to'g'ri javob topish uchun nimadan foydalanish va yana nimalar qilish kerakligi haqida ko'rsatmalar berish, shunga mos javobni topa olish uchun yo'llanma berish zarur. Javobning to'g'ri qismidan amaliy ravishda foydalangan holda, uning noto'g'ri jihatlarini tuzatish yo'llarini ko'rsatish juda foydalidir.

– Berilgan savolni boshqa so'zlar bilan tushunarli tarzda ifodalang yoki uni boshqacha usulda bering. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchi (talaba) ga to'g'ri javob topish uchun yana bir real imkoniyat hosil qiladi va u o'z faolligini yo'qtmaydi, o'z kuchiga, bilimiga va imkoniyatlariga yana ham ko'proq ishona boshlaydi. Demak, undagi ichki ma'naviy

kuchlar rivojlanib, jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lish uchun kerakli ma'naviy-ma'rifiy ozuqa oladi.

– O'quvchi (talaba)ga javob topish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan maslahatlar yoki ko'rsatmalar berish orqali uni ijodiy fikrlashga, har taraflama o'ylashga va mulohaza yuritishga undang. Bu usulda o'ylash jarayonida uning ongi faollahib, bilimlari chuqurlashadi, xilma-xil dalil va qoidalarni o'zicha o'ylab topadi.

– O'quvchi (talaba)ga berilgan savolga javobi mohiyatini tushuntiring va yotig'i bilan hamda atroficha javobning qaysi qismi to'g'ri, qaysi qismi noto'g'riligini bildiring. So'ngra to'g'ri javob topishga harakat qilishni yana bir karra taklif qiling.

– Agar o'quvchi savolni tushunmagan bo'lsa, mavzu bo'yicha berilgan savolni o'zgartirishga yoki soddalashtirishga erishingki, toki o'quvchi (talaba) unga iloji boricha osonlik bilan javob bera olsin. Yoki savolni bir qancha mayda savolchalarga bo'lingki, talabaning to'g'ri javoblar berishiga imkoniyat yaratilsin. Bu jarayon albatta o'qituvchidan anchagina mahorat, sabr-toqat, bilim va madaniyat talab qilishi tabiiydir.

– Agar talaba savolga noto'g'ri javob berayotganligini sezib qolsangiz, bu savolga to'g'ri va batafsil javob berish uchun boshqa o'quvchi (talaba)lardan yordam so'rang. Lekin bunda javob berayotgan talabaning izzat-nafsiiga tegib ketishdan ehtiyyot bo'lish lozim.

– Agar o'quvchi (talaba) mavzu bo'yicha savolga noto'g'ri javob berayotgan bo'lsa, undan madaniyatli muomala qoidalariга rioya qilgan holda, ehtiyyotkorlik bilan «Siz nega bunday deb o'ylaysiz?» – deb so'rash ham mumkin. Bu holda o'quvchi o'zining noto'g'ri javobidan noqulay holatga tushib qolmaydi va ko'pincha fikrlash jarayonida o'zining javobidagi mantiqiy xatosini topib olishi ham mumkin. Bu esa unga berilgan savolga to'g'ri javob topishga amaliy yordam berishi tabiiy.

#### Savollarning asosiy turlari

Faoi va ijodiy ravishda bilim olishning ushbu qo'llanma boshida berilgan va mohiyati batafsil tushuntirilgan Blum taksonomiyasi asosida tuzilgan bosqichlaridan foydalangan holda savollarni quyidagi asosiy turlarga bo'lib chiqish mumkin:

**Bilim olish** – bunda savollar turkumining mazmuni mavzu yoki muammo bilan bog'liq bo'lgan mavjud dalillarni aniqlashga yo'naltirilgan bo'ladi:

- Qaysi .....?
- Qanday .....?
- Nima bo'lgan edi....?
- Aniqlang.....?
- Qayerda ..... ?
- Qachon.....?
- Solishtiring .....?
- Chizib bering.....?

**Tushunish** – ushbu bosqichda mavzular bo'yicha tuzilishi mumkin bo'lgan savollar majmuasi tushunchaning o'zlashtirilishini tekshirishga (ko'rishga, aniqlashga) qaratiladi:

- Mavzu bo'yicha nimalarni bilib oldingiz?
- Mavzu bo'yicha qanday dalillar yoki qoidalar asosiy ahamiyatga molik?

- Nimalar Sizga tushunarsiz bo'ldi?
- Nimalarni oydinlashtirish lozim?
- O'z so'zlarigiz bilan aytib bering: .....
- Tushuntiring: .....
- Qaysi bir va qanday .....?
- Ushbu ma'lumotlar nimani tasdiqlaydi?
- Grafikni (chizmani) tushuntirib bering
- Qachon .....?.

**Ishlatish (qo'llash)** – bunda mavzu yoki muammo bilan bog'liq bo'lgan va ma'rizada o'rganilgan ma'lumot (bilim)larni qanday qilib hayotda qo'llash masalalari ko'rib chiqiladi.

- Mavzu bo'yicha olgan bilimlaringizni amaliy hayotda qo'llanilishi bilan bog'liq qanday misollarni bilasiz?
- Atrof muhitdagi qaysi dalil, omil, hodisa, qoida yoki ma'lumotni amaliy qo'llanishga misol qilib ko'rsata olasiz?
- Bu bilimlarni qanday qilib ishlata olasiz?
- Buni qaysi jahbada ishlatish maqsadga muvofiq?
- Nega bunday bo'lganini tushuntiring?
- Ushbu hodisani tushuntiring: .....
- Bu voqeani tushuntirish uchun qanday qoida (asosiy dalil, ma'lumot) larni qo'llash mumkin?

**Tahlil (analiz)** – o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq tushunchalarning tashkil etuvchi (bo'lak, qism)lari orasidagi bog'liqlikni ko'rsatish va tushuntirib berish talab qilinadi.

- ..... qanday tarkibiy qismlardan iborat?
- ..... qanday munosabatda?
- Solishtiring.....
- Qanday asosiy xossalari mavjud .....?
- U yoki bu bo'lim (bo'lak, qism) orasidagi farqni ko'rsating: .....
- Turkumlarga ajrating: .....
- Tarkibiy qismlarga bo'lib chiqing.
- Ushbu mavzu bilan bog'liq bo'lgan xatolaringizni toping. Qanday nuqtai nazar to'g'ri bo'lishi mumkin?

**Sintez** – bunda mavzu bilan bog'liq voqe-a-hodisa, material, uskuna, qism (bo'laklarini) mantiqiy jihatdan butunga qo'shish (birlashtirish, moslashtirish) ni uddalash talab qilinadi.

- O'rganilayotgan masalaning mohiyatini qanday tarkibiy qismlar tashkil qiladi?
- Qanday tarkibiy qismlar qo'shilsa, obyektning mohiyati sezilarli ravishda o'zgaradi?
  - Bajaring .....
  - Faraz (fikr, nuqtai nazar) ni qanday qilib tekshirar edingiz?
  - Siz qanday qilib hosil qilardingiz (yaratardingiz, ko'rardingiz)?
  - Asosiy mavzularni va namunalarni aniqlang.....
  - Ba'zi bir tarkibiy qismlarning bor yoki yo'qligi masalaning mohiyatiga qanday ta'sir qiladi?

**Baholash** – yuqorida ko'rib o'tilgan tahlil, analiz va sintez natijalariga asoslanib, qaror qabul qilish va xulosa chiqara olish qobiliyati ko'rib chiqiladi.

- Ushbu ..... ni baholang.
- ..... bo'yicha fikringiz qanday?
- Aniqlang.....
- Ushbu ..... ko'rsatgichlarga mos tushadimi?
- Nega shunday? yoki Nega shunday emas?
- Namuna yaxshimi? Nega?
- Qanday ko'rsatkichlarga asoslangan holda ..... ?
- ..... ni asoslab bering.

- Ko'rsatkichlarni qanday aniqladingiz? Ularni asosli ravishda tushuntirib bering.....
- Nega Siz shunday deb fikrlaysiz/o'ylaysiz?
- ..... haqida qanday xulosa chiqara olasiz?

Agar barcha fanlarni aniq va aniq bo'lmagan fanlar deb, bir-biridan ajratsak, ikkinchi guruhgaga kirib qolgan fan namoyondalari bizdan juda qattiq xafa bo'lishlari va ranjishlari aniq. Bu esa, o'z navbatida, qo'llanmamizning muvaffaqiyatiga pand berishi mumkin. Shuning uchun ham ularni bir-biridan ajratmaymiz va taklif qilinayotgan uslubiyotlarni hech qanday cheklanuvlarsiz qo'llashlariga teng imkoniyat yaratamiz. Bu bizningcha, ushbu qo'llanma doirasidagi demokratiyaning va umuminsoniy qadriyatlar hurmatining yaqqol namunasi bo'ladi deb umid qilamiz. Yuqorida aytib o'tilgan ko'p usullar (ko'rsatmalar, qoidalar, yondashuvlar) jamoa tomonidan aniq deb tan olingen fanlarni ham faol usulda o'qitishda juda qo'l keladi. Chunki bu usullar inson ruhiyatini (psixikasi)ning imkoniyatlari va ta'limga berish sohasidagi eng oxirgi (ilg'or) hamda zamonaviy yutuqlariga asoslangandir. Bunda, albatta, «Hamma yangi narsalar, unutib yuborilgan eski narsalardir», – deb ham aytishingiz mumkin. Lekin bu eski narsalarni topish va joy-joyida maqsadga muvofiq ravishda ishlatalish ham ma'lum darajada topqirlik hamda bilimni talab qilishi hech kimga sir emas.

Mantiqli savollar berishning va o'quvchi tomonidan biror-bir narsa, xodisa, dalil, omil hamda qoidani yangidan kashf qilishning yoki ochishning, uning mohiyatiga tushunishning faol usulda ta'limga berishdagi ahamiyatini hozirgi zamon amaliy-konstruktiv pedagogika fani tarafdarlari doimo uqtirib kelishgan. Bunda bizning bu konsepsiyanı qo'llashimizni ko'rsatish uchun dono o'zbek xalqining «Ming marta eshitgandan ko'ra, bir marta ko'rgan yaxshiroq», – degan maqolini yodga olmasdan ilojimiz yo'q. Chunki xuddi shu asrlar zamiridan chiqqan ijobiy fikr amaliy-konstruktiv pedagogikaning asosi (poydevori)ni tashkil qiladi. Hozirgi paytda ilg'or (progressiv) usulda ishlaydigan pedagoglar ta'limga berishni talaba (o'quvchi)lardagi mavjud bo'lgan bilim majmularini ijodiy fikrlash asosida kengaytirish va qayta tuzish sifatida tushunib, bilim toliblariga loqayd (passiv) ravishda bilim berish usulini aslo tan olmaydilar. Chunki sust ta'limga usuli talabalarni befarq va loqayd qilsa, faol ta'limga usuli ularning iqtidori va iste'dodini rivojlantirishga, tasavvur

doiralarini kengaytirishga, muloqotlarini jonli qilishga va ishga (hayotga) hamda jamiyatga ijodiy yondashishlariga olib keladi. Agar biz talaba (o'quvchi)larning o'zлari yaxshi bilgan hodisalari va bilimlari asosida ularga yangi bilimlar majmuasini berib, amaliy-konstruktiv pedagogika usullarini qo'llasak, u holda quyidagi ikki holatni kuzatishimiz mumkin. Birinchidan, o'qituvchilar savollar berishlari va bu savollarga to'g'ri javob topishlari uchun faol ishlashlari kerak bo'ladi. Bu jarayonda ular o'zlarining bilganlarini yana bir marta yaxshilab eslashlari va buning asosida talabalarga nimalarni bermoqchi ekanliklarini aniqlab olishlari lozim. Ikkinchidan, o'quvchilar o'zlarining hayotdan olgan turli taassurotlaridan va bilimlarining xilma-xilligidan kelib chiqqan holda, yangi hodisa, qoida, omil va dalillarni o'rganmasdan turib, noto'g'ri xulosaga kelib, adashib qolishlari xavfi ham mavjud. Binobarin, o'quvchilar yangi bilimni (ma'lumotni) o'zlaricha noto'g'ri talqin qilsalar, bu ularning chala, to'laqonli bo'lmagan yoki noto'g'ri bilim olishlariga olib keladi. Shuning uchun ham o'qituvchining vazifasi ziyraklik bilan bunday hollarga yo'l qo'ymaslik va o'quvchilarning oldingi bilganlarini ham bir karra tekshirib chiqishdan iboratdir. Bizningcha, quyidagi fikr bejiz aytilmagan:

*«Har bir o'qituvchining vazifasi o'quvchida bilimga qiziqish uchqunini yoqish, xolos, uning alangaga aylanishi esa talabaga bog'liq».*

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlar nafaqat aniq fanlarni, balki boshqa har qanday turdagagi fanlarni ham o'rganishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Sizga ma'lumki, fan – fizik dunyo, jamiyat, ruhiyat, inson tuzilishi va atrof-muhitdagi qonuniyatlarini misol va qonun-qoidalarga suyangan holda har tomonlama o'rganishdir. O'quvchi ham o'zidagi imkoniyatlarni ishga solgan holda bu qonuniyatlarini o'zicha baholi qudrat o'rganishga harakat qiladi. Ular bolalik va yoshlik paytlarda xilma-xil voqeа va hodisalar haqida o'zлari uchun qandaydir tushuntirishni (izohlashni) aniqlab oladilar va bularni keyingi o'qish jarayonida, ta'limga-tarbiyada va butun hayot davomida to'ldirib hamda qayta ko'rib chiqaveradilar. Demak, o'qitish va ta'limga-tarbiya jarayonini o'quvchilarning mavjud haqiqiy-daliliy (faktual) bilimlari bilan garmonik ravishda qo'shib amalga oshirilsa hamda ularning qiziqishlari, intilishlari hisobga olinsa, juda yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin. Aniq fanlarni sust (passiv) usulda o'qitsa, ulg'ayganimizda muayyan bilimlar majmuasiga ega

bo'lishimiz mumkin, lekin bu bilim «tekshirilmagan, sinalmagan» holda qolib ketaveradi va biz ularni real hayotda maqsadga muvofiq ravishda ishlashimiz mushkul bo'lib qoladi. Aniq fanlarni faol o'qitishning amaliy-konstruktiv usuli bilim olish jarayonini o'quvchilarning qiziqish va intilishlari bilan uzviy bog'langan holda olib boradi hamda ularning bilganlaridan foydalangan holda yangi bilimlar majmuasini taqdim etadi. Demak, ular ongida mavjud bo'lgan eski bilimlar majmuasi yangi bilimlar to'plami uchun bir ularish nuqtasi, o'ziga xos harakat dasturi bo'lib xizmat qiladi va bir-biriga eng muvofiq ravishda uyg'unlashadi. Aniq fanlarni o'qitish o'quvchi (talaba)larda quyidagilar bilan aniqlanadigan ilmiy-amaliy yondashuvni tarbiyalaydi:

1. Chuqur, har taraflama va atroficha bilim olishga intilish va bunga astoydil qiziqish.

2. Nazariy tomondan aniqlangan ko'rsatmalar asosida ushbu fanga oid bir nima qilish orqali biror-bir hodisani, qoidani, dalilni yoki ma'lumotni aniqlash. Masalan, mavzuga oid tajriba qilib ko'rish, amaliy ish o'yinini tashkil qilish yoki misol va masalalar echish.

3. Mavzuga oid va u bilan bog'liq bo'lgan ko'pincha uchrab turadigan fikrlar, g'oyalar, ma'lumotlar, asosiy dalillar, konsepsiylar, qoidalar va hodisalarни yana ham diqqat bilan o'rganish (skeptisizm).

4. Xilma-xil hodisalarning bir-biriga munosabatidagi mantiqni hamda mantiqiy bog'liqlikni va bunday aloqalar tub mohiyatini aniqlash va isbot qilishni bilim olish jarayonida ishlash (mantiqiy-nazariy fikrlash).

5. Tevarak-atrofdagi dunyo va hodisalar haqida ma'lum bir to'g'ri ma'lumotlar majmuasiga ega bo'lish va uning asosida hamda unga tayangan holda mantiqiy-konstruktiv fikrlash (bilimdonlilik).

6. U yoki bu sohadagi har bir real masalalarni hal qila olish, ma'lumotlarni topish, ularni bir-biriga bog'lash, maqsadga muvofiq ravishda ishlash va muammolarni hal qilish uchun ma'lum bir qoidalar, dalillar, ma'lumotlar, tushunchalar to'plamiga ega bo'lish va ularni amaliy ravishda ishlata olish (strategiyalar).

7. Boshqalarning fikrlarini, bilimlarini, ma'lumot majmularini va g'oyalarini bir-biriga maqsadga muvofiq ravishda bog'lay olish hamda ulardan unumli ravishda foydalanim, yangi bilimlar majmuasini tuza olish (integratsiya).

Hayotni noto'g'ri aks ettiradigan, amaliy hayotdan uzoq va mavhum ko'rinishdagi ilmiy bo'lмаган yondashuvga (noilmiy, antitezaga) yaqqol misol sifatida quyidagilarni kiritish mumkin (ya'ni, yuqorida aytib o'tilganlarga qarama-qarshi dunyoqarashning mohiyatini tashkil etuvchilar):

1. Biror-bir narsani, hodisani, nazariyani yoki fanni bilish va o'rganishni xohlamaslik hamda buni foydasiz deb bilish, atrof muhitdagi hayotga nisbatan loqayd hamda befarq bo'lgan munosabat (*passivlik*).

2. Voqeа-hodisalar orasidagi mavjud bo'lgan real munosabatlarni isbot orqali emas, balki faqatgina aqliy fikrlash, parallel ko'chirish yoki qandaydir turdagи aqidaparastlik orqali bu narsa bunday bo'ladi, u narsa unday – deb xulosa chiqarish, da'vo qilish, astoydil berilish yoki shunga shubhasiz ishonish va boshqalarni ham bu narsalarga ishontirishga harakat qilish (*sxolastika*).

3. Atrof-muhitdagi real dunyo haqida noto'g'ri va g'aliz fikr yuritish yoki shunday g'oyalarga so'zsiz ishonish. Bu esa, o'z navbatida, noto'g'ri savollar berishga va g'aliz tushunchalarga olib keladi hamda biz atrof-muhitni; hayotni noto'g'ri tushunib, talqin qila boshlaymiz (*dezinformatsiya*).

4. Real muhitdagi voqeа va hodisalarни, qoida va dalillarni, ma'lumotlarni, o'zaro bog'liqliklarni va munosabatlarni chuqur o'rganmaslik, izchillashtirmaslik va tahlil qilmaslik, isbot qidirmaslik (diqqatning tarqoqligi – *dezintegratsiya*).

5. Olingan dunyoviy bilimlarga rioxal qilmaslik, ularni vaqtiga qo'shilishiga ta'sir qilishini hisobga olib, ularni yanada to'ldirmaslik, yuzakilikka yo'l qo'yish (*begonalashish*).

Misol uchun, fizikaga bag'ishlangan biror-bir dars mavzusи «Suvning bug'lanishiga ta'sir qiladigan omillar» deb atalsin. Darsni boshlashdan oldin o'quvchilarga bu borada bir savol beriladi. Masalan, «Xilma-xil turdagи va shakldagi yuzalarda suv qancha paytda bug'lanib ketadi?» – deyiladi va ulardan bunga qanday omillar ta'sir qilishini aniqlash so'raladi. Ular biroz vaqt o'ylab olgandan so'ng, o'qituvchi ularga bu yo'nalishda ba'zi bir maslahatlar va tushuntirishlarni beradi. Sinf doskasiga (yoki katta bir qog'oz bo'lagiga) har bir o'quvchining «Suv bug'lanishining tezligiga qanday omillar ta'sir qiladi?» – degan

savolga nisbatan o‘z fikrlarini yozishlari so‘raladi. Bunda o‘quvchilar batafsilroq bilishni istagan omillarga savol belgisi qo‘yib qo‘yishlari ham mumkin. Shundan so‘ng o‘quvchilardan ularning qaysi savollarga javob berishni xohlashlari so‘raladi. Ularning javobi va tushuntirishlari jonli va biror-bir real hayotda uchraydigan aniq misol bilan bog‘liq bo‘lsa, yana ham yaxshi bo‘ladi. Masalan, suv bug‘lanishining tezlashishiga va sekinlashishiga nimalar ta’sir qilishini ko‘rsatadigan qanday hodisani u misol sifatida keltira oladi, qanday qilib buning to‘g‘riligini tekshirish mumkin, qanday xildagi tajribalar bunga yordam beradi va hokazo. Omillarning alohida-alohida ta’siri haqida ham muhokama o‘tkazish mumkin. O‘quvchilar qaysi omillarning bug‘lanishni tezlashtirishi va qaysilarining sekinlashtirishini bilib olganlaridan so‘ng, xilma-xil turdagি materiallardan suvning bug‘lanish tezligining qandayligini muhokama qilish mumkin. Masalan, sochiqdan – uning xilma-xil holatida, temirdan – xilma-xil sharoitlarda, yog‘ochdan – uning har xil holatlarida va shunga o‘xhashlar. Darsning oxirida o‘quvchilarga uylarida suvning bug‘lanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan biror-bir tajriba o‘tkazishlari so‘raladi. Keyingi darsda esa uning natijalari batafsil va har tomonlama muhokama qilinadi hamda bu bilan bog‘liq bo‘lgan tegishli xulosalar chiqariladi.

Demak, aniq fanlardan dars berishning bunday konstruktiv pedagogik usuli quyidagi uch asosiy bosqichdan iborat bo‘ladi, ya’ni:

- O‘rganish bosqichi.
- Izlanish/Tushuntirish bosqichi.
- Umumlashtirish/Kengaytirish bosqichi.

Ushbu amaliy-konstruktiv pedagogik ta’lim usuli bosqichlarning har birini alohida va birmuncha batafsilroq ravishda ko‘rib va o‘rganib chiqishga harakat qilamiz.

## 1. O‘rganish bosqichi

Ta’limning ushbu boshlang‘ich bosqichida o‘quvchi (talaba)lar qiziq va muammoli hodisa (dalil) bilan tanishadilar va ularga buni batafsilrok o‘rganish bilan bog‘liq ko‘rsatmalar hamda yo‘l-yo‘riqlar beriladi. Bu ko‘rsatma hamda yo‘l-yo‘riqlar hodisa (dalil, qoida, soha, mavzu) ni ko‘proq va har tomonlama bilishga undashi lozim. Ya’ni, ular buni qandaydir yo‘llar bilan tushuntira olsinlar, boshqa voqeа, hodisa, misol

va dalillar bilan solishtirsinlar, bu hakda o‘z fikrlarini erkin aytا olsinlar. Bu vaqtда o‘qituvchi voqeа (hodisa, dalil)ni to‘la tushuntirmasligi lozim, lekin u o‘quvchi (talaba)lardagi loqaydlikni engib, buni o‘rganishga ularda astoydil qiziqish va haqiqiy intilish uyg‘ota olsin. Bunda o‘qituvchining asosiy maqsadi quyidagi xatti-harakatlar orqali o‘quvchi (talaba)larda to‘laqonli bilim olishga qiziqish uyg‘otishdir:

– talabalarning mavzu yoki hodisa haqidagi barcha savollariga to‘laqonli javob berish;

– o‘quvchilarning mavzu yoki hodisaga nisbatan qiziqishlarini boshqarish va kuchaytirish, ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ilmiy izlanish jarayoniga jalb qilish uchun ushbu mavzuga tegishli va o‘quvchilar bilim darajasiga mos bo‘lgan muammoli savollar qo‘yish;

– o‘quvchilardagi ijodiy fikrlash, qiziqish, intilish va kerakli yo‘nalishdagи izlanish jarayoni to‘xtab qolmasligi uchun talabalar bilan faol va topqirlik orqali muloqot qilish.

O‘qituvchi bu bosqichni alohida e’tibor bilan amalga oshirish va uning asosiy tamoyillarini hayotga tabbiq qilish uchun o‘ziga quyidagi savollarni berishi lozim:

– Ushbu darsda o‘quvchi (talaba)lar mavzu bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan qanday konsepiya yoki tamoyilni o‘rganadilar?

– Ushbu konsepsiya yoki tamoyil bilan chuqurrok tanishish uchun ular yana nima qilishlari kerak?

– O‘quvchi (talaba)lar mavzu bilan bog‘liq ravishda nimalarni kuzatishlari lozim va qanday qo‘srimcha yozuvlar qilishlari zarur?

– Talabalar uchun mavzuni chuqurrok va amaliy ravishda o‘rganish borasida qanday ko‘rsatmalar va tushuntirishlar berish mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi?

– O‘rganilayotgan konsepsiya yoki tamoyillarni o‘quvchilarga bildirmasdan turib, ularga bu yo‘nalishda harakat qilish uchun qanday zarur va etarli ko‘rsatmalar bera olish mumkin?

## 2. Izlanish (Tushuntirish)

O‘quvchi (talaba) lar hodisa (dalil, qoida) ni o‘rganib, bu yo‘nalishdagи o‘z shaxsiy kuzatuvlарini tugatganlaridan so‘ng, o‘qituvchi ularga ushbu kuzatuvlarni ma’lum bir qolipga tushirishga imkon berishi

kerak. Bunda asosiy maqsad bu yo‘nalishdagi «konsepsiya»ni tuzishdir. Bunda o‘qituvchining pirovard maqsadi o‘quvchi (talaba)larning mustaqil fikrlashlariga erishish bo‘lgani uchun, ularga to‘g‘ridan to‘g‘ri lo‘nda qilib tushuntirishi va ma‘ruza o‘qishdan o‘zini tiyishi lozim. U to‘g‘ri fikrlar majmuasini savol-javobga asoslangan Suqrot usulini qo‘llash orqali o‘quvchilarning o‘zidan tortib olishga intilishi kerak. Bunda o‘quvchi quyidagi savol (muammo)larga javob berishga tayyor bo‘lishi zarur:

– O‘quvchi (talaba)lar qanday turdag'i ma‘lumotlar yoki yangiliklar haqida gapirishlari mumkin va men bularga qoniqarli javob berishga tayyormanmi?

– Men qanday qilib o‘quvchi (talaba)larga ularning yangi fikrlarini umumlashtirish va bu borada tegishli xulosalar chiqarish uchun amaliy yordam bera olaman?

– Men qanday qilib sinfdagi talabalarni ko‘rsatilgan maqsad yo‘nalishida boshqaraman va ular bilmoqchi bo‘lgan narsalarni oldindan aytishdan o‘zimni qanday qilib tiyib tura olaman?

– Agar talabalar muammoni yoki mavzuni yaxshi tushuna olmasalar, savolning mohiyatini anglay bilmasalar men nima qilaman?

– Qanday qilib men ularda mavjud bo‘lgan chegaralangan ma‘lumotlarni muammoni to‘g‘ri va xolisona tushunishlari uchun ishlatalishlariga amaliy yordam bera olaman?

– O‘rganilayotgan konsepsiaga yoki mavzuga mos bo‘lgan muqobil – alternativ fikrlar majmuasi nimalardan iborat bo‘lishi mumkin?

– Agar o‘quvchi (talaba)lar mendan «Bu muammo (dalil)ning yoki qoida (hodisa)ning qanday ahamiyati bor?» – deb so‘rasalar, men ularga qanday ma‘lumot bera olaman yoki sabab ko‘rsata olaman?

### 3. Umumlashtirish (Kengaytirish)

Bu bosqichda o‘quvchi (talaba)lar o‘zlarning mantiqiy fikrlarini (topilmalarini) yoki xulosalarini oldingi bilimlari bilan bog‘laydilar yoki taqqoslaydilar. Buning asosida ular o‘z shaxsiy fikrlariga ega bo‘ladilar va olgan bilimlarini umumiyl tushunchalar bilan bog‘laydilar. Bu bosqich bilan bog‘liq xatti-harakatlarning pirovard maqsadi – o‘quvchi (talaba) larga o‘z bilimlarini tartibga solishga yordam berish va yangi tushunchalar doirasida fikrlashni va mulohaza yuritishni o‘rgatishdir. Bu bosqich

juda ham muhimdir, chunki bizning maqsadimiz o‘quvchi (talabalar) ga tayyor bilimlar majmuasini berishgina emas, balki ularning o‘zlari olgan bilimlari orqali fikrlari qanday o‘zgarganligini his qilishlariga erishishdir.

Ushbu bosqichni rejalashtirganda o‘qituvchilar o‘zlariga quyidagi savollarni berishlari lozim:

– O‘quvchi (talaba)larning o‘rganilayotgan muammo yoki mavzu bilan bog‘liq qanday amaliy tajribalari mayjud?

– Men qanday qilib ushbu konsepsiyanı ularning hayotiy tajribasi va kuzatuvlari bilan bog‘lay olaman?

– O‘quvchi/talabalarning olgan bilimlari qanday foyda keltirishi va qaerda ishlatalishi mumkinligi haqidagi qanday misollar mavjud?

– Qanday qilib ularga ilmiy izlanishlar, texnologiya va jamiyat rivojlanishi orasidagi mavjud bog‘liqliqni jonli hamda qiziqarli misollarda ko‘rsatish mumkin?

– Qanday qilib talabalarda ilmiy izlanishlarga, o‘rganishga, diqqat bilan kuzatib xulosa chiqarishga qiziqishni uyg‘otish mumkin?

– Qanday qilib ilm-fanning tarixi va undagi yutuqlarning jamiyat uchun ahamiyati haqida ularga ongli ravishda uqtirish mumkin?

– Ushbu konsepsiya (tushuncha, mavzu, qoida, fakt, tamoyil) ni qo‘llash yoki kengaytirish uchun qanday turdag'i yangi tajribalar o‘tkazish mumkin?

– Ushbu konsepsiya (tushuncha, mavzu, qoida, fakt, tamoyil) bilan uzviy bog‘liq keyingi konsepsiya (tushuncha, mavzu, qoida, fakt, tamoyil) nima?

– Men qanday qilib o‘quvchi/talabalarni keyingi konsepsiya (tushuncha, mavzu, qoida, fakt, tamoyil)ni o‘rganishga (yoki u bilan bog‘liq izlanishlar o‘tkazishga) qiziqtira olaman?

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, birinchi bosqichning mohiyati o‘rganilayotgan voqeа (hodisa, qoida) yoki faktga o‘quvchi (talaba)larning qiziqishini uyg‘otish bo‘lib, ularda savol berish zaruriyatini keltirib chiqarishdir. Keyin esa berilgan savollarni ma‘lum faraz (gipoteza)lar shaqlida ifodalab, ularni tekshirishni amalga oshirishga harakat qilinadi.

Ikkinci bosqichning mohiyati hosil bo‘lgan savollarga javob topish uchun izlanish ishiarini o‘tkazishdir. Bunda, masalan, o‘quvchi (talaba) larga ularning farazlarini tekshirib ko‘rish uchun testlar ishlab chiqish topshirilishi mumkin. O‘quvchi o‘tkazilgan tajribalarni talabalar bilan

muhokama qiladi va buning asosida ma'lum bir amaliy xulosalar chiqarishga yordam beradi. Uchinchi bosqichda xulosalar chiqarilib, natijalar haqida atroficha mulohaza yuritiladi. Xulosa chiqarish bilan bog'liq bo'lgan harakatlar oddiy yoki murakkab ko'rinishda bo'lishi mumkin. Masalan, statistik usullar bilan chiqarilgan xulosaning qanchalik ishonchliliginı tekshirish, o'zgaruvchilarning bir-biriga qanchalik bog'liqligini tekshirish, tegishli tenglamalarni chiqarish, natijaning ishonchlilik darajasining ehtimolligini tekshirish mumkin. Nega bunday qilinayotganligini o'quvchi/talabalar to'la tushunishiga erishish juda ham muhimligini alohida aytib o'tish lozim. Demak, ularning har doim «Xo'sh, shunday bo'lsa nima qilibdi?» – degan ko'rinishdagi savollar berishlari muammoni yanada chuqurroq o'rganishlari uchun zamin yaratadi. Bunda zukko yozuvchimiz G'afur G'ulomning «Shum bola» asaridagi doimo «Innay keyin-chi?» deb savol beraveradigan boy ota sujetini esga olmay ilojimiz yo'q, albatta. Biz ham bunday holatlarda o'z ustozimizga «Juda ham xit qilib yubordingiz-da!», deyishga to'la asosimiz bo'ladi.

## 6. KOOPERATIV USULDA TA'LIM BERISH

*O'zin dono bilgan uch-to'rtta nodon,  
Eshak suhabatini qilur namoyon,  
Sen ham ular suhabatida eshak bo'l,  
Bo'limasa nodon deb qilishar e'lon.*

*Umar XAYYOM*

Yuqorida o'qituvchilar tomonidan o'quvchi-talabalarga bilim berishda keng miqyosda ishlatalidigan ta'limning to'rtta modeli eslatib o'tilgan edi – ular ma'ruza usuli, muloqot usuli, tanqidiy mulohaza va savol-javob yoki Suqrot usuli. Bu bo'limda ham ildizi qadimgi yukonlarga borib taqaladigan va keyingi davrlarda rivojlanib borayotgan kooperativ ta'lim olish usuli ko'rib chiqiladi. Bu ta'lim konsepsiyasida katta miqyosdagi real hayotni va undagi jarayonlarni o'rganish uchun sinf miqyosida o'ziga xos amaliy va nazariy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bunda talabalar guruhlarga bo'lingan holda ishlaydilar va bilim oladilar. Kooperativ usulda bilim olish quyidagi pozitiv ko'rsatkichlarni rivojlantirishga olib keladi:

– Talabalar umumiylashtirishda yoki muammoni hal qilish uchun birgalikda intiladilar va fikr almashinadilar, natijada ular faol ravishda bilim oladilar.

– Guruhlarda ishlash uning a'zolari orasida do'stona munosabatlarni rivojlantirishga olib keladi va natijada ular bir-birlari bilan intensiv fikr almashadilar.

– Guruh a'zolari orasidagi o'ziga xos kooperasiya ular orasida juda ham samarali bo'lgan kommunikatsiyani rivojlantiradi va ular turli xil g'oyalarni maksimal ravishda generatsiya qila oladilar.

Ushbu guruhlararo raqobatga asoslangan kooperativ usulda har bir shaxs o'z guruhiy qiziqishlariga mos ravishda yaxshiroq ishslash va ijodiy fikrlashga intiladi. Kooperativ usulda ta'limga berishga bag'ishlangan juda ko'p ilmiy izlanishlar mavjud bo'lib, ular ijtimoiy psixologiya sohasiga mansubdir. Kichik guruhlar dinamikasi o'rganish, uni maqsadga muvofiq ravishda tashkil etish, uni boshqarish, guruhlararo raqobat vaziyatini tashkil qilish o'qituvchidan o'ziga xos mahorat va bilimni talab qiladiki, bularsiz kooperativ usulda ta'limga berishni uyuştirish mumkin bo'lmaydi.

XXI asr global va bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan kompaniyalar, jamoalar hamda korporatsiyalar hosil bo'lishi va rivojlanishi davri bo'lib, ular bilan bog'liq ijtimoiy tuzilmalarda ishslash uning a'zolari orasida yuksak darajadagi kooperatsiya mavjudligini talab qiladi. Shuning uchun ham ko'pchilik insonlar kooperativ ko'nikmalarni rivojlantirishni ta'limga berishda muhim vazifalaridan biri deb biladilar. Ko'pgina ta'limga muassasalari kooperativ faoliyat turlariga ega bo'lib, ular sport, dramatik va musiqa to'garaklari, yoshlari ijtimoiy-siyosiy jamoalarini o'z ichiga qamrab oladi.

Kooperativ ta'limga berishda keltirilgan xususiyatlari va faoliyat turlari bilan xarakterlanadi:

– Talabalar mavzuga oid masala va muammolarni o'rganish (yoki xal qilish) uchun guruhlarda ishlaydilar.

– Guruhlar bilimi yuqori darajadagi, o'rta darajadagi yoki past darajadagi o'quvchilardan taskkil etilishi mumkin.

– Guruhlardagi o'quvchilar irqiy va jinsiy jihatdan aralash bo'lgani ma'qul.

– Bilim darajasini baholashda ko'proq individuumlarga emas, balki guruhlarga baho beriladi.

Kooperativ ta'lim usuli eng kamida uchta muhim maqsadlarga erishish uchun ishlab chiqilgan:

– **Akademik o'zlashtirish.** Kooperativ usulda ta'lim olishda yuqori bilim darajasiga ega bo'lgan talabalar pastroq darajadagi bilim darajasiga ega bo'lgan talabalar bilan bиргаликда ishlaydilar va tegishli materiallarni bиргаликда о'рганадilar. Bu esa past darajadagi bilim toliblari bilimlarining yuqori darajadagi bilim sohiblari bilimdonlik darajasiga tenglashuviga va bilim olishga bo'lgan ishtiyoqning ancha kuchayishiga olib keladi. Yuqori bilimli talabalar past bilimlilarga ko'rsatmalar va topshiriqlar berishi tufayli, ularni bilim olishga qiziqtiradilar. Bu esa ularning bir-birlariga bo'lgan ishonchini va o'zaro do'stlilikni rivojlantiradi.

– **Irqi va jinsiy munosabatlarni yaxshilash.** Kooperativ usulda ta'lim olishning ikkinchi muhim ahamiyati irqi, jinsi va kelib chiqishi qanday bo'lishidan qat'i nazar, guruh a'zolari birga ishlaydilar va buning oqibatida bir-birlariga mehr-oqibatli bo'ladilar, bir-birlarini yaxshiroq tushunadilar va keyinchalik bиргаликда ishlay olish fazilatlariga ega bo'ladilar.

– **Ijtimoiy ko'nikmalar hosil qilish.** Kooperativ usulda ta'lim olishning yana bir muhim jihatlaridan biri talabarning kooperasiya va birdamlik saboqlarini olishlaridir. Bular keyinchalik turli xil jamoalarda muvaffaqiyatli ishlashda qo'l keladigan eng muhim ko'nikmalar ekanligini hech kim rad eta olmasa kerak. Bu, ayniqsa, global jamoalar, firmalar va korporasiyalar jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda juda ham kerak bo'lgan ko'nikmalardir.

Kooperativ usulda ta'lim berishning **oltita asosiy fazasi** bo'lib, ularni qisqacha holda quyidagi jadvalda ifodalashimiz mumkin:

FAZALAR	Bajariladigan vazifa	O'qituvchining faoliyati
1-faza	Maqsadlarni aniqlash	O'qituvchi dars uchun rejalashtirilgan barcha maqsadlarni o'quvchilarga birmabir tushuntirib chikadi va darsni boshlaydi.
2-faza	Ma'lumotlar bilan ta'minash	O'qituvchi talabalarga og'zaki yoki yozma tarzda kerakli ma'lumotlarni aytadi yoki beradi.

3-faza	Talabalarni guruhlarga bo'lish	O'qituvchi talabalarga qanday qilib ishchi guruhlar tashkil qilishni tushuntiradi va guruhlarga nima ish qilish kerakligini bildiradi.
4-faza	Guruhlardagi ishga va masalani o'rganish jarayoniga ko'mak berish	O'qituvchi guruhlarga muammoni qanday qilib hal qilish kerakligi bo'yicha amaliy yordam beradi.
5-faza	Tekshirish	O'qituvchi guruhlarning o'z natijalarini taqdimot qilishlariga baho beradi va ular tayyorlagan materiallarni tekshiradi.
6-faza	Natijalarga baho berish	O'qituvchi guruhlarning va alohida o'quvchilarning mehnati va bilimiga munosib baho beradi.

Ushbu ta'lim usuli modelining bir necha xil variasiyasi mavjud bo'lib, ular quyida keltiriladi:

– **Biror-bir muammoni o'rganadigan talabalar guruhlarini tashkil qilish** – bunda o'qituvchilar talabalarga har haftada bir marta og'zaki yoki yozma ko'rinishda yangi akademik ma'lumotlar berishadi. Talabalar 4–5 o'quvchidan iborat guruhlarga bo'linadilar, guruhlarda yuqori, o'rtacha va past bilimli talabalar ishtiroy etishi kerak bo'radi. Guruhlarning a'zolari hal qilinishi kerak bo'lgan masala yoki muammoni oldin o'zlaricha, keyin esa guruh bilan bиргаликда bir-birlariga yordam bergen holda o'rganadilar. Bunda ular bir-birlariga maslahat berishlari, guruh muhokamalarida qatnashishlari, bir-birlariga savollar berishlari mumkin. Bundan tashqari, talabalar o'qituvchidan o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq bo'lgan individual maslahatlar, topshiriqlar, testlar yoki topishmoq (muammoli savol)lar olishlari ham mumkin. Kelishilgan vaqtida barcha guruhlar sinfda yig'ilib, o'z natijalarini taqdimot qiladilar va boshqa guruhlar bilan ma'lumot almashinadilar. Bu ularning jamoaviy usulda to'laqonli bilim olishlariga olib keladi.

– **Bo'laklab o'rganish usuli** – bunda sinfdagilar 4–5 nafar talabadan iborat geterogen guruhlarga bo'linadilar va akademik materiallar ularga matn ko'rinishida beriladi. Guruhdagi har bir talaba matnning bir qisminigina o'rganib kelish uchun mas'ul bo'radi. Keyin har bir talaba

o'zi mas'ul bo'lgan akademik materialning kerakli qismini guruhiga tushuntirishi kerak bo'ladi. Guruh a'zolari ushbu material bo'yicha bir fikrga kelganlaridan so'ng, ularning bittasi, eng bilimdoni (yoki guruhdan saylab olingani) material mazmunini sinf oldida taqdimot qiladi. Xuddi shu ish boshqa guruhlar tomonidan ham amalga oshirilganidan so'ng, o'qituvchi o'rganilayotgan material bo'yicha o'z xulosasini keltiradi. Bunda u albatta eng yaxshi guruh va eng bilimdon hamda faol talabalarini taqdirlashi kerak bo'ladi.

**Guruhiy tadqiqot usuli** – oldingi usullardan farqli ravishda, bunda talabalar kerakli mavzuni tanlashda va muammolarni o'rganishda faol ishtirok etishadi. Bunda o'qituvchi emas, balki talabalar mavzuni tanlash va uni o'rganishda yetakchi rolni o'ynaydilar. Bu usulni qo'llaydigan o'qituvchilar sinfni 5–6 kishilik geterogen guruhlarga bo'ladi. Guruhlar talabalarini juda ham qiziqtirgan alohida mavzular bo'yicha ham tuzilishi mumkin. Talabalar mavzuni tanlab bo'lganlaridan so'ng, uni har tomonlama o'rganadilar, kerakli ma'lumotlarni yig'adilar va barcha sinf oldida o'z natijalarini taqdimot qiladilar. Bu usulda ta'lim olishning quyidagi olti bosqichini ko'rsatish mumkin:

1. *Mavzuni tanlash* – talabalar umumiylar mavzudan bir qismini tashkil qilgan mavzuchalarni o'qituvchi bilan maslahatlashgan holda tanlab oladilar va bu mavzuchalarni o'rganish uchun har bir mavzucha uchun alohida tuzilgan guruhlarga bo'linadilar.

2. *Kooperativ rejlashtirish* – talabalar o'qituvchi yordamida birinchi bosqichda tanlab olingen har bir mavzuchani o'rganish uchun maqsadlar va masalalar ketma-ketligini tuzadilar.

3. *Mavzuchani o'rganish jarayonini amalga oshirish* – talabalar ikkinchi bosqichda tuzilgan reja asosida ish olib boradilar. Bunda o'rganish jarayoni turli xil xatti-harakatlar va malakani talab qiladi xamda talabaish mavzuni o'rganish uchun o'quv muassasasi ichidagi va uning tashqarisidagi turli xil manbalarni o'rganib chiqishlari kerak bo'ladi. O'qituvchi esa har bir guruhning nimalar bilan mashg'ulligini yaqindan tekshirishi va kerak bo'lganda ularga amaliy yordam berishi kerak bo'ladi.

4. *Analiz va sintez* – o'quvchilar uchinchi bosqichda olingen ma'lumotlarni tahlil qiladilar va baholaydilar hamda undan so'ng ushbu

natijalarni sinfdoshlariga qiziqarli va tushunarli tarzda taqdimot qilish (yoki tushuntirish) uchun rejalar tuzadilar.

5. *Muammoning echimini (yoki natijalarni) taqdimot qilish* – barcha (yoki vaqt etishmasa ba'zi) guruhlar sinfda o'zlarini tanlagan muammoli masalalar (yoki mavzuchalar) bo'yicha qiziqarli taqdimotlar qiladilar. Bunda taqdimot sinfdoshlar uchun juda qiziq va tushunarli bo'lishiga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi. Ushbu taqdimot jarayoni o'qituvchi tomonidan boshqarilib turilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

6. *Natijalarni baholash* – agar guruhlar bir mavzuga bag'ishlangan bir necha mavzuchalarni taqdimot qilgan bo'lsalar, o'qituvchi va talabalar har bir guruhning taqdimot jarayonini alohida baholashlari kerak bo'ladi. Ba'zi hollarda esa individual baholash amalga oshirish ham istisno etilmaydi, albatta.

### Kooperativ ta'lim usulini tashkil qilish tartiblari

Kooperativ usulda ta'lim olishda o'quv jarayoni demokratik holda tashkil qilinadi va bunda nimani o'rganish hamda qanday tartibda o'rganish talabalar tomonidan hal etiladi. O'qituvchi esa guruhlarni maqsadga muvofiq tarzda tashkil qilish va ularni boshqarishni ta'minlaydi, ammo talabalar guruhlararo muloqotni muttasil ravishda nazorat qilib turadilar. Kooperativ usulda ta'lim olish sermahsul, foydali va samarali bo'lishi uchun kerakli manbalar, kitoblar, qo'llanmalar va boshqa turdag'i o'quv materiallari sinfda, kutubxonada, o'qituvchilar xonasida, resurs markazida yoki ta'lim muassasasi media markazida etarli nusxalarda mavjud bo'lishi kerak. Talabalarning mavzularni o'rganishlari jarayonida Internetdan foydalana olishlariga ham imkon yaratish bu yumushlarning ajralmas tarkibi qismi bo'lishi kerak, albatta. Buning uchun o'qituvchi resurs markazi mutaxassislarini bilan yaqin ishchi va do'stona aloqalar o'rnatishi zarur bo'ladi.

Endi kooperativ usulda ta'lim olishda qo'llanishi mumkin bo'lgan ba'zi bir tartib va qoidalarni ko'rib chiqamiz

#### 1. Dars mavzusini tanlash.

Har qanday darsda bo'lgani kabi, bu usulda xam o'qituvchi o'quvchilar uchun mos bo'lgan, ular qiziqadigan va tushuna oladigan mavzuni tanlashi birinchi navbatdagi ishlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Chunki kooperativ model asosida ta'lim berish usuli talabalarning o'z-o'zini boshqara olishi, mustaqil ishlay olishi va faolligini talab qiladi. Agar o'qituvchi qiziqarli va o'quvchilar uchun ayni damda mos bo'lgan mavzuni topa olmasa, kooperativ ta'lim usuli muvaffaqiyatsizlikka uchrashi tayin bo'ladi. Ko'pincha keksa o'qituvchilar o'z tajribalaridan kelib chiqqan xolda qaysi mavzular va qaysi sinflardagi o'quvchilar kooperativ usulda ta'lim olish uchun mos yoki mos emasligini ayta oladilar. Bunday tajribadan yosh o'qituvchilar dars rejasini tuzishda foydalanishlari kerak, albatta. Ammo ular mavzularning kooperativ ta'lim berishga mutanosib ekanligini aniqlash uchun quyidagi savollardan foydalanishlari mumkin:

- Talabalar ushu ta'lim usuli haqida biladilarmi yoki o'qituvchi buni ularga kengaytirilgan holda tushuntirishi kerakmi?
- Rejallashtirilayotgan dars mavzusi guruh talabalarida qiziqish uyg'ota oladimi?
- Agar o'qituvchi tayyor matndan foydalansa, bu matn o'rganilayotgan mavzu haqida yetarli ma'lumot bera oladimi?
- Dars mavzusini bir qancha alohida bo'lakchalarga bo'lish mumkinmi va bu ish qanday amalgalash oshiriladi?
- Guruhiy tadqiqot usulida o'qituvchi har bir mavzucha bo'yicha etarli muammolar va topshiriqlar topib, talabalar ishini boshqarishda ko'rsatmalar bera oladimi?

## **2. O'quvchilar guruuhlarini tashkil kilish.**

Kooperativ ta'lim berish usulini rejallashtirishda ikkinchi muhim masala qanday qilib o'quvchilarning guruuhlarini tashkil qilish hisoblanadi? Albatta, bu masala o'qituvchilarning dars o'tkazishda o'z oldilariga qo'yan maqsadlari va o'quvchilarning bilim darajalari bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Guruhlarni tashkil qilishda juda ko'p imkoniyatlardan foydalanish mumkin. Lekin darsni rejallashtirish fazasida o'qituvchi ularning akademik ko'rsatkichlari, o'zlashtirish darajalari va ijtimoiy maqsadlarini bilishi yomon bo'lmaydi. Bularni bilgandan so'ng, guruhlarni mavzuchalarga mos va bir-biri bilan ijobiy raqobat qiladigan tarzda tuzish mumkin bo'ladi.

## **3. Kerakli materiallar va ko'rsatmalarni tayyorlash.**

O'qituvchi butun sinf oldida taqdimot qilishga tayyorlanayotganda eng asosiy masala og'zaki ravishda tushuntiriladigan va qiziqarli bo'lgan

materiallar topish hamda ularni sodda ravishda o'quvchilarga yetkazish usullarini ishlab chiqish hisoblanadi. Kooperativ usulda ta'lim berishda o'qituvchilar ko'proq og'zaki ma'lumot bersalar-da, bu ma'lumotlar matnlarda, jadvallarda yoki o'quv qo'llanmalarda yozma ravishda saqlab qo'yiladi. Agar o'quvchilarga o'rganish uchun biror-bir matn berilsa, bu matn ularga qiziqarli, tushunarli va bilim darajalariga mos bo'lishi kerak. Agarda o'qituvchi guruhiy tadqiqot usulini qo'llamoqchi bo'lsa, u talabalar guruhlarida o'rganilishi lozim bo'lgan materiallarni oldindan tayyoriab qo'yishi zarur bo'ladi. Quyida kooperativ ta'lim usulini rejallashtirishda o'quv muassasasi ko'rsatadigan yordam iloji boricha ko'proq bo'lishi va dars samarador o'tishi uchun nimalarga ahamiyat berish kerakligi keltirilgan:

- Darsdan kamida ikki hafta oldin kutubxonachi va resurs markazi mutaxassis bilan uchrashib, dars o'tkazish maqsadlarini ular bilan birgalikda ko'rib chiqish va ularning fikrlarini hamda bildirilgan yangi g'oyalalarini hisobga olgan holda bu mutaxassislardan yordam ko'rsatishni so'rash.
- Ushbu darsga aloqasi bor insonlar bilan dars g'oyasini, uning o'tkazilish vaqtini, kerakli materiallar va media vositalardan qachon hamda qanday qilib foydalanilishini kelishib olish.
- Agar multimedia vositalarning sinfda ishlatalishi ko'zda tutilgan bo'lsa, u holda kerakli mutaxassisni taklif qilish va u bilan hamkorlikda dars o'tish.
- Oldin kooperativ ta'lim usulini qo'llagan o'qituvchilardan kerakli bo'lgan maslahatlar olish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.
- Talabalar o'z rollarini va o'qituvchi ulardan nimalar kutayotganligini aniq va ravshan bilib, tushunib olishlari lozim.
- Talabalar dars jarayonida nimalar qilishlari kerakligi haqidagi ma'lumotlarni esa ularga quyidagi tartibda yozma ravishda bergen ma'qul:
  - Dars o'tkazish maqsadlari.
  - Guruhlarda ishlayotgan o'quvchilardan ularning ish jarayonida nimalar kutilishi mumkin.
  - Guruh uchun rejallashtirilgan har bir ish yoki uning bir qismi qachon tugallanishi kerakligi haqidagi ma'lumotlar.
  - Mavzular bo'yicha asosiy taqdimotlar qachon o'tkazilishi haqidagi ma'lumotlar.

- Baholash mezonlari – guruhlar va o‘quvchilar uchun alohida.
- Hisobotlar qanday ko‘rinishda taqdimot qilinadi (formati).

## 7. MAVZUNI TAQDIMOT QILISH VA TALABALARНИ TARTIBGA CHAQIRISH USULLARI

*«Bilimsiz yoki chalasavod farzand –  
yo‘qotilgan farzanddir».*

*Djon KENNEDI*

Ushbu bo‘limdagi taqdimot deb atalgan «reversiv» (ya’ni, o‘z-o‘ziga ta’lim berish) zamonaviy ta’lim usulining mohiyati shundan iboratki, bunda talaba biror-bir mavzuni mustaqil ravishda o‘rganib chiqib, sinfdoshlariga shaxsan o‘zi dars berishni amalga oshiradi. Bu jarayonni maqsadga muvofiq ravishda nazorat qilishni va boshqarib turishni esa o‘qituvchi shaxsan o‘z zimmasiga oladi. Agar do‘ppini yerga qo‘yib va diqqatni jamlab, atroficha fikrlasak, shu narsa ayon bo‘ladiki, o‘quvchi/talabalarga berilgan biror-bir mavzuni, ma’lumotni, yangilikni taqdimot (chiqish, prezентasiya, ma’ruza) qilish ham ularning bilim olishida juda katta ahamiyatga egadir. Chunki bunda talaba guruhdagi boshqa talabalar va ustozlar oldida yakka o‘zi so‘zga chiqishini hisobga olib, mavzuga har tomonlama va chuqur tayyorlanadi, mavzuga bog‘liq xilma-xil nozik masalalar haqida mulohaza qiladi va atroficha fikrlaydi. Taqdimot jarayonida o‘qituvchi ham talabalar bilan bir qatorda o‘tirib, ular singari fikrlashga va munozaralarda faol ishtirok etishga intilishi lozim bo‘ladi. Lekin u o‘zining obro‘-e’tibori va hurmati hamda talabalarning unga bog‘liqligidan foydalangan holda taqdimot marosimida etakchi rol o‘ynashga intilsa va talabalarga bu haqda doimo urg‘u berishga harakat qilsa, taqdimot marosimi sun‘ylashib, kutilgan maqsadlarga erishish ancha qiyinlashadi.

*Taqdimot jarayoni quyidagi asosiy qismlardan iborat bo‘lishi kerak:*

**1. Boshlash** – bunda tanlangan mavzu haqida, uning nima uchun ko‘rilayotgani, qanday bo‘limlardan tashkil topgani, uning boshqa mavzular bilan bog‘liqligi, amaliy va nazariy ahamiyati haqida qisqacha gapirib o‘tiladi.

**2. Mavzu rejası** – bunda mavzuni yoritishda qanday savollar ustida fikr yuritilishi, ularning mazmuni, tartibi va ketma-ketligi ko‘rib chiqiladi.

**3. Ma’ruza (mavzu ma’nosini yoritish)** – bunda talaba mavzu rejası asosida har bir savolni, tushunchani va muammoni atroficha yoritadi. Talabalarning bu ma’ruza davomida vujudga kelgan savollari javob berish (yoki bunga imkoniyat darajasida harakat qilish), diqqatga sazovor munozarali masalalar bo‘lsa, ularni batafsil ko‘rib chiqish ma’ruzaning qiziqarli, jonli va foydali bo‘lishiga olib keladi.

**4. Xulosa** – ushbu qismda ma’ruza davomida yoritilgan savollar, muammolar haqida qisqacha ma’lumotnomha beriladi, mavzu yuzasidan vujudga kelgan barcha savollarga imkoniyat darajasida to‘liq javob beriladi va bu bilan uzviy bog‘liq ma’ruzani yakunlaydigan boshqa masalalar ham xulosa sifatida ko‘rib chiqiladi.

**5. Taqdimotni baholashni** amalga oshirish. Bu bosqichda quyida misol tariqasida ko‘rsatilgan yoki boshqa turdagи mezonlar yordamida ma’ruzani baholash natijalari e’lon qilinadi. Bunda, masalan, quyidagi baholash darajalari (ko‘rsatkichlari) ishlatalishi mumkin:

<b>Boshlash –</b>	5 ball
<b>Mavzu rejası –</b>	10 ball
<b>Ma’ruza (mavzu ma’nosini yoritish) –</b>	20 ball
<b>Xulosa –</b>	10 ball
Umumiy ballar miqdori	45 ball
Qo‘sishma ballar	20 ball
<b>Jami ballar miqdori</b>	<b>65 ball</b>

Ushbu ballarni ma’ruzani baholash mezonlari sifatida ishlatalishda quyidagi asosiy ko‘rsatkichlarga ahamiyat berish kerak bo‘ladi:

a) **taqdimotning tegishli qismi mazmuni** – taqdim qilinayotgan bo‘limga tegishli ma’lumotlarning bo‘lim mohiyatiga mos kelishi;

b) **taqdimot qila olish qobiliyati** – tegishli bo‘lim taqdimotini tashkil etishdagi ma’ruzachining kasbiy mahorati;

d) **taqdimotning aniq va ravshan amalga oshirilganligi** – bunda taqdimotning tegishli bo‘limiga mos bo‘lgan fikrlarning aniq va mantiqiy ketma-ketlikda berilishi hisobga olinishi kerak bo‘ladi.

Taqdimotni baholash oldindan shakkantirilgan hay’at tomonidan amalga oshiriladi va bu hay’at a’zolari taqdimot paytida albatta hozir bo‘lishlari lozim. Ular, iloji bo‘lsa oldingi qatorda, alohida joyda o‘tirishlari va ularning taqdimotni baholashlari xolisona bo‘lgani maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ko'rsatilgan **yigirma ball** miqdoridagi qo'shimcha ballar taqdimot jarayonining, umuman, qanday o'tkazilgani bilan aniqlanadi va bunda quyidagilarga ahamiyat beriladi:

- Taqdimotga tayyorlanganlik ahvoli.
- Taqdimot paytida o'zini qanday tutganligi.
- Savollarga qanday javob berganligi.
- Tashkilotchilik madaniyati.
- So'zlash madaniyati.
- O'z fikrlarini tushuntira olish qobiliyati.
- Guruh bilan muloqot qila olish mahorati.
- Qo'l va gavda harakatlarining taqdimot qilinayotgan mavzuga mos bo'lishi.
- Kiyinish madaniyati.
- Yangi fikrlarga munosabati va topqirligi.

Ushbu har bir ko'rsatkichga 2 ballidan baho qo'yish amalga oshiriladi va ularning barchasi jamlanadi (ya'ni,  $2 \times 10 = 20$  ball).

Taqdimot so'ngida hay'at a'zolari taqdimotning qanday o'tganligi haqida xulosa sifatida ma'lumot beradilar, yuqorida sanab o'tilgan har bir ko'rsatkich bo'yicha taqdimot marosimini baholaydilar. Ma'ruzachining umumiyl bahosini unga va taqdimot marosimida hozir bo'lgan barcha ishtirokchilarga bildiradilar. Bunda, albatta, ma'ruzachining keyinchalik o'tkazadigan taqdimot marosimlarida nimalarga ahamiyat berishi kerakligi aniq va ravshan ko'rsatilishi hamda tushuntirilishi lozim bo'ladi. Marosim oxirida ma'ruzachining o'ziga so'nggi so'z beriladi va uning taqdimot marosimi hamda uni baholash haqidagi xolisona fikri eshitiladi. Uning bu chiqishi bilan bog'liq savol, fikr yoki mulohazalari bo'lsa, ular ham ko'rib chiqiladi va muhokama qilinadi. Bu odilona baholash va foydali maslahatlar ma'ruzachi – talaba malakasining va so'zlash madaniyatining kelajakdag'i rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lishi hech kimga sir emas. O'qituvchilar ko'pincha o'quvchi va talabalarni qanday qilib tartibga chaqirish ustida bosh qotiradilar. Ba'zi vaqtlarda bunday usullarni o'zları o'ylab topadilar, ba'zida esa boshqalarning tajribasidan foydalanadilar. Boshqa bir hollarda esa biror-bir chora ko'rishga ojiz bo'lib, bundan qattiq ruhiy azoblanadilar. Shuning uchun ham bu muammoning o'ta hayotiyligini hisobga olib, biz quyida uni hal qilishning bir qancha usullarini bermoqchimiz. Bu ishni amalga oshirish

qadam-baqadam ketma-ketlik sifatida berilgan bo'lsa ham hayotda ularning ba'zilari bir vaqtida amalga oshirilishi ham mumkin. Ushbu ketma-ketlik quyidagi asosiy bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin:

**1. Haqiqatan** ham, darsda o'quvchilar tinch o'tirmayaptilarmi, ya'ni, bu muammo mavjudmi yoki o'qituvchiga uning hayajonlanganligi yoki malakasi etishmaganligi uchungina shunday tuyulayaptimi. Balki bu sinf (guruh)dagi o'quvchilar darsni oldindan qizg'in munozara va muxokama vositasida o'tkazishga o'rgangandirlar. Balki o'qituvchi va o'quvchilarning dunyoqarashi yoki bilim darajasi bir-biriga mos kelmayotgandir.

**2. Agar haqiqatan ham** o'quvchi (talaba)lar darsda tinch o'tira olmayotgan va tartibsizliklar qilayotgan bo'lsalar, u holda buning asosiy sababini topishga harakat qilish. Ya'ni, «Mohiyatga, muammoning ildiziga, kelib chiqishiga diqqat-e'tiborni qarating». Chunki buning asosiy sababini bilsangizgina, muarnmoni to'g'ri hal qilishingiz mumkin, albatta. Busiz qorin og'rig'iga bosh og'rig'i dorisini ichayotgan bemor holiga tushib qolishingiz ehtimoldan xoli emas. Balki darsning sifati yo'qligi uchun o'quvchi (talaba)lar uni yaxshi tinglamayotgandirlar, balki bu o'tilayotgan mavzuni ular oldindan yaxshi bilib olgandirlar, balki dars o'tish usuli ularni qiziqtirmayotgandir, balki o'qituvchining gapirishi, nutq ohangi, o'zini tutishi, qiyinishi ularga yoqmayotgandir, balki ular darsni u juda ham murakkabligi uchun tushunmayotgandirlar, balki o'qituvchi biror-bir chalkashlikka yo'l qo'ygandir.

**3. Muammoni hal qilish** uchun harakat qilish. Agar o'quvchi (talaba) larning tartibsizligi kimmidir xayf-xatarga olib kelsa va boshqa kimsalarga biror-bir zarar yetkazishi mumkin bo'lsa, bu tartibsizlikni zudlik bilan to'xtatish kerak bo'ladi. Talabalarha jamoada o'zini tutish va muomala qoidalarini hammabop qilib eslatib qo'yish ham foydali bo'lishi mumkin. Agar bu ham yordam bermasa, biror-bir yomon xulq-atvori o'quvchi (talaba)larga tegishli jazo berish ham mumkin. Jazo berilmasa, o'quvchi (talaba)lar o'zlarini juda ham erkin tutib, tartibsizlikni davom ettirishlari aniq bo'ladi. Talabalar o'zlarining namunali xatti-harakatlari uchun yaxshi munosabat va tegishli mukofot hamda yomon xatti-harakatlari uchun munosib jazo muqarrarligini bilsalar, tartibsizlik qilishdan o'zlarini tiyadilar va o'qituvchiga munosabat ham tubdan o'zgaradi.

**4. Muammoning kelajakda qaytarilmasisligi** va talabalar undan to'g'ri xulosa chiqarib olishlari uchun hamda o'qituvchi bunga sabab

bo‘lgan shart-sharoitlarni keyinchalik bilib-bilmasdan yaratmasligi uchun tadbirlarning maxsus ketma-ketfigini ishlab chiqish va ularni hayotga izchil tatbiq qilish tartibsizliklarning oldini olish uchun katta xizmat qiladi. Bu tadbirlar sifatida, masalan, darsning samaradorligini tubdan yaxshilash, ta‘limning boshqacha noan’anaviy usullarini qo‘llash, interfaol pedagogik usullarni, muloqot va dialog usullarini ishlatish, talabchanlikni oshirish, o‘quvchi (talaba)larning noma‘qul chiqishlari va tartibsizliklarini nazardan qochirmaslik qo‘l kelishi mumkin. Ba‘zi paytlarda har bir sinf (guruh, auditoriya) uchun o‘ziga xos ta‘lim-tarbiya usullarini ishlatish ham yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin.

## 8. OMMAVIY CHIQISHLAR VA MA’RUZALARINI TASHKIL QILISH

«Aqli bo‘lish kifoya emas, muhim, aqlni ishlata bilishdir».

R. DEKART.

Albatta, ommaviy chiqishlar va ma’ruzalarning tashkil qilinishida auditorianing qiziqishlari hamda uning Siz bermoqchi bo‘lgan ma’lumotlarga ehtiyoji bor-yo‘qligini hisobga olish hayotiy ahamiyat kasb etadi. Chunki savdogarga oliv matematika haqida, qassobga astronomiya haqida yoki sotuvchiga fizika haqida gapirsangiz, Sizni batamom tushunmasidan tashqari, boshqa fikrga ham borishi mumkin. Bu borada bir yaxshi hikoya ham mavjud: Kemada ketayotganlardan biri boshqasidan «Matematikani bilasizmi?» – deb so‘rabdi. Sherigi esa «Afsuski bilmayman», – deb javob beribdi. «Bo‘lmasa chorak umringizni yo‘qtibsiz», – debdi yo‘lovchi. Bir muncha muddat o‘tgandan so‘ng u yana «Mantiqni bilasizmi?», – debdi. Sherigi yana «Bilmayman» deb javob beribdi. «Bo‘lmasa yarim umringizni yo‘qtibsiz», – debdi bilimdon kishi. Birozdan so‘ng u yana bir savol beribdi: «Fizikani bilasizmi?» Sherigi esa bunga javoban «Suzishni bilasizmi, azizim?», – deb so‘rabdi. Bilimdon inson esa «Afsuski, bilmayman», – deganida, sherigi «Bo‘lmasa butun umringizdan ajrabsiz», – deb uni suvga uloqtirib yuborgan ekan. Bundan xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, auditoriya ozgina bo‘lsa ham biladigan, bilishni xohlaydigan, tushunadigan va o‘rganishga

intiladigan sohalarda ma’ruza o‘qish yaxshi natijalarga olib keladi. Omma oldida maqsadingizni tushuntirishda esa quyidagilarga alohida ahamiyat berishingiz maqsadga muvofiqdir:

1. O‘z chiqishlaringizni shunday tashkil qilingki, barcha ishtirokchilar «Men buni xohlaymanmi?», «Menga bu kerakmi?» va «Men buni uddalay olamanmi?» degan savollarga ma’ruzadan so‘ng to‘la-to‘kis javob topa olishsin. Lekin ilk bor uchrashganingizda yoki birinchi ma’ruzada juda ham tugal ma’lumot bermang, chunki ular hali bunga tayyor emaslar. Ma’lumotni berishda o‘z obro‘-e’tiboringizga alohida urg‘u berish tufayli Siz bilan muloqot qiluvchilarni noqulay ahvolga solib qo‘ymang. Hamma ham Siz singari bilimli, aqli va omadli bo‘lish mumkinligini his qilsin hamda «Men shubhasiz buni tushuna, o‘zlashtira va qila olaman!» degan qat’iy xulosaga kelsin.

2. Uzluksiz ma’ruza qilish bo‘laklarining juda ham uzoq vaqt davom etishi maqsadga muvofiq emas, uning Sizdan ma’ruza eshituvchilar kutgan vaqt hajmida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Agar buning iloji bo‘lmasa, eng ko‘pi bilan 25–30 daqiqalik ma’ruza qilgan ma’qul. Keyin biror-bir faol va o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq tadbir (bu turdagи bir qancha tadbirlar ilovada keltirilgan) o‘tkazish lozim. O‘quvchi (talaba)larning charchog‘i tarqaganidan so‘ng, ma’ruzani yana davom ettirish mumkin. To‘xtovsiz va juda ko‘p vaqt davom etgan ma’ruza (tadbir) insonni charchatib, uning ma’lumotlarni to‘g‘ri qabul qilishiga monelik qiladi.

3. O‘z chiqishlaringizni quyidagi reja asosida uyushtiring:

- Kirish.
- Nima to‘g‘risida gapirishingiz kerakligi haqida so‘zlab bering.
- Asosiy qismida kerakli ma’lumotlarni bering.
- Xulosa qismi.
- Nega bu haqda gapirganiningizni tushuntirib bering.

4. Doimo ma’ruzangizning asosiy maqsadini nazardan qochirmang. Chalg‘imasdan va qat’iyat bilan faqat o‘sha yo‘nalishda harakat qiling. Aks holda fikr tarqoqligi yuzaga keladi va o‘zingiz ham, o‘quvchi (talaba, tinglovchi) ham mavzudan chetga chiqib ketishi mumkin.

5. Birinchi o‘n daqiqada mavzuga oid yangi ma’lumotlar va fikrlar bering, keyingi o‘n daqiqada bu ma’lumotlar bilan bog‘liq ijobjiy va salbiy imkoniyat (sharoit, dalil, konsepsiya, hodisa)larni tushuntirib, uni

Sizni eshituvchilar qiziqishlari (intilishlari, talablari) bilan solishtiring. Oxirgi o'n daqiqada yuqorida gapirganlaringizdan xulosa chiqaring va hodisalarning keyinchalik rivojlanish yo'nalishini imkoniyat darajasida ko'rsating.

6. Xulosa sifatida albatta tinglovchilardan nima xohlayotganingizni eslatib qo'yishni yoddan chiqarmang.

7. Qog'oz (daftar, kitob)ga qaramasdan ishonch bilan, berilib gapiring.

8. Ko'proq «Siz» va «Bizlar» deb gapiring, chunki bu tinglovchilarning hurmatini qozonishga olib keladi. «Men»ni kamroq ishlating, chunki bu auditoriyaning Sizga nisbatan qarama-qarshi ta'siroti (reaksiyasi) ga sabab bo'lishi mumkin.

9. Esingizda qolsin – ommaviy chiqishlarning taxminan 80 foizi o'zingizning kimligingiz haqida tinglovchilarga ma'lumot berishdir. Chiqishingiz muvaffaqiyatining faqatgina 20 foizigina Sizning so'zlayotgan gappingiz ma'nosi bilan bog'liq, 40 foizi esa ovozingiz, intonasiya va so'zlash ritmingiz bilan va nihoyat 40 foizi gavda harakatlaringiz (ya'ni, bosh harakati, qo'l va oyoq harakati, ko'zlar holati) bilan aniqlanadi.

10. Gapirayotganda intonasiyani va jestikulyasiyani asosiy fikrlarga urg'u berish uchun ishlatishga harakat qiling.

11. Auditoriyada ko'proq harakat qiling, jonsiz predmetday sinfda yoki tribunada qotib turmang.

12. Ma'ruzangizda vizual qo'llanmalarni ishlatishga harakat qiling. Masalan, chizmalarni, grafiklarni, plakatlarni, slaydlarni, video va audio materiallarni ishlatish yaxshi natijalarga olib keladi. Lekin ularning ishlatilishini xonaning katta-kichikligi va odamlar soni bilan mutanosib ravishda amalgalashiring.

13. Quyidagi qoidani ishlatishingiz mumkin: «Har bir asosiy fikrga bitta ko'rsatu».

14. Menga hech kim bermaydi, deb o'yagan savollaringizga albatta javob tayyorlab keling, chunki Sizga ko'pincha xuddi shu savollar berilishi mumkin.

15. Agar berilgan savollarga javoblarni bilmasangiz, uni bilaman deb ko'rsatishga aslo harakat qilmang. O'ylab ko'rib, ma'nosiga etganiningizdan so'ng javob berishingiz haqida tinglovchilarga va'da bering yoki «Javobini quyidagi sabablarga ko'ra bilmayman» deb rostini aytинг.

Javobning oxirida o'z fikringizning qanday ekanligini quyidagicha qilib qo'shib qo'ysangiz ham bo'ladi: «Lekin men bu haqda quyidagilarni ayta olaman . . . . .»

16. Bo'lajak ma'ruzangiz rejasini tuzing va ommaviy chiqishdan oldin uni biror-bir kimsaga ko'rsating yoki shu sohada ishlovchi biror-bir kimsa bilan atroflicha muhokama qiling.

17. O'z ma'ruzangizni video yoki audioga yozib oling yoki kichikroq bir guruh oldida chiqish qiling va uni tanqidiy ravishda muhokama qilishga yoki fikrlashga erishing.

18. Ma'ruzadan oldin juda ham to'yib ovqat emang, chunki bu miya faoliyatini sekinlashtirib, yorqin, chuqur va atroflicha fikrlashga xalal berishi mumkin.

## 9. INTERFAOL VA SAMARADOR DARS REJALARINI TUZISH

«Belgi bo'lsa, odam yo'ldan,  
aql bo'lsa, so'zdan adashmaydi».

Mahmud KOSHG'ARIY

Har qanday samarador bo'lish da'vosini qilishi mumkin bo'lgan dars rejasи, u ma'ruzami, amaliy darsmi yoki boshqa biror-bir xilga mansubmi – to'rt asosiy elementni o'z ichiga qamrab olishi lozim:

- Qiziqtiruv – motivatsiya.
- Taqdimet – prezentsiya.
- Amaliyat – praktika.
- Natija – o'zlashtirish darajasini tekshirish.

Ushbu to'rt asosiy element o'qituvchiga katta imkoniyatlar yaratib, talabalar bilan bevosita muloqot qilishga yordam beradi va ularga bilim berishdagi an'anaviy usullardan farqli o'laroq, darsda o'quvchilarning faol ishtirot etishni ta'minlab beradi. Bunda talaba va o'quvchilar biror-bir mavzuni o'rganishning to'rt bosqichdan iborat o'ziga xos sikli bo'ylab harakat qiladilar. Uning birinchi bosqichida o'qituvchilar talabalarning bilim olishlarini qattiq nazorat qiladilar, keyin esa ularga erkin muhitda bemalol harakat qilishga va fikr almashinishga imkon beradilar. Yuqorida aytib o'tilgan to'rt bosqichning mohiyatini quyidagicha ta'riflash mumkin:

## **Qiziqtiruv – motivatsiya**

Dars rejangizning ushbu qismida Siz o'quvchilaringiz bilan dars mavzusiga bog'liq bo'lgan shunday qisqa bir o'yin yoki tadbir o'tkazasizki, bu ularning diqqatini tortsin va mavzuni o'rganish uchun qandaydir qiziqish (stimul) yaratsin. Bu bosqichning davomiyligi ko'pincha 4–5 daqiqa atrofida bo'lishi va uning o'rganilishi lozim bo'lgan mavzuga mos kelishi katta ahamiyatga egadir.

## **Taqdimot – prezentatsiya**

Dars rejasining bu qismi yangi mavzu bilan bog'liq yangi materiallar berish yoki mavzuning bir qismi bilan bog'liq ma'lumotlar, dalillar, qoidalar taqdim etish faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Bunda asosiy maqsad talabalarningizning bilgan narsalarini asos qilib olgan holda bilmaganlari haqidagi bilimlari darajasini oshirishdir. Agar Siz oldingi darsda o'tilgan materiallarni qaytaradigan bo'lsangiz, ularni bu safar yangi ijodiy nuqtayi nazardan yoritishingiz lozim bo'ladi.

## **Amaliyat – praktika**

Darsning ushbu qismida Siz talabalarning oldingi bosqichda olgan bilimlari asosida ularni amaliy fikrashga o'rgatish, nazariya bilan amaliyotning qanday bir-biriga bog'liqligini namoyish qilish, nazariya asosida ma'lum bir qoidalar majmuasini birlashtirish yoki ularga bularni yorqin misollar vositasida o'rgatishni amalga oshirish lozim bo'ladi. Bunday turfa xil amaliy mashg'ulot turlarini darsdan oldin tayyorlab kelishingiz maqsadga muvofiqdir. Siz dars jarayonida talabalarning bajarayotgan ishlarini diqqat bilan kuzatishingiz, yangi ma'lumotlarning to'g'ri o'zlashtirilayotganiga ahamiyat berishingiz va amaliyot bilan nazariyaning bir-biriga qo'pol ravishda qarama-qarshi kelib qolmasligiga e'tibor berishingiz zarur. Agar shunday bo'lib qolsa, buning sabablarini aniqlab, talabalarga atroficha tushuntirishingiz kerak.

## **Natija – o'zlashtirish darajasini tekshirish**

Mavzuning yangi o'rganilgan materiallarini talabalar bilan muloqot qilgan holda muhokama qilish va bu jarayonga ularni iloji boricha ko'proq jalb qilish yaxshi natijalarga olib keladi. Agar biror-bir qoida, dalil,

qonun, ko'rsatkich yoki tartibot talabalarga tushunarsiz bo'lib qolgani ma'lum bo'lib kolsa, bularni tushuntirishga harakat qilish va ularning tub mohiyatni anglaganliklarini his qilish. Talabalar ushbu bosqichda Siz bergen g'oya, fikr yoki nazariyaning asosiy jihatlarini o'zlashtirib olish uchun qulay imkoniyat olishlari lozim. Bu esa tamomila Sizning malakangiz, dars rejangiz va qolaversa, uslubiyatingizga bog'liq.

Yuqorida ko'rib o'tilgan bosqichlarning ma'nosi va mohiyatini quyida, iqtisodiyot fanidan dars berish rejasini tuzish jarayonida batafsilroq ko'rib chiqamiz.

## **Qiziqtiruv – motivatsiya**

Maqsad	Talabalarning darsga qiziqishini oshirish va ularga ta'lif olish uchun qulay ma'naviy-ma'rifiy sharoit yaratish.
Faoliyat turlari	Shaxsiy kuzatuv yoki tajribalar muhokamasi. Qiziqarli iqtisodiy jarayonlar haqida ma'lumot berish. Iqtisodiy matnlarni ovoz chiqarib o'qish Iqtisodiy muammoni yoki holatni muhokama qilish. Iqtisodiy haqida erkin bayon yozish. Iqtisodiy muammolar borasida erkin suhabat. Xilma-xil turdag'i iqtisodiy ruhdagi o'yinlar.
O'qituvchining roli	Boshqaruvchi yoki rahbar sifatida.
O'zaro munosabat turi	O'qituvchi – Talaba. Talaba – Talaba.
Nazorat darajasi	Faoliyat turiga qarab, nazorat orqali yoki erkin holda.
Xatolarni to'g'rilash	Hech qanday tuzatilishga yo'li qo'yilmaydi va natijada talabalar o'zlarini erkin his qildilar.
Qancha muddat va darsning qaysi qismida	Qisqa vaqtida. Ko'pincha dars boshida.

## **Taqdimot – prezentasiya**

Maqsad	O'quvchilarga iqtisodiyotni o'rganishning foydaliligini va zarurligini tushuntirish. Iqtisodiy atamalarining ma'nosini va ifodalananish usullarini ko'rsatish.
--------	---

Faoliyat turlari	Talabalar iqtisodiyotda qo'llaniladigan tushunchalarni qaytaradilar. Ma'ruza va uni yozib olish. Iqtisodiy atamalarning mohiyati tushuntiriladi. Iqtisodiy matnni o'qish. Diktovka qilish.
O'qituvchining roli	An'anaviy ravishda ma'lumot berish.
O'zaro munosabat turi	O'qituvchi – talaba birgalikda. Talaba – talaba bilan alohida.
Nazorat darajasi	Qat'iy nazorat, o'qituvchi alohida ahamiyat kash etadi.
Xatolarni to'g'rilash	O'qituvchi uchun o'quvchilarning xatolarini to'g'rilash va kerakli tushuntirishlar berish alohida ahamiyat kash etadi.
Qancha muddat va darsning qaysi qismida	Qisqa. Ko'pincha darsning boshida.

### Amaliyot – praktika

Maqsad	Iqtisodiyotni o'rganish muhitida boshqariladigan amaliyotni ta'minlash. Iqtisodiyotni tushunishda o'z-o'ziga ishonch muhitini yuzaga keltirish.
Faoliyat turlari	Tayyorlanish. Savol-javoblar. Ma'lumot berish va fikr almashinish. Ko'p variantli tanlov. Mos iqtisodiy atamalarni topish. Yozma ravishda iqtisodiy tushunchalarni ifodalash. O'rganilayotgan mavzuga mos ravishda nimanidir bajarish.
O'qituvchining roli	Boshqaruvchi va to'g'rilovchi.
O'zaro munosabat turi	O'qituvchi – talaba. Talaba – talaba.
Nazorat darajasi	Nazorat amalga oshirilgan sharoitda. O'quvchilarga chegaralangan imkoniyatlar beriladi.
Xatolarni to'g'rilash	O'qituvchi, o'quvchi yoki o'z-o'zini to'g'rilash.

Qancha muddat va darsning qaysi qismida	O'quvchilarning talabalariga bog'liq ravishda. Taqdimot bilan tugallanishi lozim yoki tekshirib ko'rishi kerak.
---	--

### Natija (o'zlashtirish darajasini tekshirish)

Maqsad	O'quvchilarga iqtisodiyotni erkin muloqot sharoitida yaratuvchanlik bilan o'rganishlariga sharoit yaratish. O'rganish jarayonini tekshirib turish. Iqtisodiyotdagi tushunchalar va so'zlarni boshqalari bilan bog'lash.
Faoliyat turlari	O'yinlar. Yozma ish. So'zga chiqishlar. Rol o'ynash. Guruhi ish bo'yicha hisobot berish. Intervyular o'tkazish. Plakatlar chizish. Ko'rsatma yoki stendlar qilish.
O'qituvchining roli	Maslahatchi, ishga qiziqish uyg'otadigan.
O'zaro munosabat turi	O'quvchi-talaba (juftliklar, guruhlar, tasodify yoki qiziqishlar bo'yicha kichik guruhlar).
Nazorat darajasi	Erkin ravishda.
Xatolarni to'g'rilash	Asosan o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi va bunda aralashuv minimal ravishda bo'lishi lozim.
Qancha muddat va darsning qaysi qismida	Qanday ish amalga oshirilayotganiga bog'liq. Taqdimotdan so'ng yoki amaliyot tugaganidan keyin. Bir dars yoki bir necha darslar davomida.

Endi faraz qilaylik, Sizga kimdir qandaydir iqtisodiy yoki boshqa yo'nalishdagi dars rejasini tayyorlab olib keldi: *Uning samaradorligini va foydalilik darajasini tekshirish qanday amalga oshiriladi?*

Bu ishni amalga oshirish uchun quyida keltirilgan tartibda ishlasak va fikr yuritsak, yaxshi natijalarga erishishimiz mumkin.

Dars rejasini tekshirish ketma-ketligi:

– Dars jarayonida ishlatalayotgan material va o'rganilayotgan mavzu uning real hayotda qo'llanilishiga mos keladimi yoki yo'qmi?

– Talabalar Sizning darsingizdan qoniqish hosil qildilarmi? Agar bunday bo'lmasa, ularni qiziqtirish uchun Siz nima qilmoqchisiz?

– O'rganish sikli bilan bog'liq savol: Sizning rejalashtirgan darsingizda nazorat qilinishda erkinlikka qarab yo'nalgan harakat mavjudmi?

– Sizning darsingizda motivatsiya qilinishga, taqdimotga, amaliyotga va natijaga bag'ishlangan faoliyat turlari bormi?

– Darsning natijaviy tashkil etuvchi qismlari talabalarga ular nima deyishlari va qanday qilib gapireshlari haqida ma'lumot bera oladimi?

– Darsdagi ko'rsatmalarining va vazifalarning bajarilish tartibini talabalaringiz aniq tushuna oladilarmi?

– Dars tadbirlari talabalarning birgalikda ishlashi, fikr almashishi va o'qituvchi bilan bemalol muloqot qilishiga imkon yaratadimi?

– Sizda darsda ishlataladigan iqtisodiy atamalarning aniq ma'nosibormi?

– Siz qaysi iqtisodiy masalalarni ularga o'rgatmoqchisiz va qanday qilib?

– Darsda o'qish, yozish, gapiresh va tinglash kabi malakalarni rivojlantirishga ham imkon beriladimi?

– Dars Sizning guruhingiz uchun juda osonmi yoki juda ham murakkabmi?

– Siz o'z sinf tadbirlaringizni oddiy sharoitlarda va berilgan vaqt doirasida o'tkaza olasizmi?

– Agar vaqtinuz ko'proq bo'lsa, yana nimalar qilardingiz?

– Darsda madaniy-ma'naviy jihatdan mos kelmaydigan materiallar va ma'lumotlar mavjudmi? Agar shunday bo'lsa, Siz nima qilishni rejalashtirayapsiz?

– Uy vazifikasi berishni rejalashtirganmisiz?

– Dars vaqtida o'quvchilarni qiziqtirish uchun yana nimalar qilmoqchisiz?

Ushbu savollar majmuasiga rioya qilinsa, har qanday fanga oid bo'lgan dars rejasini ham to'la tekshirib, unga ma'lum bir ma'nodagi qo'shimcha rivojlantiruvchi elementlar qo'shish mumkin bo'ladi.

## 10. INTERFAOL DARS O'TKAZISH JARAYONIDA ISHLATALADIGAN TADBIRLAR

«Dars ma'nosiga to'g'ri kelmaydigan  
har qanday salbiy harakat  
ta'lim olishni murakkablashtiradi».

Ta'lim psixologiyasi

«**Muzyoralar**» dars o'tilayotgan guruhda o'quvchilar befarqligining oldini olishga va dars jarayonida hosil bo'lgan charchoqni yoki talabalarga ruhiy bosim (ta'sir) bo'lishining oldini olishga mo'ljallangan ma'lum bir xildagi faol faoliyat turlaridir. Demak, ular sinfda yuzaga kelgan «muzlash» ning oldini olish va agar bunday «muzlash» hosil bo'lgan bo'lsa, uni «yorib yoki eritib yuborish» uchun ishlatalishi mumkin. Ko'pgina o'qituvchilar «muzyorar»larni ta'limning boshlang'ich bosqichidagiga ishlatajilar, lekin uni xuddi shunday muvaffaqiyat bilan dars davomida, o'quvchilar bilan yoki o'quvchilararo muloqot ma'lum bir sabablarga ko'ra qiyinlashganida ham ishlatalish mumkin. Masalan, o'quvchilar o'z millatlari, ish joylari, jinslariga bog'liq ravishda doimiy guruqlar tuzib olganlarida, ularni maqsadga muvofiq ravishda o'zgartirish uchun ham «muzyorar»lar muvaffaqiyatli ravishda qo'llanilishi mumkin. Ba'zi turlarga oid «muzyorar»lar talabalarning bir-birlari bilan tanishishlariga mo'ljallangan bo'lib, guruhlardagi shaxslarning bir-birlariga savol berishlarini, ularning o'qish va ish sharoitlari haqida o'zaro ma'lumot olishlarini, nimani yoqtirishlari haqida mulohaza qilishlarini va hokazolarni o'z ichiga qamrab oladi. Buning sababi shundaki, o'quvchi, talaba yoki tinglovchilar darslarning boshlanishida bir-birlarini unchalik yaxshi bilmaydilar va ular orasidagi muloqot unchalik yaxshi yo'lga qo'yilmagan bo'ladi. Shu sababli, ular orasidagi «muzdek» aloqani qandaydir usullar bilan eritib, do'stona va iliq munosabatlar o'rnatish lozim bo'ladi, aks holda yuqorida zikr qilingan holatlar ta'lim berish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Demak, «muzyorar»lar tashkil qilishda guruhni yaxshi bilish va uni guruhdagi talabalar xususiyatlariga imkoniyat darajasida moslashtirish zarur bo'ladi, aks holda noqulay ahvolga tushib qolish ham ehtimoldan xoli emas.

*Masalan, quyidagi turdag'i o'mmaviy tadbirlar «muzyorar» larga misol bo'la oladi:*

1. Guruhdagi o'quvchilarga doira shaklida turish so'raladi va ularning bir-birlariga kichkina va yumshoq koptokchani (yoki buyumni) ularning nomlarini aytgan holda otilishi tashkil qilinadi. O'quvchilar bir-birlarining nomlarini yaxshi bilib olganlaridan so'ng, otish tezligini birmuncha oshirish ham mumkin bo'ladi.

2. Guruhdagi o'quvchilarga o'zlarining familiyalarini yoki ismlarini alfavit bo'yicha tartiblab chiqishni topshirish va bir joyda tug'ilganliklarini aniqlash ularning o'zaro tanishishlariga turtki bo'ladi.

3. Barchaning nomini kichkina kartonlarga yozgan holda, ularni bir savatchaga solish va har bir o'quvchi uni savatchadan tasodifiy ravishda tanlab olganidan so'ng, o'sha nomli o'quvchini topishi ham tanishish jarayonini ancha tezlashtiradi.

**«Kuchaytirgichlar»** yoki **«Aktivator»**lar shunday bir turdag'i darsni faollashtirish tadbirlariki, ular o'quvchilarning faolligini va ta'lim bilan uзви bog'liq xatti-harakatlarini ma'lum darajada hamda ma'lum vaqtida kuchaytirish uchun qo'llaniladi. Ular dars jarayonining har qanday qismida ham muvaffaqiyat bilan qo'llanilishi mumkin, ammo dars davomida uch martagina qo'llash yaxshi natijalarga olib keladi va bu pirovard natijada o'quv jarayonining mahsulдорligini sezilarli ravishda oshiradi. Ularning qo'llanilishi ayniqsa quyidagi paytlarda maqsadga muvofiqdır:

– ovqatlangandan so'ng o'quvchilarning mudroq kayfiyatini uyg'otish uchun;

– dars paytidagi qahva yoki choy ichish uchun ajratilgan qisqa tanaffuslardan so'ng;

– dars uzoq muddat davom etib, talabalarning ko'pchiligi mavzu bo'yicha bilim olishdan sezilarli ravishda charchaganliklari bilinib qolgan taqdirda.

Ushbu tadbirlarning tub ma'nosi nafaqat o'quvchilarning faolligini oshirish, balki quyidagilar sababli tufayli hamdir:

– talabalarning tegishli mavzu bo'yicha ta'lim olishga tayyorgarlik darajasini sezilarli ravishda oshirish uchun. Masalan, u yoki bu sabablarga binoan o'quvchilarning passivlik darajasi yaqqol ko'rinish turganida, ularning ba'zilari yoki ba'zi bir guruhalr umumiy guruhda dars o'tishga

salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ayon bo'lib qolganda, talabalarning bir qanchasi esnashni boshlaganda, bunday usulni qo'llash yaxshi natija beradi (ha aytganday, balki o'zingizga ham esnash kelib qolgandir);

– darsga nisbatan qiziqish uyg'otish va uning qiziqrilik darajasini oshirish uchun. O'qituvchi dars berayotganida unga o'quvchilarning qiziqishi uchun, avvalo, uning o'zi darsga qiziqish bilan yondashishi lozim. Kuchaytirgichni o'zingiz berilib va qiziqkan holda tashkil qilsangiz, bu ularda ham ijobjiy emosiyalarni uyg'otadi. Bevosita ta'lim ko'proq bolalarda katta qiziqish uyg'otadi, katta yoshdagilarni esa amaliy va hayotdan olingan misollar bilangina qiziqtirish mumkinligini zinhor yodingizdan chiqarmang;

– tashqi muhitning ta'sirini va oqibatlarini iloji boricha kamaytirish uchun. Masalan, kunning uzunligi, darslarning haddan tashqari cho'zilib ketganligi, issiq xonalarda ta'lim olish, toza xavoning etishmasligi, dars materialining qiyinligi va uni o'zlashtirishdagi murakkabliklar o'quvchilarda dars materialiga befarqlikni yuzaga keltirishi mumkin. Demak, kuchaytirgich ishlatalishdan maqsad – o'quvchilarni bu holatdan chiqarish yoki imkoniyat darajasida «uyg'otishdir»;

– ta'lim olish jarayonidan qoniqtirish va xursandlik holatini yuzaga keltirish. Qiyin mavzulardan dars berganda, kuchaytirgichlar orqali uni qiziqrili qilishingiz va o'quvchilarda ma'lum ma'noda uyg'onish hosil qilishingiz mumkin, chunki bunda Siz qynalishingiz mumkin bo'lgan sharoitdan muvaffaqiyatli chiqib ketish yo'lini topdingizgina emas, balki, umid qilamizki, o'quvchilarni kuldira ham oldingiz.

Kuchaytirgichlar sifatida xilma-xil xatti-harakatlar yoki o'yinlar ishlatalishi mumkinki, ular guruh va mavzu tabiatiga mos kelsin. Ba'zi kuchaytirgichlar raqobat muhitini yuzaga keltirishi, ba'zilar esa «regressiv» harakatlardan iborat bo'lib, yoshlikni eslatishi va ba'zi birlari yaratuvchanlikni talab qilishi mumkin. Bu ularning fikrlash jarayonini ochiq va erkin qiladi, yangi g'oyalar yaratishga olib keladi va ulardag'i foydali ma'lumotlar miqyosini ancha oshiradi. Misol sifatida quyidagi kuchaytirgichni berishimiz mumkin:

Guruhdagi talabalar doira bo'lib turadilar va har birining o'z raqami bo'ladi. Ularning biri markazda turadi va o'zinikidan farkli bo'lgan ikki raqamni aytadi. Bu raqamlarga tegishli bo'lgan ikki o'quvchi joylarini almashishlari lozim, lekin ularga buni bajarishda markazda turgan talaba

halaqit berishi mumkin, chunki u ham shu joylardan biriga turib olishga harakat qiladi. Joy ololmay tikka turib qolgan o'quvchi markazda qoladi va endi u markazda turib, yana ikki shaxsning raqamini aytadi va hokazo. Har bir bilimli va mavzuning asl mohiyatini tushunadigan o'qituvchi hech bir qiyinchiliklarsiz «kuchaytirgich»larning xilma-xil, qiziqarli va turfa turlarini o'yab topishi mumkin. Lekin xilma-xil «aktivator»larni qo'llaganda doimo ta'lif berishning maqsadi nafaqat qiziqarli vaqt o'tkazish, balki talabalarga tegishli bilim berish kerakligini ham hech qachon yoddan chiqarish kerak emas. Ba'zi paytlarda bu aktivatorni ishlatish o'quvchilarning yashash va hayot sharoitiga mos kelmasligi hamda kerak bo'lmagan paytlarda o'tkazilishi salbiy natijalarga ham olib kelishi mumkin. Demak, ularning turini va ishlatilish vaqtini puxta o'yab va ehtiyojkorlik bilan amalga oshirish lozim. Masalan, ba'zi bir fizik harakatlar qilish bilan bog'liq bo'lgan aktivatorlarni ishlatishda, uni bu dars xonasida bajarish mumkinmi, tashqarida bajarishga ham imkoniyat bormi, o'quvchilar uni bajara oladilarmi, ushbu tadbir ba'zi bir talabalarning salbiy reaksiyasini keltirib chiqarmaydimi va hokazo kabi masalalarni o'rganib chiqish foydadan xoli bo'lmaydi. Ba'zi talabalar (*ayniqsa, katta yoshdagilar*) ba'zi bir aktivatorlarni bema'ni narsa deb qabul qilishlari ham mumkin. Bu esa, o'z navbatida, auditoriya talab va takliflarini ham hisobga olishni asosiy omilga aylantiradi, aks holda o'qituvchi yaxshilik qilaman deb, noqulay ahvolga tushib qolishi ham mumkin. Bu borada «yaxshilik qilayapman» deb o'ylash qabilidagi bir hikoyatni ham keltirishimiz ham mumkin: Bir obro'li ruhoniy kasblarga baho berganda, eng yomon kasb deb shifokorlikni tanlagan ekan. Undan nima uchun bunday deysiz, deb so'raganlarida, u bunday deb javob bergen: «*Alloh insonlarga ularning qilgan gunohlari uchun jazo beradi, shifokor esa doimo bunga xalaqit berib, ularni gunohlari uchun yuborilgan jazodan forig' qilishga va qutultirishga intiladi*».

Endi yuqoridaq aytganlarimiz tushunarliroq bo'lishi uchun bisotimizdagi ba'zi bir o'yinlar, kuchaytirgichlar, muzyoralar va aktivatorlardan misollar keltiramizki, Sizga ularning mohiyati kunday ravshan va ayon bo'ladi-qoladi:

**O'yin nomi:** «*Maqollar o'yini*».

**O'yin turi:** Faollashtiruvchi (Aktivator).

**Maqsad:** O'quvchilarning bir-birlarini yaxshiroq tanib olishlari uchun.

**Vaqti:** 20–30 daqiqa.

**Guruh kattaligi:** Xohlagancha kattalikda.

**Ishlatiladigan materiallar:** Maqollar yozish uchun qog'oz bo'laklari va guruh uchun yetarli bo'lgan maqollar turkumi.

**Amalga oshirilishi:**

Qatnashuvchilarning har biriga maqolning yarmi yozilgan qog'oz bo'lagi berilib, uning qolgan yarmini topish va yozish topshirig'i beriladi. Ular maqolning keyingi qismini biladigan shaxsni o'quvchilar orasidan topishlari lozim bo'ladi. Bunday qatnashuvchi topilganidan so'ng ular bir-birlarini yaxshiroq bilish uchun bir qancha vaqt suhabatlashadialr. Keyin ular katta guruhga maqolni to'laligicha aytib berishlari lozim bo'ladi.

**O'yin nomi:** «*Haqiqat va yolg'on*».

**O'yin turi:** Faollashtiruvchi (Aktivator).

**Maqsad:** Tegishli mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimlarini yanada oshirish.

**Vaqti:** 10–15 daqiqa.

**Guruh kattaligi:** Xohlagancha.

**Ishlatiladigan materiallar:** O'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan mavzu bo'yicha har bir talaba uchun qog'oz bo'lagida yozilgan hamda iloji bo'lsa mavzu bilan bog'liq bitta rost va bitta yolg'on misol, dalil, fakt, qoida, ko'rsatkich, so'z yoki misol beriladi.

**Amalga oshirilishi:**

O'qituvchi har bir talabaga ma'lumotlar yozilgan qog'oz bo'laklarini tarqatadi va ularga 4 talabadan iborat guruhlarga bo'lingan holda buni muhokama qilishni topshiradi. O'yin so'ngida har bir guruhdagi bir talaba guruhga tegishli barcha ma'lumotlarni tahlil qilib berishi lozim bo'ladi. Ya'ni, u bularning ichida qaysi biri to'g'ri va qaysi biri noto'g'ri ekanligini aytib, talabalarning ushbu mavzu bo'yicha bilimlarini oshiradi.

**O'yin nomi:** «*Ism belgilari*».

**O'yin turi:** Kirish qismida qo'llanilishi mumkin.

**Maqsad:** O'quvchi (talaba)larning bir-biri bilan tanishishlariga yordam beradi va keyinchalik ularning o'zaro birgalikda ishlashlari uchun ko'mak beradi.

**Vaqti:** 5–10 daqiqa.

**Guruh kattaligi:** 30–35 kishidan ortiq va bir-birini yaxshi bilmaydigan guruhlar uchun.

**Ishlatiladigan materiallar:** Har bir shaxs uchun oldindan chop qilingan ism yozilgan belgilar (nishonlar).

**Amalga oshirilishi:**

Guruhung qanday ajoyib va bilimdon ekanligi haqida so‘zlagan holda ushbu o‘yin boshlanadi. Barcha *ism belgilarini* tasodifiy tarzda o‘quvchi (talaba)larga tarqatib chiqing. Bunda hech bir kimsa o‘z nomi yozilgan ism belgisini olmasligini nazorat qilib turish lozim. Har bir shaxs o‘zidagi ismi yozilgan shaxs bilan uchrashishi va u bilan bir necha daqiqa suhabat qilishi kerak. O‘quvchilar bir yoki bir necha talaba bilan bu haqda fikr almashganlaridan so‘ng, o‘yin to‘xtatiladi va ulardan bir nechtafiga o‘z suhabatdoshi haqida guruhga qisqa ma’lumot berishi so‘raladi.

**O‘yin nomi:** *Sizning belgingiz qanday?*

**O‘yin turi:** Muzyorar.

**Maqsad:** Nomlarni eslab qolish.

**Vaqti:** 8–12 daqiqa va guruhung kattaligiga bog‘liq.

**Guruh kattaligi:** Talabalar soni 5 nafardan ko‘p va 20 nafardan kam.

**Ishlatiladigan materiallar:** Hech nima kerak emas.

**Amalga oshirilishi:**

Barcha doira shaklida turadi va kimdir «Mening ismim ————— va mening belgim —————» deydi. Belgi sifatida bিrор-биr gul nomi, tana harakati, chehra ifodasiga o‘xshaganlar berilishi mumkin. Keyingi talaba uning nomini va belgisini qaytaradi va so‘ngra o‘zining nomi hamda belgisini aytadi. Undan keyingi shaxs oldingilarning nomlari va belgilarini qaytarishi hamda o‘zinikini ham aytishi lozim bo‘ladi. O‘yin shu tarzda davom etib, hamma ishtirokchilar bir-birlarining ism va shartli belgilarini bilib oladilar. Agar bu o‘yinni dars boshlanishida o‘tkazsangiz, barcha talabalar bir-birlarining nomlarini yaxshilab eslab qoladilar.

**O‘yin nomi:** «*Guruhdagi o‘xhashliklarni aniqlash*».

**O‘yin turi:** Muzyorar.

**Maqsad:** Kichik guruhlar orasidagi o‘xhashliklarni aniqlash.

**Vaqti:** 20–25 daqiqa.

**Guruh kattaligi:** 20–30 nafar o‘quvchi.

**Ishlatiladigan materiallar:** O‘qituvchining tanlovi va o‘tiladigan dars materiallari bilan bog‘liq ravishda to‘plangan materiallar. Mavzuning yo‘nalish, kichik mavzu, nishonlari va shunga o‘xshashlar bilan bog‘liq obyektlar. Masalan, agar loyiha tuzish bilan bog‘liq dars o‘tayotgan bo‘lsangiz, loyihalarning nomini qog‘ozlarga yozib qo‘yishingiz mumkin va har bir shaxs o‘zini qiziqtirgan loyiha nomini tanlab olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

**Amalga oshirilishi:**

1. Obyektlar (masalan, loyihalarning nomlari yozilgan qog‘ozlar) solingen idishni (savatni) o‘quvchilar orasida aylantirib chiqish va har bir talabaga undan o‘zini qiziqtirgan obyektni tanlashni taklif qilish.

2. Bir xil obyektlarni tanlagan o‘quvchilarini bir xil guruhlarga birlashishlarini taklif qilish.

3. Har bir guruhga quyidagilarni muhokama qilishni taklif qilish:  
a) nega Sizning guruhingiz bir xil obyektlarni tanladi;  
b) o‘z guruh a‘zolarining orasida bir-biriga o‘xshash tomonlar borligini muhokama qiling (masalan, qiziqishlar, tug‘ilgan kunlar, intilishlar, xobbilar va boshqalar);  
d) o‘z guruh a‘zolarining haqida qiziqarli ravishda boshqa guruh a‘zolariga so‘zlab bering.

**O‘yin nomi:** «*So‘zlar tuzish*».

**O‘yin turi:** Muzyorar.

**Maqsad:** Yangi guruh a‘zolarining bir-birlarini yaxshilab bilib olishlari uchun.

**Vaqti:** 8–15 daqiqa.

**Guruh kattaligi:** Har qanday kattalikdagisi.

**Ishlatiladigan materiallar:** Ruchka yoki qalam, qog‘oz bo‘laklari.

**Amalga oshirilishi:**

Har bir ishtirokchiga bittadan varaq tarqating va unda alifboning bিrор-биr harfini katta qilib chizishni so‘rang. Keyin barcha qatnashuvchilar o‘rnilaridan turib, qo‘llaridagi harflardan foydalangan holda boshqalar bilan birgalikda to‘rt harfdan iborat so‘zlar tuzishlari kerak. Bunda quyidagilarga e’tibor berilsa, yaxshi natijalarga erishish mumkin:  
— tuziladigan so‘zlar dars mavzusi bilan mos qilishi;

– eng uzun so‘zlar tuzishga ko‘rsatma berib, uzunroq so‘z topgan guruhga mukofot berish;  
– o‘rganilayotgan fan bilan bog‘liq so‘zlar tuzish.

**O‘yin nomi:** «*Mashhur insonlar*»

**O‘yin turi:** Kuchaytirgich.

**Maqsad:** Darsni faollashtirish.

**Vaqti:** 10–15 daqiqa.

**Guruh kattaligi:** Xohlagancha.

**Ishlatiladigan materiallar:** Doska va bo‘r.

**Amalga oshirilishi:**

1. Qatnashchilarga mashhur insonlar nomlarini doskaga yozish taklif qilinadi va xohlovchilar bu nomlarni doskaga chiqib yozadilar.

2. Keyin talabalar ichidan birortasini chaqirib, mashhur insonlardan birining kimligi, faoliyati haqida so‘raladi va u bu haqdagi ma‘lumotlarni barchaga aytib beradi.

3. Agar chaqirilgan talaba hech nima bilmasa yoki kamroq bilsa sinfdagi boshqa xohlovchilarga bu haqdagi ma‘lumotlarni to‘ldirish taklif qilinadi.

4. Shunday qilib, birin-ketin talabalarni doskaga chaqirgan holda mashhur insonlar va ularning nima uchun mashhurligi haqida bilib olinadi.

**O‘yin nomi:** «*Telefon*».

**O‘yin turi:** Faollashtiruvchi.

**Maqsad:** Insonlar orasidagi muloqot va bir odamdan ikkinchisiga ma‘lumotlar qanday borishini ko‘rsatish va o‘quvchilarning qiziqishi darajasini oshirish.

**Vaqti:** 10 daqiqa atrofida.

**Guruh kattaligi:** Xohlagancha.

**Ishlatiladigan materiallar:** Hech nima kerak emas.

**Amalga oshirilishi:**

O‘quvchilar xonada doira shaklida turadilar. Bir o‘quvchi yonidagiga shivirlagan holda biror-bir ma‘lumotni aytadi. U esa ushbu ma‘lumotni keyingi shaxsga aytadi va bu ish doira bo‘ylab davom etadi. Ma‘lumot har bir kimsaga faqat bir martadangina aytishli lozim. Oxirgi o‘quvchi o‘zi eshitgan ma‘lumotni barchaga eshittirib aytadi va shundan so‘ng uni boshda aytgan birinchi o‘quvchi ham

qaytaradi. Original va oxirgi ma‘lumotlar orasidagi farq solishtiriladi va tahlil qilinadi.

**O‘yin nomi:** «*Sirli maktub*»

**O‘yin turi:** Guruh bo‘lib ishslash.

**Maqsad:** Bir-birini yaxshiroq bilib olish.

**Vaqti:** 10–15 daqiqa.

**Guruh kattaligi:** Bir guruhda yoki sinfda.

**Ishlatiladigan materiallar:** Ruchka va qog‘oz.

**Amalga oshirilishi:**

Har bir talaba o‘zi haqida biror-bir ma‘lumotni yoki ma‘lumotlarni qog‘ozga yozadi-da, uni bir idishga soladi (savat, quti, shlyapa va hoqazo). Keyin ular yaxshilab aralashtiriladi va talabalarga ulardan bittadan olish taklif qilinadi. Ular bu ma‘lumotlarni o‘qib, uni kim yozganini aytishlari kerak. Bunda ko‘pchilik sindoshlar bir-birlari haqida yangi, oldin bilmagan qiziqarli narsalarni bilib olishga muvaffaq bo‘ladilar.

**O‘yin nomi:** «*Siz ajoyibsiz*».

**O‘yin turi:** Mashg‘ulotlar oxirida o‘tkaziladi.

**Maqsad:** Darsni yoki seminarni ijobiy-pozitiv ravishda yakunlash maqsadida ishlatish mumkin.

**Vaqti:** 15–20 daqiqa.

**Guruh kattaligi:** Xohlagancha.

**Ishlatiladigan materiallar:** Qog‘oz va ruchka.

**Amalga oshirilishi:**

Har bir ishtirokchiga bittadan varaq tarqatib chiqiladi va uning yuqori qismiga o‘z nomlarini yozishlari so‘raladi. Endi bu varaqlar doira shaklida joylashgan guruhga tarqatilib, har bir ishtirokchidan varaqning yuqori qismida nomi yozilgan shaxs haqida yaxshi va ijobiy fikrlar yozilishi hamda uni keyingi talabaga uzatishi so‘raladi. Barcha o‘z fikrini yozib bo‘lganidan so‘ng, har bir varaq nomi yozilgan insonga qaytariladi. U esa o‘zi haqidagi yaxshi ma‘lumotlarni o‘qib quvonadi va uni sindoshlaridan esdalik sifatida saqlaydi.

## Boshqotirmalar

Quyida keltiriladigan o‘zbekona boshqotirmalarni dars jarayonini faollashtirish bilan bir qatorda o‘quvchi-talabalarning bilim darajasi, madaniyati va ma‘naviyatini oshirish uchun ham ishlatish mumkin.

1. Bir donishmand o'quvchilariga uch turdag'i aynan bir xil qo'g'irchoqni ko'rsatibdi va ularning qandayligini o'quvchilarga namoyish qilibdi: birinchi qo'g'irchoqning qulog'idan cho'p tiqqan ekan, cho'p uning ikkinchi qulog'idan chiqibdi, ikkinchisining qulog'iga tiqilgan cho'p esa uning og'zidan chiqib ketibdi, uchinchisining esa ichiga tiqilib qolibdi.

**Savol:** Qaysi qo'g'irchoq yaxshi va u nimani eslatadi? – donishmandning bu savolini sinfda muhokama qilib, xulosa chiqarish foydadan xoli bo'lmaydi.

2. Ushbu misralarni yozgan o'zbek shoiri haqida nimalarni bilasiz?

Jahon bastu kushodi ilm birla,  
Nadur dilni murodi ilm birla.  
Ko'ngillarning sururi ilmdandir,  
Ko'rар ko'zlarni nuri ilmdandir.  
Kerak har ilmdan bo'lmoq xabardor,  
Bo'lur har qaysi o'z vaqtida darkor.  
Darig'o, Furqatiy, beilm qoldim,  
O'zimni jahl zindoniga soldim.

**Savol:** Bu misralarni kim va nima uchun yozgan?  
Bu shoir haqida yana nimalarni bilasiz?  
Uning yana qanday she'rlarini bilasiz?

3. Siz juda ko'p martalab eshitgan va tinglagan quyidagi misralarning davomini bilasizmi?

*Yurub so'rdim tabiblardan: «Bu dardimga davo bormi?»  
Tabib ayturki: «Ey nodon, bu dardni bedavo derlar!»*

**Savol:** Bu misralarni kim yozgan?  
Uning davomini bilasizmi?  
Bu shoir haqida yana nimalarni bilasiz?

4. Har zamonga ham mos bo'lgan quyidagi o'lmas misralarning muallifi kim deb o'ylaysiz?

Zamona shundaydir, ko'zga ilmaslar,  
Har yigitning qo'lida bori bo'lmasa.  
Tilladek so'zing bir pulga olmaslar,  
Har kishining e'tibori bo'lmasa.  
Dunyoda onglidan ongsizi kondir,  
Bilmaslar balodir, bilganlar xordir.  
U insonlar odam tilli hayvondir –  
So'z uqmasa, yana iqror bo'lmasa.

**Savol:** Bu misralarni kim yozgan?  
Bu misralarda shoir nimalar haqida gapiradi?  
Uning yana qanday she'rlarini bilasiz?

5. Quyidagi ajoyib misralar muallifi kim?

Dunyoning tilagi, samari ham biz,  
Aql ko'zin gavhari, tilagi ham biz,  
To'garak jahomni uzuk deb bilsak,  
Shaksiz uning ko'zi, gavhari ham biz!

**Savol:** Bu ruboiyni kim yozgan?  
Uning haqida nimalarni bilasiz?  
Uning yana qanday ruboilyarini aytib bera olasiz?

6. Bu ulug' shoirning quyidagi misralarini o'qiganmisiz?

Jon base qildim fido, oromijone topmadim,  
G'am ila jonimga etdim, g'amguzore topmadim  
Ishq ila yuz ming malomat o'qiga bo'ldim nishon,  
Bu zamon abruda sendek mehribone topmadim.

**Savol:** Bu misralarni kim yozgan?  
Ular qaysi davrga mansub?  
Bu shoir haqida yana nimalarni bilasiz?  
Uning yana qanday she'rlarini bilasiz?

7. Quyidagi she'riy parchani o'qing va unda nimalarga ishora qilinganini aniqlang:

U nimadir, senga bilim beradi!  
U nimadir, bilimlarni yig'adi!  
U nimadir, qanoti yo'q, uchadi!  
Oqil bo'lsang, shundan bizga xabar ber!

Qanday odam, odamlarning naqshidir!  
Qandaylari tulkidayin ayyordir!  
Qaysisidan o'tlab yurgan mol yaxshi!  
Oqil bo'lsang, shundan bizga xabar ber!

Bu kim o'zi, jonin fido qiladi!  
Bu kim o'zi, «tekin sovg'a» oladi!  
Bu kim o'zi, ilmin pulga sotadi!  
Oqil bo'lsang, shundan bizga xabar ber!

Nima bo'lsa, kishi mag'rur bo'ladi!  
Nima bo'lsa, holi zabun bo'ladi!  
Nima bo'lsa, hamma qulluq qiladi!  
Oqil bo'lsang, shundan bizga xabar ber!

Bu qanday kasb, mehri daryo bo'ladi!  
Bu qanday kasb, shamday yonib o'tadi!  
Bu qanday kasb, qo'lga qarab turadi!  
Oqil bo'lsang, shundan bizga xabar ber!

Bu qanday kun, hamma xursand bo'ladi!  
Bu qanday kun, kissa pulga to'ladi!  
Bu qanday kun, hamma javob beradi!  
Oqil bo'lsang, shundan bizga xabar ber!

**Savol:** Bu misralardagi muammoli savollarga qanday javob bera olasiz?

*Sinf har biri 5–6 kishidan iborat guruhlarga bo'linib, mumkin bo'lgan javoblarни muhokama qiladi va undan so'ng guruh faollari o'z fikrlarini ko'pchilik oldida bildiradilar.*

8. Quyidagi misralarda nimalarga ishora qilingan va bunga sizning munosabatingiz qanday?

Otang obro'siga qaddingni kerib  
Yursang har yulduzni benarvon urib,  
Nogoh qoqilsang-u ketmasang turib,  
Mardning bolasiman deganing bekor.

**Topshiriq:** *Bu misralardagi fikrlarni sinfda guruhlarga bo'lingan holda muhokama qiling va fikringizni bildiring. Bunda har bir guruhdan bir kishi ko'pchilik oldida o'z fikrini bildiradi.*

9. Sinfdag'i talabalar guruhlarga bo'lingan holda quyidagi dolzarb masalalarni muhokama qiladilar va o'z fikrlarini bildiradilar:

- O'qituvchilarning jamiyatdagi o'rni va obro'-e'tibori haqida fikringiz qanday?
- Bir qator san'atkor va olim-u fuzalolar tomonidan ular haqida aytilgan ijobiy va salbiy fikrlarga qanday munosabat bildirasisiz?
- O'qituvchilarning jamiyatdagi mavqeyini ko'tarish uchun nimalar qilish darkor deb o'ylaysiz?

10. Ushbu o'lmas misralar orqali muallif nima demoqchi?

Achchiq mevali bir daraxtni agar,  
Jannatning bog'iga ko'chat qilsalar,  
Kavsardan suv ichsa chanqagan mahal,  
Suv emas, bersalar sharbatu asal,  
Yetilgach, hosil ham bo'ladi axir,  
Va lekin mevasi bo'ladi taxir . . .

**Savol:** Bu misralarni kim va nima uchun yozgan?  
Bu shoirning yana qanday asarlarini bilasiz?

11. Quyida mashhur bir asardan parcha keltiriladi:

**Tamagir:** *Yo'q, biz odammiz.*

**Qahramon** (*tamagirlarga qarata aytadi*):

O, albatta, odamdirsiz umum ro'yxatda,  
Tozi, laycha, xaybar, yana bo'ribosarni  
Bir nom bilan xuddi it, deb atashganidek.

Baholari bir xil emas axir ularning,  
Yalqovi bor, axir, epchil-qopog'oni bor,  
Axir, biri ovchi bo'lsa, biri poyloqchi,  
Har biriga tabiatdan o'zga bir nisor.  
Shu sababdan ham biz odatda itning nomini  
Aytarkanmiz, qayd etamiz nasabini ham.  
Xuddi shunday, bir-biridan ayrilur odam.  
Baski, siz ham inson degan umum ro'yxatda  
Eng oxirgi o'rinda turmas ekansiz!

**Savol:** Bu yerda kimning asaridan parcha keltirilgan va bu asarning nomi nima?

Bu erda yozuvchi nimalarga ishora qilayapti?  
Bu muallifning yana qanday asarlarini bilasiz?

### Muammoli holatlarni o'rganish (Case Study)

*«Har qanday katta muvaffaqiyatga juda uzoq muddat davomidagi imlensiv mehnat sabab bo'ldi».*

Quyida iqtisodiy va boshqa fanlarga oid bo'lган bir qancha muammoli holatlari keltiriladi va Siz ularni kooperativ, savol-javob yoki muloqot vositasida dars berishni tashkil qilgанингизда ishlatingiz mumkin. Ular **Case Study** larga misollar sifatida keltirilgan bo'lib, Siz boshqa fanlardan ta'lim bersangiz, shunga o'xshash misol va masalalarini topshiriq sifatida talabalarga berishingiz mumkin:

**1. "Abbos" nomli parom xizmati ko'rsatish firmasi** Amudaryordan o'tish xizmatini ko'rsatadi. Uning bitta paromi juda ham eskip qolgan. Ushbu paromni ta'mirlash uchun hozir 20 mln. so'm kerak. Keyingi ta'mir va motor remonti 5 yildan so'ng qilinishi lozim xamda bunga yana 8 mln. so'm kerak bo'ladi. Agar bu ishlar amalga oshirilsa, paromni yana 10 yil ishlating mumkin. 10 yildan so'ng esa paromni 5 mln. so'mga sotib yuborish mumkin. Paromning hozirgi kundagi narxi taxminan 7 mln. so'm. Bu eski paromni ishlatiб turish uchun yiliga 16 mln. so'm kerak va olingen daromad yiliga 25 mln. so'm bo'lishi kutilmoqda.

Alternativ holda "Abbos" firmasi 36 mln. so'mga yangi parom sotib olishi mumkin. Ushbu yangi parom 10 yil yaxshi xizmat ko'rsata

oladi, lekin u 5 yildan so'ng 2,5 mln. so'mli ta'mir talab qiladi. O'n yil o'tganidan so'ng, ushbu paromni 5 mln. so'mga sotib yuborish mumkin. Uni ishlatiб turish uchun yiliga 12 mln. so'm kerak va olingen daromad yiliga 25 mln. so'm bo'lishi kutiladi.

"Abbos" firmasi barcha investision loyihalardan kamida 18% qaytaruv normasi bo'lishini talab qiladi (soliqlarni hisobga olmaganda).

Sizdan yuqorida ko'rsatilgan ikkala investision loyihalarni tahlil qilish so'raladi. Ulardan qaysi birini qabul qilish "Abbos" firmasi uchun foydaliroq bo'ladi va nima uchun?

Olingen natijalarni guruhda muhokama qiling.

**2. Quyida "Chorsu gilamlari" firmasining investitsiyalar jalb qilish maqsadida ishlab chiqilgan biznes rejasida aks ettirilgan 7 yillik faoliyat haqida ma'lumotlar berilgan:**

Million so'mda	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
Sotuv hajmi	9	16	20	25	25	25	27
Sotuv bilan bog'liq xarajatlar	6	8	9	10	10	9	9
Qo'shimcha xarajatlar	5	3	4	5	5	4	4
Soliqlar miqdori	-	1	2	3	3	4	4
Soliqdan so'nggi qolgan foyda	-2 (9-6-5)	4 (16-8-3-1)	5	7	8	9	10
Inventar	27	8	6	-	-	-	-

Ushbu investitsiyaning ichki qaytaruv normasini hisoblang va unga izoh bering. Agar inflatsiya darajasi 12% bo'lsa, investitsiyaning ichki qaytaruv normasi qanchaga o'zgaradi?

Olingen natijalarni guruhda muhokama qiling.

**3. "DVD-Cinema" korporasiyasining biznes rejası** yillar miyosida amalga oshirilgan investitsiyalarni quyidagi tartibda aks ettiradi:

**Investitsiyalar:****Y I L L A R**

	0	1	2	3	4	5	6	7	8
Ming so'mda	0	1	2	3	4	5	6	7	8
Asosiy fondlar	8 000	4 000	1000	-	-	-	-	-	-
Ishchi kapital	3 000	2 000	2000	-	-	-	-	-	-
Qoldiq qiymat	-1 000								

**Daromad:****Y I L L A R**

	0	1	2	3	4	5	6	7	8
Ming so'mda	0	1	2	3	4	5	6	7	8
Sotuv hajmi:-	3 000	5 000	5 000	7 000	7 000	8 000	8 000	8 000	8 000
Sotuv bilan bog'liq xarajatlar -	1 800	3 000	3 000	4 200	4 000	4 400	4 400	4 400	

**Brutto marjin (VM) = Sotuv hajmi – Sotuv bilan bog'liq xarajatlar**

## Operasion

xarajatlar (OX): 700 1 200 1 200 1 400 1 400 1 500 1 500 1 500

Soliqqa tortishdan oldingi

operasional pul oqimi (**STOPO**) = VM - OX

Soliqlar: 100 200 200 400 400 500 500 500

Soliqqa tortishdan keyingi pul oqimi (**STKPO**) = STOPO – Soliqlar

Bilvosita effektlar (Indirect effects) – ishlab chiqarishinig ko'payishi tufayli "DVD-Cinema" korporatsiyasi pul oqimining qo'shimcha ravishda o'sishiga erishdi va bu o'sish birinchi yili 300 ming so'mni, keyingi yillarda esa 600 ming so'mni tashkil qildi. Ya'ni,

## Bilvosita

effektlar: 300 600 600 600 600 600 600 600

Sizdan ushbu investision loyihaning ichki qaytaruv normasini aniqlash va olingan natijalarni guruvida muhokama qilish talab qilinadi.

**4. Amerika qit'asiga yevropaliklar kelmasidan avval u erda Inklar sivilizasiyasi bo'lib, ularning tarkibi ovchilik, dehqonchilik va baliqchilik orqali avtonom ravishda hayot kechiradigan bir qancha qabilalardan iborat bo'lgan. Bu qabilalarning orasida eng kuchlilari Siu va Apachi qabilalari**

bo'lgan. Bu ikkala qabila orasida doimo o'zaro raqobat mavjud bo'lib, ularning har biri boshqasidan o'zib ketishni maqsad qilgan. Ularning faoliyatiga qabila sardorlari boshchilik qilib, ular ikki paragrafdan iborat bo'lgan qonunga (konstitusiyaga) asosan qabilalarini boshqarganlar:

A. Qabila boshlig'i doimo haq.

B. Agar u nohaq bo'lsa, A. punktga qaralsin!

Har ikkila qabila o'z kuchlarini ko'paytirish va o'zaro raqobatda yengib chiqish uchun o'z o'lklaridagi ozod insonlarni qabilalariga jalb qilish maqsadida sa'y-harakatlar qilganlar. Qabilaga a'zo bo'lmochi bo'lgan insonlardan o'ziga xos jismoniy imtihon olingen – bunda ular o'zlarining ishga layoqatliliklarini, kuch-quvvatlarini va hunarlarini namoyish qilishlari kerak bo'lgan. Har bir qabila a'zosi yangi nomzod topsa va u imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirsa, mukofot olishga loyiq deb topilgan. Shuning uchun qabilaning har bir a'zosi kattaroq mukofot olish va sardor nazariga tushish uchun iloji boricha ko'proq nomzodlar topishga harakat qilgan. Tekshiruv hay'ati qabila sardori tomonidan tanlangan va uning tarkibi sardorning alohida ishonchiga sazovor va hurmat-e'tiborga loyiq qabiladoshlaridan iborat bo'lgan. Ammo ba'zi tadbirkor va chaqqon qabiladoshlar imtihon topshira olmaydigan nomzodlarni ham tekshiruv hay'ati bilan kelishgan holda qabila tarkibiga kiritishga harakat qilganlar. Tekshiruv hay'ati a'zolari va nomzodni taklif etganlar bu xizmatlari uchun asli nobop bo'lgan nomzoddan tegishli mukofotlar olganlar, albatta. Qabila sardori ham xazinani to'ldirish maqsadida bu ishlarga ko'z yumishga majbur bo'lgan. Bu esa, birinchidan, nomzod topishni katta foya keltiradigan faoliyatga aylantirib, bir qancha tadbirkor qabiladoshlar bu ezu ishni osonlik bilan foya topish va farovon yashash manbaiga aylantirib olganlar. Ikkinchidan, bu amal qabila tarkibida ishga layoqatsiz, hunari bo'lmagan va kasal-majruhlarning ko'payishiga olib kelgan. Bu salbiy amallar natijasida qabiladoshlarining noroziligi kuchaygani hamda qabila tarkibida ishga layoqatli insonlarning kamayib ketishi oqibatida ikkala qabila – Siu va Apachilar asta-sekin inqirozga yuz tuta boshlaganlar. Ammo Apachi qabilasi sardori Lochin ko'z bir qancha ijobji islohotlar yordamida bu inqirozdan qutulish va qabilaning mavqeini tiklash yo'lini topgan. Siu qabilasi sardori Jasur burgut esa o'z yo'li to'g'riligiga astoydil ishongan holda hech qanday islohotlar

o‘tkazmagan va shu tufayli Siu qabilasi tez orada o‘z mavqeyini yo‘qotib, Apachilarga qaram bo‘lib qolgan.

**Topshiriq:** Guruhlarga bo‘lingan holda Lochin ko‘z qanday islohotlar o‘tkazganligini aniqlashga harakat qiling. Har bir guruh masalani qanday tarzda hal qilganligini sinf oldida tushuntirib berishi kerak bo‘ladi. Olingen barcha natijalar va xulosalar esa albatta sinfda keng muhokama qilinishi shart. Guruhlar quyidagi savollarga javob berishlari zarur:

- Agar Siz Siu qabilasi sardori o‘rnida bo‘lsangiz, nimalar qilgan va nimalarga alohida e’tibor bergen bo‘lar edingiz?
- Nima sababdan qabiladoshlar orasida norozilik vujudga kelgan?
- Nega boshqalarga yordam berish kabi ezgu ishni qilish qabilada salbiy o‘zgarishlar bo‘lishiga olib kelgan?
- Qabilaning asosiy qonuni qanday bo‘lgani ma‘qul deb hisoblaysiz?
- Tekshiruv hay’ati ishini qanday tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘lar edi?

Ushbu risolaga oxirgi so‘z o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, bizning respublikamizdagi o‘quv yurtlarida, ayniqsa, kollej va oliv o‘quv yurtlarida yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan interfaol usullardan foydalanish bir qancha o‘ziga xos qiyinchiliklar va murakkabliklar tug‘diradi. Chunki deyarli har bir guruhda bilim darajasi anchagina past talabalar soni qandaydir miqdorni tashkil qiladi. Bunday talabalar sistematik ravishda o‘qituvchiga xalaqit berib, har qanday yangi ta’lim usulini qo‘llash samarasini yo‘qqa chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham interfaol usullarni qo‘llashni niyat qilgan professor-o‘qituvchilar darslarni rejalashtirayotganda bu holatni hisobga olishlari lozim. Aks holda yaxshi niyat bilan zamonaviy interfaol usullar vositasida ta’lim berishga ahd qilgan o‘qituvchilar shamol tegirmoniga qarshi kurashgan Don-Kixot kabi bu ishni uddalay olmay, o‘quv yurtining an’anaviy va etakchi professor-o‘qituvchilari oldida sharmanda bo‘lishlari ham mumkin. Bu holat yuzaga kelishining ehtimolligi ko‘pincha yakuniy nazorat paytida, ya’ni tig‘iz sharoitlarda o‘z maksimal darajasiga etadi. Chunki, bunda agar sizning real voqelikni hisobga olgan yakuniy nazorat ko‘rsatkichlarining boshqalarnikidan pastroq bo‘lsa, ayb talabalarga emas (chunki mijoz, ya’ni talaba doimo haq!), o‘qituvchiga yuklanadi. Ya’ni, Sizning dars o‘tish sifatingiz past bo‘lgani uchun talabalar yaxshi bilim ololmaganlar! Lekin shularga ham e’tibor bermay, o‘z vatanparvarlik

burchini sobitqadamlik bilan amalga oshirishga ahd qilgan o‘qituvchilarni talabalar ham, hamkasblar ham keyinchalik (yaqin yoki uzoq kelajakda) pozitiv shaxs sifatida esga oladilar. Shu sababli, konkret o‘quv yurtida qanday holat yuzaga kelganligidan qat‘i nazar, interfaol usullardan keng miqyosda foydalanish ta’lim sifatini keskin oshiradi va ko‘pchilik undan bahramand bo‘lib, ertami-kechmi bu usullarni qo‘llagan novatorlar munosib yodga olinadi. Shuning uchun ham Sizga bu zamонавиy ta’lim usullarini o‘quv jarayonida keng miqyosda qo‘llashni, ularni ijodiy ravishda rivojlantirishni hamda yangilarini o‘ylab topib, amaliyotga tatbiq etishingizni va bu ezgu amal orqali kattadan-katta muvaffaqiyatlarga erishishingizni tilab qolamiz. Buning uchun esa har qanday usulda va har qanday auditoriyaga nimadandir ta’lim berayotganingizda uchta «O» harfidan boshlanadigan quyidagi xislatlarni yaxshilab esda saqlab qoling:

- O‘zingizni o‘zingiz hurmat qilishni.
- O‘zgalarni hurmat qilishni.
- O‘z harakatlaringizga faqat o‘zingiz javob berishingizni.

Qo‘llanmaga o‘ziga xos yakunlov sifatida quyidagi misralarni keltirishni lozim topdik:

Ustoz borki, ustozlardan ziyoda,  
Uning xizmatida turging keladi.  
Bilimli, xushxulq xamda kamtarin,  
Uni dildan ustoz deging keladi.

Ustoz borki, ustozlikdan yiroqda,  
O‘qimaydi, izlanmaydi, yonmaydi.  
Ilm nima, ma‘no nima, bilmaydi,  
Uning xizmatidan qochging keladi.

Ustoz borki, kunda ko‘rsang arziydi,  
Undan har kun o‘git olsang arziydi,  
Bor-budingni unga bersang arziydi,  
Uning xizmatida bo‘lging keladi.

Ustoz borki, olmoq uning istagi,  
Ilm sotib, boy bo‘lishlik niyati,

Amaldorga yaqin bo'lar kun bo'yи,  
Uning nazaridan qochging keladi.

Ustoz borki, ko'ngli pokdir azali,  
Shogirdlarga tushgan uning nazari,  
Shunday ustoz asl shogirdning keragi,  
Ne yumush topshirsa, qilging keladi.

Azizlarim, sinov kerak ustozga,  
Nazar soling ilmu hunar, do'st-yorga,  
Bor mehringiz bering yaxshi ustozga,  
Yomonning yonidan qochging keladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MA'LUMOTLAR

«Yaxshi kitoblarni o'qish – o'tmish zamoni larning  
eng dono kishilari bilan hamsuhbat bo'lish demakdir.

Yana shunisi ham borki, bu suhbatda ular bizga  
o'zlarining eng yaxshi fikrlarini bayon etadilar».

R. DEKART

1. **Carol Cummings.** Teaching makes a difference. Xilma-xil usullarda dars berish, Teaching Inc., USA, 1992
2. **Claire Raines, Linda Williamson.** Using Visual Aids. A guide for Effective Presentations. Ko'rgazmali qurollarni ishlatalish. Samarador taqdimotlar qilish uchun qo'llanma, Grisp Publications, Inc., 1995.

3. **Antony F.Gregory, Inside Styles.** Beyond the Basics, Dars berish usullari va uning asoslari, Columbia, CTA Gregory Associates, Inc., 1985.

4. **Jack Canfield, Harold Clive Wells.** 100 ways to enhance self-concept in the classroom: a handbook for teachers, counsellors, and group leaders. Sinfdag'i o'z-o'ziga ishonchni oshirishnng 100 usuli: o'qituvchilar va guruh rahbarlari uchun qo'llanma, 2<sup>nd</sup> edition, Allyn and Bacon, Library of Congress Cataloging-in-Publicatioin Data., USA, 1994.

5. **Jack Canfield, Fank Siccone.** 101 Ways to Develop Student Self-Esteem and Responsibility. Sinfdag'i o'z-o'ziga ishonchni va mas'uliyatni

oshirishnng 101 usuli. Volumes 1 and 2. ISSN: 0-205-13368-1 and ISBN: 0-205-14068-8.

6. **James G.Henderson.** Reflective teaching. Becoming an Inquiring Educator. Reflektiv usulda ta'lif berish. Talabchan o'qituvchi bo'lish. Kent State University. New York-Toronto-Oxford, 1998.

7. 101 Games for Trainers. O'qituvchilar uchun dars jarayonida ishlatalishi mumkin bo'lgan 101 o'yin. A collection of the Best Activities from Creative Training Technics Newsletter. Bob Hike and Lakewood Publications, 1995.

8. **Iskusstvo zadavat voprosy.** Savol berish san'ati. Litovskiy sentr po razvitiyu shkol, Riga, 2000 g.

10. **D. Stil, K. Meredis, Ch. Templ.** Chtenie, pismo i diskussiya v kajdom uchebnom predmete. Har bir o'quv mashg'ulotida o'qish, yozish va munozara. Posobie v 8-tomax, Bishkek, 1998 g.

11. **S.S. Bonvell, J.A. Elison.** Aktivnoe obuchenie: Kak vzvolnovat uchenikov. Faol ta'lif: Qanday qilib o'quvchilarni qiziqtilish mumkin. Washington D.C.: The George Washington University, School of Education and Human Development, 1991.

12. **J.N. Penner.** Pochemu bolshinstva prepodavateley kolledja ne umeyut chitat leksiya. Nega kollejlarning ko'pchilik o'qituvchilari ma'ruza o'qiy olmaydilar. Springfield, IL: Charles Thomas, 1994.

13. **Engel Peter H., Business Presentations&Public Speaking.** Biznes taqdimotlari va jamoada so'zlash madaniyati. McGrow-Hill, Inc.,1996.

14. **Richard Arends.** Learning to Teach. Faol dars berishni o'rganish. McGrow Hill, Inc., 1994.

15. Favorite Peace Corps Ice Breakers, Peace Corps, Center for Field Assistance and Applied Research. April, 1999.

Agar Siz jahon miyosida yangi pedagogik texnologiyalar (faol ta'lif berish usullari) yo'nalishida qanday ishlar bajarilayotganini bilmoqchi bo'lsangiz va shu bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlar bilan aloqa bog'lashni istasangiz, quyidagi ro'yxatda keltirilgan tashkilotlardan tegishli ma'lumotlar olishingiz mumkin:

1. **The National Council for Self-Esteem.** Mas'uliyatli ta'lif Milliy Kengashi. P.O. Box 277877, Sacramento, CA 95827-7877.

Ushbu tashkilot nodavlat notijorat tashkiloti bo'lib, o'zlarining har chorakda bir marta chiqariladigan «Self-esteem Today» deb nomlangan

ma'lumotnomalari orqali Sizga bu sohadagi manbalarni, ilmiy izlanishlarni bildirishadi va bo'lishi kutilayotgan anjumanlar haqida xabar berishadi. Bu tashkilotga ma'lum miqdordagi yillik a'zolik badali (\$30) to'lab turilishi lozim bo'ladi.

**2. The International Alliance for Invitational Education** (Halkaro Alyans), School of Education, Curry Building, University of North Carolina at Greensboro, NC 27412. Bu Xalqaro Alyans jurnal nashr qiladi, ma'lumotnomma chiqaradi va tarqatadi, yangi kitoblar, manbalar haqida ma'lumot beradi, seminarlar va anjumanlar tashkil qilishga yordam ko'rsatadi. Bu tashkilotga ham ma'lum miqdordagi yillik a'zolik badali (\$25) to'lab turilishi lozim bo'ladi.

**3. The Foundation of Self-Esteem.** (Ta'limgan jamg'armasi), 6035 Bristo Parkway, Culver City, CA 90230 (Phone 301-568-1505).

Ushbu Jamgarma o'rganilayotgan soha bilan bog'liq bo'lgan o'quv materiallarini tarqatadi, video dasturlar ishlab chiqadi, o'quv muassasalari uchun seminarlar tashkil qiladi va har yili maorif sohasiga katta ulush qo'shganlar uchun bag'ishlangan «Oltin Olma» tanlovini o'tkazadi.

**4. Global Alliance for Transforming Education.** (Ta'limgan Isloh qilish Umumjaxon Alyansi), 4202 Ashwoody Trail, Atlanta, GA 30319 (Phone 404-458-5678; Fax: 404-454-9749).

Bu tashkilot ta'limgan isloh qilish va maorifni rivojlantirish yo'nalishida birlgilikda ishlayotgan mutaxassislar konsorsiumidir. Ularning ishini yoritadigan qo'llanmani so'rash maqsadga muvofiq.

**5. The National Self-Esteem Resources and Development Center.** (Milliy rivojlanish va manba markazi). 176 Corte Anita, Greenbare, CA 94904 (Phone 415-461-3401). Ushbu Kengash dasturlarga, informatsion materiallarga va ta'limgan sohasiga bag'ishlangan musiqa tasmalariga ega bo'lib, tegishli seminarlar ham o'tkazib turadi.

**6. Sunrise Books, Tapes and Videos.** (Kitoblar, yozuv tasmalari, video tasvirlar), P.O. Box B, Provo, UT 84603 (Phone 800-456-7770, 801-377-2800). Bu tashkilot maorif sohasidagi yangi materiallarni, kitoblarni, yozuv tasmalarini, video tasvirlarni tarqatadi va bu yo'nalishda seminar-kengashlar o'tkazishga yordam beradi.

**7. The Society of Accelerate Learning and Teaching T (SALT)** 21st Century Learning Systems (Tezkor o'quv va ta'limgan berish Jamiyat/21 asrdagi ta'limgan), 3028 Emerson Avenue South, Minneapolis, MN 55408

(Phone 612-827-4856). Ushbu jamiyat tegishli yo'nalishda jurnal nashr qiladi va ilg'or maorif xodimlari uchun bag'ishlangan yillik amaliy konferensiylar tashkil etadi.

**8. National Council on Economic Education (NCEE).** (Iqtisodiy ta'limgan bo'yicha Milliy Kengash), 1140, Avenue of the Americas, New York, NY 10036, fax: 212.768.7894, pelder@eaglobal.org

Mazkur Kengashning pirovard maqsadi – maktablarning 1–12 sinflari uchun iqtisodiy ta'limgan standartlarini ishlab chiqishdir. Bu standartlar majburiy ko'rinishda bo'lmasdan, balki ta'limgan muassasalari uchun yaxshi o'ylab chiqilgan dasturiy takliflar ko'rinishidadir. Maktablar bular asosida o'zlarining shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda konkret dasturlar va o'quv rejalarini ishlab chiqadilar.

**9. Junior Achievement International** (Xalqaro yoshlar yutuqlari tashkiloti, uning O'zbekiston Respublikasida ham tegishli bo'limi mavjud): JA –US, 2780 Janitel Road, Colorado Springs, CO 80906, tel: (719) 540-0200, Fax: (719) 540-8770, Internet: 74511.1535@compuserve.com

Bu xalkaro tashkilot chet ellarda o'quvchi yoshlar uchun Iqtisodiy ta'limgan tizimini rivojlantirish bilan shug'ullanadi va hozirgi paytda 80 dan ortiq mamlakatlarda o'z bo'limlariga ega. Iqtisodiy ta'limga oid bir qancha dastur, kitob, qo'llanma va kompyuter dasturlari ko'plab mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanilayapti.

## ILOVALAR

«Filni yeyishning eng yaxshi usuli,  
uni mayda bo'laklarga bo'lishdir».

Genri FORD

### 1. O'z-o'zini xolisona baholash usuli

Ushbu uslubdan foydalanim, Siz o'z-o'zingizni xolisona baholashni amalga oshirishingiz mumkin. Bu baholash hayotingizni va ishingizni shunga muvofiqlashtirib faoliyat ko'rsatishingizga imkon beradi. Agar buni o'quvchi yoki xodimlariningiz bilan amalga oshirsangiz, ularning fe'l-atvori, intilishi, nimalarga qodirligini va hayotning u yoki bu

sharoitlarda xilma-xil insonlardan nimalar kutish mumkinligini ko'z oldingizga keltirish imkoniyatiga erishib, ularni samarali boshqarish xaqidagi bilimlaringizni oshirasiz. Ayniqsa, bu baholash usuli o'zingizni yaxshirok tushunishingizga yordam berib, qaysi sharoitlarda qanday qilib faoliyat ko'rsatishingiz maqsadga muvofiqligini aniqlashga imkon yaratadi. Agar bu ishni diqqat bilan amalgalashga oshirib, chuqur tahlil qilsangiz, olingan natijalar Sizning o'z xatti-harakatlaringiz va fikr-o'ylaringizga bo'lgan mas'uliyatingizni yanada oshirib, boshqalar bilan o'zaro aloqangizni yanada yaxshilashga xizmat qiladi. Chunki Siz ushbu psixologik tekshiruv bilan «Ular nima uchun bunday qildilar?» degan savolga javob topish imkoniga ega bo'lasiz. Ushbu psixologik testni o'tkazishdan oldin quyidagi yetti qadamning mohiyatini va ko'rsatmalarni yaxshilab o'rganib chiqing:

### **1. Ko'rsatmalar**

Siz o'z fikringizdan va dunyoqarashingizdan kelib chiqqan holda har bir guruhdagi jumlalarning Sizni qanday ta'riflashini sonlar bilan ifodalashingiz kerak. Bunda Siz o'zingizni ichki jihatdan qanday ta'riflashingizni ko'rsatishingiz lozim bo'ladi. Masalan, Siz haqingizda boshqalar qanday o'laydi, Siz qanday bo'lishni xohlardingiz yoki boshqalar bilan munosabatda va uyda o'zingizni qanday tutasiz, bundan qat'i nazar, o'z ichki hissiyotlaringizdan kelib chiqqan holda har bir so'z bo'yicha o'zingizni o'zingiz baholashingiz kerak bo'ladi. Bunda agar, to'g'ri natijalar olishni istasangiz hamda «Men o'zim kimman va qanday insonman?» degan savolga to'g'ri javob olishni istasangiz, barcha so'zlar bo'yicha xolisona fikringizni bildirishingiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **2. So'zlar**

«O'z-o'zini xolisona baholash» usulida berilgan so'zlar jadvali (matrisasi) tuzilishi bir xil emas, barchasi fe'l ham, sifat ham emas. Ularni Sizning his-tuyg'uingizni, fe'l-atvoringizni yoki shunga o'xhash ma'lum fikrni anglatgan va Sizga tatbiq qilinayotgan so'zlar deb tushuning, xolos.

### **3. Muhimligiga qarab tartiblashtirish – Rang qiymati berish**

Har biri to'rt so'zdan iborat bo'lgan o'nta guruhga tegishli rang (ushbu so'zning Siz uchun qanchalik muhimlik darajasini bildiradigan son qiymat) qo'yib chiqishingiz lozim bo'ladi. Agar biror-bir so'z Sizni juda to'g'ri va aniq ta'riflab beradigan bo'lsa, tegishli kvadratga 4

raqamini yozasiz, agar asosan to'g'ri ta'riflab bersa, 3 raqamini qo'yasiz, unchalik to'g'ri ta'riflamasa, 2 raqamini yozasiz, agar bu so'z Sizni batamom noto'g'ri ta'riflasa, u holda 1 raqamini yozib qo'yasiz. Har bir guruhdagi to'rt so'zdan birortasi ham bir xil kattalikdagi rang qiymati olishiga yo'l qo'ymaslik kerak, ya'ni ular 1, 2, 3 va 4 kattalikdagi rang kattaliklarni olishlari shart.

Yana bir marta eslatib o'tamiz: 4 soni Sizga juda mos keladigan so'zlar uchun, 1 soni Sizga tamoman mos kelmaydigan so'zlar uchun.

### **4. Munosabatingiz (Reaksiyangiz)**

Guruhlardagi so'zlarga rang qiymati berish uchun o'zingizning boshlang'ich fikringizniga inobatga olishingiz yaxshi natijalarga olib keladi. Bu borada «To'g'ri» yoki «Noto'g'ri» savol yoki javoblar yo'q. Agar Siz o'z ichki hissiyotingiz asosida baholashni amalgalashga oshirsangizgina, o'zingizning kimligingizni aniq bilib olish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

### **5. Baholashni amalgalashga oshirish**

So'zlar bilan aniqlangan hamma o'nta ustunni bir vaqtning o'zida to'ldiring. Hozir birini, keyinchalik boshqasini to'ldirish butunlay noto'g'ri natijalarga olib kelishi mumkinligi yodingizda tursin.

### **6. Talab qilinadigan vaqt**

Barcha o'nta vertikal so'z ustunlarini to'ldirish uchun 3 daqiqa ishlating, xolos.

Barcha maslahatlar tushunarli bo'lgan bo'lsa, endi quyidagi jadvalni diqqat bilan to'ldiring:

a	b	c	d
a) odil (obyektiv)	□ mukammallikka intiladi	□ ishonchli	□ amaliyotchi
b) har bir narsani baholaydi	□ izlanuvchan	□ sifatga ahamiyat beradi	□ unumli (ratsional)
c) hissiyotga berilgan	□ hayoti rang-barang	□ birovni aybla maydigan	□ harakat- chan
			atrofda nimalar bo'layot- ganini biladi

<input type="checkbox"/> sezgir (intuitiv)	<input type="checkbox"/> tavakkal-chilikni yoqtiradi	<input type="checkbox"/> diqqat e'tiborli	<input type="checkbox"/> juda diqqatli	yaratuvchan			
---	--	---	--	-------------	--	--	--

a) <input type="checkbox"/> ikir-chikirga diqqatni qaratadigan	<input type="checkbox"/> realistik	<input type="checkbox"/> tartibni yoqtiradigan	<input type="checkbox"/> sabot-matonatlari	<input type="checkbox"/> natijaga yo'nalgan	a	b	c	d
b) <input type="checkbox"/> mantiqli	<input type="checkbox"/> manbalarga ilova qilishni yoqtiradigan	<input type="checkbox"/> isbotni yoqtiradigan	<input type="checkbox"/> tahlilchi (analitik)	<input type="checkbox"/> qozi (sudya)				
c) <input type="checkbox"/> spontan	<input type="checkbox"/> achinuvchan	<input type="checkbox"/> tashqi muhitga bog'liq	<input type="checkbox"/> didli (estetik)	<input type="checkbox"/> Boshqa insonlarga bog'liq				
d) <input type="checkbox"/> muammolarni hal qiladi	<input type="checkbox"/> Novator (ilg'or, yangilik kirituvchi)	<input type="checkbox"/> muammolarni yechishning xilma-xil yo'llarini topadi	<input type="checkbox"/> tajribalar qilishni yoqtiradi	<input type="checkbox"/> amaliyot-chi xayolparast				

Jami:

□ □ □ □  
CS AS AR CR

### **Hisoblash ketma-ketligi:**

**1. Besh** so'zdan iborat **a)** qatoridagi katakchalarda hosil bo'lgan raqamlarni qo'shing va natijani **a** ustunda **a** qator ro'parasiga yozing. Qolgan barcha qatorlar uchun ham bu ishni amalga oshiring va natijalarini **b**, **c**, **d** ustun va qatorlarning kesishgan joylariga yozib chiqing.

Quyida joylashgan ikkinchi jadval katakchalari uchun ham bu ishni amalga oshiring.

**2. Yuqorida** va quyida joylashgan jadval **a**, **b**, **c**, **d** qatorlarining jami natijalarini ustunlar bo'yicha yig'ib **CS**, **AS**, **AR**, **CR** katakchalariga jamlab chiqing. Bu yerda quyidagi qisqartishlar kiritilgan:

**CS – Concrete Sequential** – Konkret va aniq ketma-ketlikda faoliyat ko'rsatadigan ruhiyat (harakter) turi.

**CR – Concrete Random** – Konkret (aniq) va tasodifiy holda faoliyat ko'rsatadigan ruhiyat (harakter) turi.

**AS – Abstract Sequential** – Abstrakt va aniq ketma-ketlikda faoliyat ko'rsatadigan ruhiyat (harakter) turi.

**AR – Abstract Random** – Abstrakt va tasodifiy holda faoliyat ko'rsatadigan ruhiyat (harakter) turi.

Bular inson ruhiyati dominantalari yoki meditatsiya kanallari deb ham ataladi.

**3. Agar CS(a) , AS (b) , AR (c) , CR (d) larning yig'indisi 100 dan katta yoki undan kichik bo'lsa, hisob-kitoblariningizni yana bir karra tekshirib chiqing, chunki ularning yig'indisi aniq 100 ga teng chiqishi kerak.**

Endi Siz olingen natijalar bo'yicha chizma chizib chiqishingiz lozim bo'ladi. Buning uchun gorizontal o'qni **CR- AS** (chapdan o'ngga yo'nalgan) va vertikal o'qni **CS – AR** (yuqoridan pastga yo'nalgan) deb belgilab olasiz.

Navbatdagi bosqichda quyidagi ishlarni bajarasiz:

– Soat 12:00 tomon yo'nalgan **CS** vertikal o'qida jami katakchadagi **CS** ga tegishli son qiymatini belgilaysiz.

– Soat 3:00 tomon yo'nalgan **AS** gorizontal o'qida jami katakchadagi **AS** ga tegishli son qiymatini belgilaysiz.

– Soat 6:00 tomon yo'nalgan **AR** vertikal o'qida jami katakchadagi **AR** ga tegishli son qiymatini belgilaysiz.

– Soat 9:00 tomon yo'nalgan **CR** gorizontal o'qida jami katakchadagi **CR** ga tegishli son qiymatini belgilaysiz.

Endi esa barcha belgilangan nuqtalarni to'g'ri chiziq bilan birlashtirasiz va natijada qiyshiq burchakli to'rtburchakka ega bo'lasiz. Bu bilan Siz o'z xarakteringiz (ruhiyattingiz)ning kuchli (27–40 atrofida), o'rta (16–26 kattaliklarda) va kam miqdordagi (10–15 lar atrofida) dominantalari (yoki meditatsiya kanallaringizning) kattaliklarini aniqlovchi son qiymatlarini aniqladingiz. Qaysi son miqdori ko'p chiqsa, to'rtburchak o'sha tomonga qarab cho'zilgan bo'ladi va demak, bilingki, Sizning ruhiyattingiz xuddi shu yo'nalishda kuchli tomonga ega ekan deyish mumkin.

Endi yuqorida aytib o'tilgan har bir tushunchaga izoh berib o'tsak, natijalarni tahlil qilishingiz va o'zingizni o'zingiz yaxshirok bilib olishingiz oson bo'ladi.

**CR – Concrete Random** – Konkret va tasodifiy holdagi ruhiyat turi uchun quyidagilar xosdir:

*Ustuvor (Prioritet)lar:*

- Qiziquvchan.
- Tekshiruvchan.
- Turli xil fikrlovchi.
- O'zgarishlar qilishga yo'nalgan.
- Talabchan.
- Mustaqil.
- Mohiyatini bilishga intiladi.
- Tavakkalchilik qila oladi.
- Muammoni hal qila oladi.
- Amaliyotchi.
- Yangiliklar yarata oladi, kashfiyotchi.

*Tug'ma xislatlar:*

- Muammolarni hal qilish uchun tajribalar o'tkazish.
- Yangi ma'lumotlar va jarayonlarni kashf qilish.
- Imkoniyatlar topish, o'zgarishlar bunyod qilish.
- Mustaqil bo'lish.
- Yechimlar axtarish.
- Maqsadga muvofiq tavakkalchilik.
- Noan'anaviy echimlar topish.
- «Nega?» degan savolni tadqiq qilish.
- Yuqori darajadagi qiziquvchanlik.

*Tashqi muhitga nisbatan afzalliklar:*

- Muammolarni hal qilish uchun doimo yangi echimlar topishga harakat qilish.
- O'zini-o'zi boshqaruv.
- Raqobatbardosh.
- Hozirjavob.
- Juda ko'p xil echimlar topish va ularni amalga oshirishga intilish.
- Real va qiziqarli mahsulotlar yaratish.
- Xilma-xil imkoniyatlardan foydalana olish.

– O'z tajribasiga tayanish.

*Mumkin bo'lgan to'siglar:*

- Doimiy vaqt tig'izligi.
- Loyiha tugallangan vaqtida yangi g'oyalar paydo bo'lishi.
- Bir javobnigina tanlab olish.
- Mufassal hisobotlar va yozuvlar saqlash.
- Mahsulot/natijalarga ko'proq ahamiyat berish.
- Boshqa fikrlar yoki imkoniyatlarga ega bo'lmaslik.
- Nazorat qilinadigan muhitda ishlash.
- Ma'ruzachi bilan muloqot qila olmagan holda ma'ruzani tinglash.

*Ish uslubiyati:*

- Ustuvor (Prioritet) lar orqali o'rganish.
- Tugallangan ishlarni bajarish.
- Ma'lumotlarni tajriba bilan birlashtirish.
- Boshqalardan ishni berilgan muddatda bajarishni talab qilish.
- Mas'uliyatlarni bo'lib chiqish.
- Boshqalarning fikrlarini shundayligicha qabul qilish va ularga boshqacha bo'lishi mumkinligini ko'rsatmaslik.

**AS – Abstract Random** – Abstrakt va tasodifiy holda faoliyat ko'rsatadigan ruhiyat/xarakter turi uchun quyidagilar xosdir:

*Ustuvor (Prioritet) lar:*

- Emosional (Jo'shqin).
- Shaxsiyatga e'tibor beruvchi.
- Tushunuvchan.
- Xilma-xil fikrli.
- Mavzuga oid (tematik) fikrlovchi.
- Kelishuvchan.
- Hissiyotga berilgan.
- Omma bilan birga bo'lishni xohlovchi inson.
- Ta'sirchan.
- Ommaviy axborotga ishonuvchan.
- Moslashuvchan.

*Tugma xislatlar:*

- Moslashuvchanlik va kelishuvchanlik.
- Boshqa kimsalarga bog'liqlik.
- Ta'sirchanlik.

- San'at, tabiat va go'zallikni sevuvchi.
- Hissiyot orqali yaratuvchanlik.
- Ijtimoiy guruhlarning bir qismi bo'la oladi.
- G'oya va hissiyotlarni o'zicha tushunadi.

*Tashqi muhitga nisbatan afzalliklar:*

- Boshqalar bilan ishlay oladi va fikr almasha oladi.
- Shaxsiga nisbatan e'tiborni va emotsiyal qo'llab-quvvatlashni xohlaydi.

- Ish bilan birqalikda ijtimoiy faoliyat bilan ham shug'ullanadi.
- Boshqalar tomonidan nazorat qilinishdan xoli.
- O'ziga shaxsan qoniqishli muhit hosil qila oladi.
- Ko'pincha shaxsiy, yakka (individual) yoki artistik jumlalarni ishlataladi.

- Boshqalar bilan ochiq muloqotda bo'ladi.
- Raqobat bo'lмаган muhitga ega.

*Mumkin bo'lgan to'siglar:*

- Aniq javoblar berishni va mayda-chuydalarni ham bilishni xohlaydi
- Uzoq muddat davomida yakka ishlaydi
- Izchil usulda ishlaydi
- Ko'pincha ishni tugallashga vaqt etishmaydi
- Tuzatilib turishga muhtoj
- Raqobatni yaxshi ko'radi
- Rejali faoliyat yuritadi
- Berilgan vaqtida biror-bir masalagagina diqqatini qarata oladi

*Ish uslubiyati:*

- «O'rmondagи daraxtlarni» ko'ra oladi.
- Sakrashdan oldin mulohaza qiladi.
- Muhim elementlarga ahamiyat beradi.
- To'liq tushuntirishni yoqtiradi.
- Qaror qabul qilishdan oldin obyektiv holatlarni hisobga oladi.
- Vaqt tig'izligida ishlayotganida mas'uliyatni zimmasiga oladi.
- Boshqalardan kamroq hissiyoti javob kutadi.

**CS – Concrete Sequential** – Aniq ketma-ketlikda faoliyat ko'rsatadigan ruhiyat/xarakter turi uchun quyidagilar xosdir:

*Ustuvorlar (Prioritetlar):*

- Har bir narsada tartib.

- Doimiy bir yo'nalishda ishlash.
- Aniq va tartibli ishlash.
- Har bir jihatga ahamiyat berish.
- Aniq ishlarni bajarish.
- Ishonchli.
- Yuqori darajada tartibli.
- Masala hal qilishga yo'nalgan.
- Amaliyotchi.
- Realistik.

*Tug'ma xislatlar:*

- Masalalarni izchil hal qilish.
- O'z vaqtini rejalashtirish.
- Ko'rsatmalarga rioya qilgan holda aniq javoblar olishga harakat qilish.

- Aniq sharoitlarda ishlash.

- Aniqlik va standartlarga rioya qilish.
- Real va amaliy ko'rinishdagi mahsulotlar tayyorlash.
- Foydali va ishonchli natijalar olishga intilish.

*Tashqi muhitga nisbatan afzalliklar:*

- Barqaror va sokin muhitda ishlaydi.
- Vazifalarning barcha tomonidan qabul qilingan bajarilish tartibiga rioya qiladi.

- Aniq yo'nalishlar va misollarga ega bo'lish.

- Samarador va doimiy bo'la oladi.
- O'zgarishlarni yoqtirmaydi.

- Har bir ishni bajarishdan oldin uning tasdiqlanishini xohlaydi.

- G'oyalarni amaliy ravishda qo'llaydi.

- Boshqalarga ishonch.

- Tashkilotchi insonlardan ko'rsatmalar olib turadi.

*Mumkin bo'lgan to'siglar:*

- Ko'p imkoniyatlardan birini tanlab olish.

- Maxsus ko'rsatmalsiz harakat qilish.

- O'zgarishlarni to'la tushunmaslik.

- Yangi yondashuvlarni qabul qilish.

- Qarama-qarshi g'oyalar bilan munosabat.

- Abstrakt g'oyalarni tushunish.

- Hissiyotlarni tushunish.
- His-tuyg‘uli so‘zlashni qo‘llash.

*Ish uslubiyati:*

- «O‘rmonni ko‘rish uchun» bir qadam orqaga yurish.
- Dastlabki hissiyotga berilmaslik.
- O‘z hissiyotlarini ifodalash.
- Tashkilotchi-fikrlovchi bilan birga ishslash.
- Boshqalarning nuqtai nazarini tushuntirishni xohlash.

**AS – Abstract Sequential** – Abstrakt va aniq ketma-ketlikda faoliyat ko‘rsatadigan ruhiyat (xarakter) turi uchun quyidagilar xosdir:

*Ustuvor (Prioritet) lar:*

- Mantiqiy.
- Nazariy.
- Baholovchi.
- Aniq tizimli.
- Akademik tarzda fikrlash uslubiyati.
- Boshqalarning ustidan hukm chiqaruvchi.
- G‘oyaga berilgan.
- Analitik (tahlil qiluvchi).
- Intellektual va aqlii.
- Ko‘p o‘qiydi.
- Munozarani yaxshi ko‘radi.
- Tekshiruvlar va ilmiy izlanishlar uning yaxshi ko‘rgan faoliyat turi.

*Tugma xislatlar:*

- Nuqtai nazarlar va fikrlar kurashi.
- Ma‘lumot yig‘ish va g‘oyalarni tahlil qilish.
- Aniq yo‘nalgan tartibda fikrlash.
- Chidamli o‘rganuvchilar.
- Ma‘lumotlarni har tomonlama o‘rganish.
- Nazariyalarni va ularning asosiy jihatlarini tekshirish.
- Muhimlikni tekshirish.
- Ma‘lumotlar ustida izlanish.
- Javob topishga qattiq urinish.
- Intellektual (bilimdonligini) tan olinish uchun kurash.

*Tashqi muhitga nisbatan afzalliklar:*

- Ekspertlarning fikrlari yoki yozma manbalarga ega bo‘lmoq.

- O‘z-o‘ziga ishonch.

- An‘anaviy tartibotlarga rioya qilish.
- Materialni yaxshilab o‘rganish uchun vaqt topish.
- O‘zi yolg‘iz ishlay olish.
- Intellektual (akliy) qobiliyatlari tufayli izzatda bo‘lish.
- Analitik (tahliliy) esselar yozish.
- Kutubxonalarda izlanishlar olib borish.

*Mumkin bo‘lgan to‘siglar:*

- Hissiyot (emosiya) larni amaliy ravishda ifodalash.
- Guruh munozaralarida birqalikda ishslash.
- Qiziqrli ma‘lumotlar yozish.
- Xilma-xil narsalarning noan‘anaviy ravishda bajarish yo‘llarini o‘ylab topish.
- O‘yinlarga ishqibozlik.
- Fizik mahsulotlar yaratish.
- Boshqalarni diplomatik ravishda ishontirish.
- Tanqidiy fikr yuritish (kritik bo‘lish).
- Tavakkalchilik va noaniqlikni qabul qila olish.

*Ish uslubiyati:*

- Xilma-xil sharoitlarda hajviyani ko‘ra olish.
- «Gullarni hidlash» uchun ham vaqt topish.
- O‘zi uchun ajoyib sharoitlar bo‘lishi haqida unchalik qayg‘urmaslik.
- Muqobil (alternativ) echimlarning boshqa xil usullarini topish.
- Yangi tajribalar o‘tkazish.
- Bahsdan ko‘ra ko‘proq eshitish.
- Noan‘anaviy yondashuvlar natijalarini o‘rganish.

Agar biz o‘zimiz yoki o‘quvchilarimiz ruhiyatlarining qandayligini yuqoridaqidek usulni qo‘llagan holda bilib olsak, birqalikda yaxshiroq ishlashimiz mumkin va nima uchun ba’zi bir ishlarni barchamiz har xil bajaramiz, degan savolga to‘g‘ri javob bera olish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. **CS, AS, AR** va **CR** kabi meditatsiya kanallarini bilib olsak, bizga boshqa insonlarning nuqtai nazi, o‘ylash uslubi, ular nimalarga ahamiyat berishini tushunish ancha oson bo‘ladi. Har birimizda turli ruhiy ko‘rsatkichlar mavjud bo‘lgani uchun biz bir-birimizdan farq qilamiz va ba’zi narsalarni hamda jihatlarni boshqalardan o‘rganishimiz lozim bo‘ladi. Ba’zi vaqtlarda esa ushbu xilma-xillilik o‘zaro tushunmovchilik

va to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin. Chunki biz uchun juda foydali va qiziq bo'lib ko'rilgan narsalar, ruhiyatimizdagi farqlar mayjudligi tufayli boshqalarga unchalik foydali va qiziqarli emas bo'lib tuyuladi.

Agar Sizga ruhiyattingizning ba'zi bir jihatlarni rivojlantirish lozim bo'lsa, yuqorida o'tkazilgan tahlildan nimaga ahamiyat berishingiz lozimligini ham yaxshigina bilib olasiz. Endi ushbu ko'rsatkichlarni quyidagi jadval shaklida keltiramizki, natijada Siz uchun ruhiyat xossalari chuqurroq o'rganish yana ham osonlashadi:

### 1. Meditatsiya kanallariga izohlar

	<b>CS Concrete Sequential</b> Konkret va aniq ruhiyat	<b>AS Abstract Sequential</b> Abstrakt va aniq ruhiyat	<b>AR Abstract Random</b> Abstrakt va tasodifiy ruhiyat	<b>CR Concrete Random</b> Aniq (konkret) va tasodifiy ruhiyat
<b>Aniqlovchi so'zlar</b>	Amaliyotchi	Tasodifiy	Potensial salohiyat	Mumkin bo'lgan
<b>Real muhit</b>	Fizik ma'nodagi aniq dunyo	Intellekt (Zakovat) abstrakt dunyosi	His-hayajonlar abstrakt dunyosi	Harakatlar-nning aniq va intuisiya abstrakt dunyosi
<b>Tartibga yondashuv</b>	Ketma-ket, izchil	Ketma-ket va ikki o'lchamli	Tasodifiy, to'rsimon va ko'p o'lchamli	Uch o'lchamli tasodifiy
<b>Vaqtga munosabat</b>	O'tmish epizodlari, hozirgi kun va kelajak	Hozirgi vaqt, tarixiy o'tmish va rejadagi kelajak	Hozirgi vaqt: ular uchun vaqt sun'iy va xalakit beruvchidir	Hozir: o'tmishning barchasi va hozir kelajakni aniqlaydi
<b>Fikrlash jarayoni</b>	Tug'ma (Instinkтив) va uslubiy	Intellektualaqliy, mantiqiy, analitik, tahliliy	Emosional, hissiy, ruhiy va tanqidiy	Intuitiv, ziyrak, turki beruvchi, impulsiv va mustaqil

<b>Aniqlovchi so'zlar</b>	His-tuyg'ular orqali isbotlash, ekspertlarni jaib qilish	Shaxsiy intellektual ifodalash, kelishuv uchun ekspertlarni jaib qilish	Ichki yo'naltirish jarayoni	Amaliy ravishda ko'rsatish, shaxsiy isbot, chetdagi shaxslarni juda kam miqdorda jaib qilish
<b>Diqqatni jamlash</b>	Material reallik, fizik obyektlar	Bilim, dalillar, hujjatlar, konsepsiylar, g'oyalar	Emotsional-hissiy ilovalar, o'zaro aloqalar va xotira	Amaliy qo'llash, usullar, jarayonlar va ideallar
<b>Yaratuv-chanlik</b>	Mahsulot, namuna, nusxa	Sintez, nazariya, modellar va matrisalar	Tasavvur, san'at, o'zaro aloqalar	Intuitsiya, sezgirlik, o'ziga xoslik va futurist
<b>Tashqi muhitga munosabat</b>	Tartibli, amaliyotchi, sokin va stabil, betaraf	Fikriy stimuli, tartibli, sokin va boshqara olmaydi	Emotsional, ozod, boy, faol va qiziqarli	Stimullarga boy, raqobat bardosh, cheklanishlardan xoli
<b>Tilni ishlatalish</b>	Adabiy va aniq, mantiqiy	Aniq, unumli-rasional, asosan og'zaki	Majoziy, gapirganda qo'l va gavda harakatlarini ko'p ishlataladi, qiziqarli	Ma'lumotli yorqin, qiziqarli, jonli til
<b>Baholashda asosiy so'zlar</b>	Yaxshi, yomon emas	Ajoyib	Juda zo'r, ajoyib, qoyil	Oliy darajada, a'lo
<b>Salbiy xususiyatlari</b>	O'ziga xoslik, hissiz, o'ziga berilgan	O'z fikrini o'zgartirishi qiyin, sarkastik, odamovi	His-hayajonga berilgan	Egosentrik, yolg'onchi, prinsipsiz

## 2. Sizdag'i o'ziga xos (original) echimlar topishga qobiliyat qandayligini tekshirish testi

«A'lo mamlakatning a'lo farzandi,  
bilib qo'yki, seni vatan kutadi».

G'ULOM

Quyidagi sharoitlarda o'zingizni qanday tutishingiz mumkinligi xaqida fikrlab ko'ring:

### 1. Atrofingizdag'i hayot yaxshilanishi mumkin deb o'ylaysizmi?

1. Xa, albatta.
2. Yo'q, uning o'zi etarlicha yaxshi.
3. Ha, lekin uning ba'zi jihatlarinigina, xolos.

### 2. Atrofingizdag'i dunyoni sezilarli ravishda o'zgartirishda o'zingiz ham qatnasha olaman deb o'ylaysizmi?

1. Ha, ko'p holatlarda.
2. Yo'q.
3. Ha, ba'zi holatlarda.

### 3. Sizning ba'zi bir g'oyalaringiz o'zingiz ishlayotgan sohada ancha rivojlanishga sabab bo'ladi deb hisoblaysizmi?

1. Ha.
2. Ha, agar shart-sharoitlar bunga imkon bersa.
3. Qandaydir bir darajada.

### 4. Siz keyinchalik shunday bir muhim ahamiyatli inson bo'lib etishamanki, nimanidir principial jihatdan o'zgartirish imkoniga ega bo'lamon deb fikrlaysizmi?

1. Albatta.
2. Buning ehtimoli juda kam darajada.
3. Balki.

### 5. Biror-bir ishni boshlaganiningizda uni amalga oshira olaman deb o'ylaysizmi?

1. Ha.
2. Ko'pincha buni amalga oshira olmayman deb o'layman.
3. Asosan buni amalga oshira olaman deb o'layman.

### 6. O'zingiz bilmagan biror-bir ish bilan shug'ullanishni xohlaysizmi?

1. Ha, noaniqlik meni o'ziga jalb qiladi.
2. Noaniqlik meni qiziqtirmaydi.
3. Bu ish qandayligi bilan bog'liq.

### 7. Sizga notanish bo'lgan ish bilan shug'ullanayotganingizda uni juda yaxshi bilib olish xohishi paydo bo'ladimi?

1. Ha.
2. Nimaga erishgan bo'lsangiz, o'sha bilan qoniqasiz.
3. Ha, agar bu menga yoqqan taqdirda.

### 8. Bilmagan ishingiz Sizga yoqsa, u hakda barcha narsani bilib olishni xohlaysizmi?

1. Ha.
2. Yo'q, men asosiy ma'lumotlarnigina bilib olishga harakat qilaman.
3. Yo'q, men faqat o'z qiziqishimni qondirishgagina harakat qilaman.

### 9. Agar Siz muvaffaqiyatsizlikka uchrasangiz:

1. Buning foydasizligini bilib turib ham o'jarlik bilan ishni davom ettirasiz.
2. Bu ishning haqiqatdan uzoqligini bilib, undan darhol voz kechasiz.
3. Siz duch keigan to'siqlarga va ularni hal qilish mumkin emasligi aniq bo'lishiga qaramay, ishni davom ettirasiz.

### 10. Sizningcha, ish faoliyatini quyidagilar asosida tanlab olish lozim:

1. O'z imkoniyatlari va keyinchalik o'zi uchun qanday shart-sharoitlar yaratilishiga karab.
2. Davomiylilik, ishning ahamiyati, kerakligi va unga talabning mavjudligi.
3. Bu ish ta'minlab beradigan afzalliklar.

### 11. Sayohat qilayotganiningizda oldin o'tgan yo'lingizni taniy olasizmi?

1. Ha.
2. Yo'q, adashib ketishdan qo'rqaman.
3. Ha, faqat u joylar menga yoqsa va yodimda qolsa.

**12. Biror-bir suhbatdan so'ng nima haqda gapirilganini eslay olasizmi?**

1. Ha, hech qiyinchiliksiz.
2. Barchasini eslay olmayman.
3. Meni qiziqtirgan ma'lumotlarmigina eslab qolaman.

**13. Siz bilmagan boshqa tilda gapirilgan so'zlarni eshitganingizda ma'nosini bilmasdan ham ularni xatolarsiz qaytara olasizmi?**

1. Ha, bu menga qiyinchilik tug'dirmaydi.
2. Ha, agar bu so'zlarni eslab qolish qiyin bo'lmasa.
3. Qaytara olaman, lekin bu juda ham to'g'ri bo'lmaydi.

**14. Bo'sh vaqtimda men quyidagini afzal ko'raman:**

1. Yolg'iz qolib fikrlashni.
2. Ko'pchilik bilan birga bo'lishni.
3. Yolg'iz yoki ko'pchilik bilan bo'lish men uchun baribir.

**15. Siz biror-bir ish bilan shug'ullanayapsiz deylik. Bu ishni faqat quyidagi holatlarda to'xtatasiz:**

1. Ish tugallandi va u Sizning fikringizcha a'lo darajada bajarilgan.
2. Siz bu ishning bajarilishidan bir qadar qoniqish xosil qildingiz.
3. Siz barcha narsani bajarishga ulgura olmadingiz.

**16. Siz yolg'iz qolganingizda:**

1. Qandaydir narsalar haqida, masalan, abstrakt narsalar haqida orzu qilishni yoqtirasiz.
2. Qandaydir yo'llar bilan o'zingizga biror-bir aniq ish topishga harakat qilasiz.
3. Ba'zi vaqtlarda o'z ishingiz bilan bog'liq bo'limgan narsalar haqida orzu qilishni yoqtirasiz.

**17. Qandaydir G'oya Sizni qiziqtirib qolsa, Siz u hakda quyidagi holatlarda o'ylaysiz:**

1. Kim bilan va qaerda turganingizdan qat'i nazar.
2. Siz bu ishni faqat yolg'iz qolgandagina amalga oshirishingiz mumkin.
3. Shovqin-suron bo'limgan joydagina bunday qila olasiz.

**18. Biror-bir G'oyaning tarafdoi bo'lsangiz:**

1. Agar qarama-qarshi tomonning ishonarli fikrlari va faktlarini eshitsangiz, undan voz kechishingiz mumkin.
2. Nimani bilishingiz va eshitishingizga qaramay, o'z fikringizda qolaverasiz.
3. Agar qarshilik juda ham kuchli bo'lsa, o'z fikringizni o'zgartirasiz.

Qobiliyatingiz darajasini tekshirish uchun birinchi raqamli javoblarning qanchaligini sanab chiqing va uni «uch»ga ko'paytiring, ikkinchi raqamli javoblar sonini birga ko'paytiring, uchinchi raqamli javoblaringizning sonini ikkiga ko'paytiring-da, barcha hoslil bo'lgan son qiymatlarni qo'shib chiqing. Ushbu son qiymati Sizning yaratuvchanlik qobiliyatingiz darajasini ko'rsatib beradi:

**Agar ushbu qiymat** 49 va undan yuqori chiqsa, Sizda etarlicha ijodiy quvvat va imkoniyat mavjud. Agar bu ijodiy xislatlaringizni hayotda qo'llasangiz, katta muvaffaqiyatlarga erishasiz.

**Agar bu son qiymati** 24 dan 48 gacha bo'lsa, Sizda etarli darajada ijodiy potensial (salohiyot) mavjud. Lekin hissiyotingiz, ruhiyattingiz va tarbiyangizning ba'zi bir jihatlari Sizga xalaqit berayotgani uchun, avvalo, ulardan qutulishingiz zarur. Ammo Siz judayam xohlasangiz, katta muvaffaqiyatlarga erishishingiz mumkin.

**Agar olingan natija** 23 va undan kamroq bo'lsa, Sizning ijodiy salohiyatingiz unchalik yuqori emas ekan, degan xulosa chiqarish mumkin. Buning sababi Sizning o'z kuchingizga ishonmasligingiz. Demak, agar komil ishonch va e'tiqod bilan ish boshlasangiz, albatta muvaffaqiyatlarga erishasiz.

**3. Siz o'z oldingizga qo'ygan maqsadlaringizga qanday darajada erisha olasiz?**

«Eng ko'p sonli insonlarga baxt ato qilgan kishigina eng baxtli insondir?»

**BERUNIY**

Har bir inson bir nima to'g'risida orzu qiladi va nimalargadir intiladi. Amalga oshmagan orzular kimnidir juda xafa qiladi, kimdir orzuni amalga oshirish uchun barcha narsaga tayyor bo'ladi. Hammamiz

ham hayotda xilma-xilmiz. Bu esa, o‘z navbatida, bizning hayotda erishadigan muvaffaqiyatimiz va rivojlanishimizni ko‘rsatib beradi. Agar o‘z ruhiyattingizning maqsadga erishishingiz nuqtayi nazaridan qanday ekanligini aniqlamoqchi bo‘lsangiz, quyida keltirilgan test sinovi Sizga yordam berishi mumkin:

**1. O‘z fikringizni tez-tez o‘zgartirib turasizmi?**

- a) yo‘q;
- b) ba’zida;
- c) ha.

**2. Siz biletni sotib olgansiz va ertaga ta’tilingiz boshlanadi. Rahbar Sizga tezda bajarilishi zarur bo‘lgan topshiriq berdi. Siz quyidagilardan birini tanlaysiz:**

- a) buni bajarishdan qat‘iy voz kechasisiz;
- b) topshiriqni ertaga ertalabgacha bajarib berasiz va ta’tilga ketaverasiz;
- d) ta’tilni qoldirib, ishni bajarasiz.

**3. Maqsadingizga erishish uchun:**

- a) uni bajarish uchun aniq muddatlarni belgilaysiz;
- b) umumiy harakatlar rejasini tuzasiz;
- d) uni amalga oshirishning xilma-xil variantlarni ko‘rib chiqib, ikki-uchta eng yaxshisida to‘xtaysiz.

**4. Agar Siz ijodiy yondashuvni talab qilmaydigan, balki tez bajarilishi lozim bo‘lgan ishni bajarishga kirishsangiz, uni quyidagicha bajarasiz:**

- a) uni iloji boricha tezroq bajarib, tekshirasiz hamda kerak bo‘lsa, tuzatasiz va tugallaysiz;
- b) ishni iloji boricha yaxshi bajarishga harakat qilasiz;
- v) qanday qilinishi mumkin bo‘lsa, shunday bajarasiz.

**5. Do‘stlaringiz bilan ta’tilga borishni rejalshtirgansiz. Oxirgi kunlarda ularning har biri biror-bir sababga binoan ta’tilga borishga qiynalayapti. Siz nima qilasiz:**

- a) ularning muammolarini hal qilishga faol harakat qilasiz;
- b) tortishuvlardan so‘ng ta’tilga borishni uch-to‘rt kunga qoldirasiz;
- d) demak, bu narsa taqdirimga yozilmagan ekan, deb qo‘ya qolasiz.

**6. Ruhiyatshunoslarga munosabatingiz qanday?**

- a) ba’zi odamlarga ular haqiqatan ham kerakdirlar;
- b) ularga hech qanday munosabatda emasman;
- d) bunday sohani tanlaydigan inson qanday bo‘lishini tasavvur ham qilolmayman.

**7. «Taqdirga tan berish kerak» degan fikrga munosabatingiz:**

- a) umuman qo‘shilmayman;
- b) sevgi xaqida gapirilgandagina bu narsa o‘rinlidir deb fikrlayman;
- d) to‘la qo‘shilaman.

**8. Boshqalarни birov larga bog‘liq qilib qo‘ygandan ko‘ra, o‘zim kimadir bog‘liq bo‘lganim ma’quldir degan fikrga munosabatingiz:**

- a) bu fikrga aslo qo‘shilmayman;
- b) ba’zi holatlarda qo‘shilishim mumkin;
- d) to‘la qo‘shilaman.

**9. Sizga butun umr davomida orzu qilgan ishingizni taklif qilishdi, lekin bu ish boshqa shaharda ishslash bilan bog‘liq. U erga ketishingizdan uch kun oldin Siz orzu qilgan qizni (yigitni) uchratdingiz. Siz quyidagilardan birini tanlaysiz:**

- a) unga zudlik bilan uylanasiz (FXDYo (ZAGS) dan o‘tasiz) va birgalikda yangi ish joyiga ketasiz;
- b) ishni ham, sevgini ham yo‘qotmaslik uchun ma’lum muddat ikkalasini birgalikda olib borasiz;
- d) taklif qilingan ishdan voz kechasisiz.

**10. Orzu qilgan safaringizga borish uchun pulingiz juda ham kam. Siz quyidagicha harakat qilasiz:**

- a) safarga ketaverasiz;
- b) pul qarz olasiz;
- d) pulingiz ko‘payguncha sabr qilasiz.

Endi javoblariningizni yig'ing va quyidagi fikrlarga asoslanib, o'zingizni baholang:

**A. Javoblarda a) bandiga oid bo'limlar ko'proq.**

Demak, Siz qat'iy va mustaqilsiz, o'z oldingizga qo'ygan maqsadlaringizga har doim erisha olasiz.

**B. Javoblarda b) bandiga oid bo'limlar ko'proq.**

Siz o'z oldingizga qo'ygan maqsadlaringizga erisha olasiz, lekin maqsadlaringiz vaqtiga bilan o'zgarib turadi. Siz bu maqsadlardan boshqa oliy maqsadlar yo'lida yoki Siz sevgan insonlar tufayli voz kechishingiz mumkin.

**D. Javoblarda d) bandiga oid bo'limlar ko'proq.**

Sizda xech qanday maqsad yo'q va shuning uchun ham nimaga erishish lozimligi noaniq. Siz hayot qayerga yetaklasa, men ham barcha singari shu yerga boraman, degan fikr bilan yashaysiz.

4

**.Ta'lim sohasidagi foydali Internet sahifalari**

*«Internet serfingi inson miyasini faollashtirishning eng yaxshi vositasidir».*

*Olimlar xulosasi*

Quyida bir qancha donor tashkilotlarning Internetdagi **web-sahifalari** (elektron ma'lumotlar sahifalari) ro'yxatlari keltiriladi, Siz ulardan o'z ishingizni yanada rivojlantirish uchun foydalanshingiz mumkin (kerakli ma'lumotlar olishda, yordam olishda va juda bo'lmaganda bu sohalardagi o'z fikr ko'lamingizni kengaytirishda):

Masalan, <http://www.fdncenter.org> Fond Markazining ushbu sahifasi juda keng miqyosdagi ma'lumotlarni o'ziga qamrab oladi va agar **LISTSERV@LISTS.FDNCENTER.ORG** e-mail manzili orqali **SUBSCRIBE PND-L** degan so'zlarni o'z nomingiz bilan birgalikda jo'natsangiz «**Philanthropy News Digest**» deb nomlangan haftalik yangiliklarni kompyuter orqali olish imkoniga ega bo'lasiz.

Agar <http://philanthropy.com> nomli sahifadan foydalansangiz «**The Chronicle of Philanthropy**» deb nomlangan bir oyda ikki marta nashr qilinuvchi jurnalni olishingiz mumkin.

Mabodo <http://nonprofit.about.com> sahifasini ochsangiz, nodavlat tashkilotlari bilan bog'liq keng miqyosdagi ma'lumotlar bilan bemalol tanishishingiz mumkin.

Fuqarolikni mustahkamlash muammolari bilan shug'ullanadigan tashkilotlar bilan tanishmoqchi bo'lsangiz, quyidagi Internet sahifasini ko'rishingiz kerak bo'ladi: <http://www.civicus.org>

Internetda qanday qilib Sizga kerakli donorlarni qidirish muammosini quyidagi Internet sahifasi orqali hal qilishingiz mumkin: <http://w3.uwyo.edu/~prospect/inter.html>

Bu yo'nalishlardagi qolgan turfa tashkilotlar bilan tanishishni niyat qilgan bo'lsangiz, quyidagi Internet sahifalariga sayohat qilishingiz lozim bo'ladi:

<http://www.asianphilanthropy.org/>  
<http://www.ifc.or.jp>  
<http://www.charitynet.net>  
<http://www.idealyst.org/>  
<http://www.developmentgateway.com>  
<http://www.devdir.org/right.html>  
<http://www.fundersonline.org/>  
<http://www.internationaldonors.org>  
<http://www.guidestar.org>  
<http://www.webnexus.com/users/icc/iccnchp.html>  
<http://www.usig.org>  
<http://www.wungsweb.org/>

**5. Foydali maslahatlar**

*«Hayotdagi eng foydali narsa – shaxsiy tajribadir».*

*Valter SKOTT*

Endi bir qancha insonlarning shaxsiy tajribasidan olingan va o'quvchi/talabalar bilan munosabatni qiziqarli qilishga hamda ular bilan bevosita muloqotni yo'lga qo'yishga yordam beradigan qiziqarli fikrlarni ko'rib

chiqamiz. Qisqacha qilib aytganda, biz bularni juda yaxshi bilamiz, lekin afsuski, ko'pchilik hollarda ularga amal qilmaymiz.

1. Ba'zi insonlar aqlsiz, mantiqka to'g'ri kelmagan ishlarni qiladilar va so'zlaydilar, o'zlariga-o'zлari beriluvchan bo'ladilar. Har qanday holda ham ularni kechiruvchi bo'ling.

2. Siz mulozamatli bo'lsangiz, Sizni o'ziga bino qo'yganlikda, nimadandir umidvor bo'lganlikda ayblaydilar. Lekin shularga qaramasdan, doimo mulozamatli bo'ling.

3. Agar Siz juda omadli bo'lsangiz, Sizning haqiqiy bo'lmanan do'stlaringiz va dushmanlaringiz ko'payadi. Bundan xavotirlanmang va omadli bo'lavering.

4. Agar Siz rostgo'y va ko'ngli ochiq bo'lsangiz, insonlar Sizni aldashga harakat qilishadi. Lekin bu holda ham Siz rostgo'y va ochiq ko'ngil bo'lavering.

5. Sizni yillab amalga oshirganlaringizni kimdir bir zumda yakson qilishi mumkin. Bunga e'tibor bermang va yaratuvchanlikni davom ettiring.

6. Agar Siz osoyishta va baxtli bo'lsangiz, boshqalar Sizga hasad qiladilar. Bunga ahamiyat bermang va baxtli hayotingizni davom ettiring.

7. Bugun qilgan yaxshi ishlaringizni insonlar ko'pincha ertasi kuni unutib yuboradilar. Bunda ham Siz yaxshi amallar qila bering.

8. Imkoningiz bo'lgan taqdirda o'zingizdag'i eng yaxshi narsalarni o'zgalarga tortiq qiling, lekin hech kim Sizga buni etarli demaydi. Shunga qaramay, yaxshi narsalarni insonlarga tortiq qilishda davom etavering.

9. Insonlarga ular Sizdan kutganidan ziyodroq narsalar bering va buni dildan hamda xursandchilik bilan qiling.

10. Yaxshi ko'rgan she'ringizni albatta yodlab oling.

11. Hamma ko'rgan va eshitganlaringizga ham ishonaver mang, bor narsangizni yaxshi narsalarga sarf qilavering va qancha xohlasangiz shuncha uxlang.

12. «Men seni sevaman!» – desangiz, buni yurakdan chiqarib, samimi ayting.

13. «Meni kechirasiz . . . » – deganingizda insonning ko'ziga qarab ayting.

14. Uylanishingizdan (yoki tur mushga chiqishingizdan) oldin kamida olti oy bo'lajak umr yo'ldoshingiz bilan tanishing.

15. Birinchi qarashdagi sevgiga ishoning.

16. Birovlarning orzusi haqida hech qachon kulmang, chunki orzuga ayb yo'q.

17. Yurakdan va chuqur seving, bu Sizga qiyin bo'lishi mumkin, lekin to'laqonli yashash uchun birdan-bir yo'l shudir.

18. Birov bilan kelisha olmasangiz, undan unchalik xafa bo'lmaning va uning nomini boshqalarga aytib yurmang.

19. Insonlarga ularning qarindoshlari/tanishlariga qiyos qilib muomala qilmang.

20. Sekin so'zlang, lekin tez o'ylang.

21. Agar kimdir Sizdan Siz javob berishni istamagan savolni so'rasha jilmaying va astagina «Nega Siz buni bilgingiz kelayapti?» – deb so'rang.

22. Doimo esingizda bo'lsin – buyuk sevgi va katta muvaffaqiyatlar katta tavakkalchilik evaziga keladi.

23. Tez-tez o'z ota-onangizni eslab turing.

24. Hamma narsani yo'qotishingiz mumkin, lekin zinhor o'rgangan yaxshi bilimlaringizni yo'qotmang.

25. Ozginagina tushunmovchilikning katta do'stlikka putur etkazishiga zinhor yo'l qo'y mang.

26. Telefon trubkasini olayotganingizda jilmayib qo'ying, chunki Siz bilan muloqot qilmoqchi bo'lgan odam buni darhol Sizning ovozingizdan sezadi.

27. Ba'zi vaqtarda yolg'iz bo'lib, o'zingiz haqingizda fikrlang.

28. Esda tuting, ba'zi vaqtarda sukul saqlash eng yaxshi javob bo'lishi mumkin.

29. Ko'proq kitob o'qing va kamroq televizor ko'ring.

30. Agar sevimli odamingiz bilan kelisha olmasangiz, buni faqat shu holat bilangina bog'lang, chunki buni umumiylashtirish yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi.

31. Satrlar orasidagini ham o'qishni o'rganing.

32. O‘z bilimlaringizni boshqalar bilan o‘rtoqlashing, shundagina bilimingiz hech qachon o‘lmaydi.
33. Sizni maqtashayotganda hech qachon oraga suqilmang.
34. Oldin qonun-qoidalarni o‘rganib chiqib, keyin esa uning ba’zilarini qonuniy ravishda chetlab o‘tish yo‘llarini axtaring.
35. Muvaffaqiyatingizni unga erishish uchun qancha harakat qilganingiz bilan o‘lchang.
36. Esingizda tursin, Sizning fe’l-atvoringiz so‘zsiz Sizning taqdiringizni aniqlaydi.

## 6. Merfi qonunlari

*«Taqdir tasodifiy bir hodisa emas,  
u tanlov natijasidir, taqdirlri kutib  
o‘tirmaydilar, uni yaratadilar».*

Vilyam BRAYAN

Bu kimlargadir qiziqarli bo‘lishi mumkin bo‘lgan «qonuniyat»lar bir qancha taniqli insonlar, ishbilarmon shaxslar va omadli menejerlarning qiziqarli fikrlaridan iborat bo‘lib, ular real hayotda uchrab turadigan ba’zi bir qonuniyatlarning, fikriy umumlashtirishlarning va kuzatuvlarning in’ikosi bo‘lib, ularni yana ham yaxshi va chuqurrok tushunishga olib kelishi mumkin. Talabalar bilan muloqotda ushbu «hayotiy dalil»larni kezi kelganda mohirlik bilan ishlatalish dars jarayonini faollashtirish uchun qo’shimcha imkoniyatlardan yaratadi. Agar bular Sizni qiziqtirsa va ishtiyoqingiz hali so‘nmagan bo‘lsa, o‘qib chiqing va tegishli xulosani o‘zingiz chiqaring, biz faqat Sizning sermahsul fikrlashingiz uchun xomashyo berayapmiz, xolos.

1. *Merfi qonuni.* Noqulay holat qachonlardir bo‘lishi mumkin bo‘lsa, u albatta ro‘y beradi.

2. *Merfining kengaytirilgan qonuni.* Agar bir qancha noqulay holatlar ro‘y berishi mumkin bo‘lsa, ular eng noqulay ketma-ketlikda yuzaga keladi.

*Bundan xulosa.* Bundan ham yomonrok bo‘lmasligi mumkin bo‘lgan hech qanday yomon holat yo‘q. Shuning uchun xam bundan ham yomon bo‘lmaganligi uchun shukur qiling.

3. *Xolgren qoidasi.* Iqtisodchilar va olimlar uchun ko‘pincha atrof-muhitdagi real dunyo xususiy hol deb xisoblanadi.

4. *Berke qoidasi.* O‘zingizga echimi noma’lum bo‘lgan masalani hech qachon o‘z oldingizga qo‘ymang.

*Xulosa.* Yechimi faqat o‘zingizdagina bo‘lgan masalalarining o‘z oldingizga qo‘ying.

5. *Mayls qonuni.* Ko‘rish burchagi tanlangan joyga bog‘liqdir.

6. *Prays qonuni.*

A. Hamma ham xohlama guncha hech kim xech narsa ololmaydi.

B. Ommadan bo‘lgan shaxsga ommaviy ravishda xizmat ko‘rsatmoq lozim.

7. *Uorren qoidasi.* Ekspertlikka bu ish juda ko‘p vaqt oladi va juda qimmat turadi degan kimsani jalb qilish kerak.

8. *Glaymning muvaffaqiyatga erishish qoidasi.* Muvaffaqiyatning kaliti chin dildan ishonmoqdir. Agar buni uddasidan chiqsangiz, omadim keldi deyavering.

9. *Xokinsning rivojlanish nazariyası.* Rivojlanish noto‘g‘ri nazariyaning to‘g‘risi bilan almashtirilishi emas, balki noto‘g‘ri nazariyani aniqlik kiritilgan va biroz hayotga yaqinlashtirilgan noto‘g‘ri nazariya bilan almashtirishdir.

10. *Meyer qonuni.* Murakkablashtirish oson, lekin soddalashtirish qiyindir.

11. *Xlayd qonuni.* Qiyin masalaning echilishini dangasa xodimningizga topshiring – u masala echilishining osonroq yo‘lini topadi.

12. *Xant qonuni.* Har qanday buyuk g‘oyada ham unga teng yoki undan kattaroq bo‘lgan kamchilik mayjud.

13. *Xenlon qoidasi.* Yengiltaklik sifatida tushuntirilishi mumkin bo‘lgan munosabatda yoki xatti-harakatda yashirin xavf-xatar ko‘rmang.

14. *Tarixning oltin qoidasi.* Tarix hech qachon qaytarilmaydi, tarixchilargina bir-birlarini qaytaradilar.

15. *Danlep qonuni*. Fakt – bu qotib qolgan fikr. Yuqori haroratda faktlar yumshaydi, haqiqat esa elastik bo‘lib qoladi.

16. *Halgren echimi*. Noqulay ahvolga tushib qolsangiz, atrof-muhitga tutun (tuman) chiqarishga harakat qiling.

17. *Ifloslikning saqlanish qonuni*. Bir narsani tozalamoq uchun albatta boshqa narsa ifloslanishi lozim. Lekin hech nimani tozalamagan holda barcha narsani ifloslantirish ham mumkin.

18. *Bub qonuni*. Qidirayotgan narsangizni albatta topishingiz mumkin, lekin buning uchun hamma yoqni tintib chiqishingiz shart.

19. *Axtarish qonuni*. Axtarishni eng noqulay joydan boshlamoq lozim.

20. *Marianna qonuni*. Har doim izlamagan narsangizni topasiz.

21. *Asosiy paradoks*. Optimist biz eng yaxshi dunyoda yashayapmiz deb hisoblaydi, pessimist esa xuddi shunaqaligidan qo‘rqadi.

22. *Neyser qonuni*. Ahmoq insondan himoyalish mumkin, lekin topqir ahmoqdan emas.

23. *Ta‘mirning ikki qonuni*.

A. Buzilmagan narsani tuzatish mumkin emas.

B. Ta‘mirlayotganda hech nimani tashlab yuborma.

24. *Noma yozish qonuni*. Nomani (xatni) konvertga solib, yelimlab bo‘lgandan keyingina eng yaxshi fikrlar miyaga keladi.

25. *Kalvardoning mantiqiy qoidasi*. Hamma ehtimolliklar 50 foizga teng – yoki bo‘ladi, yoki bo‘lmaydi.

26. *Tanishlarni uchratish prinsipi*. Siz bilan birga bo‘lgan kimsani birov bilmasin degan taqdiringizda, tanishlar bilan uchrashish ehtimolligi ortadi.

27. *Cheyts kuzatuvi*. Agar Siz kimgadir qiyin sharoitga tushib qolganida yordam bersangiz, u ham Sizni albatta yana bir marta shu mushkul holatga tushib qolganida eslaydi.

28. *Denniston qonuni*. Ezgu ish qilmoq ba’zi hollarda o‘z-o‘zini jazolashdir. Chunki keyinchalik albatta kimlardir Sizdan yana bir marta shunday qilishingizni so‘raydi.

29. *Alinskiy qoidasi*. Yechilayotgan muammolardan eng uzoq bo‘lgan kimsalargina yuqori ma’naviyat sohibidirlar.

30. *O’Brayan qonuni*. Hech nima qilmaganlikning har qachon ham sababini topish mumkin.

31. *Luis qonuni*. Har doim bir nusxada qolgan narsani sotib olish uchun juda ko‘p xaridor bo‘ladi.

32. *Ettorns kuzatuvi*. Biror narsaga navbatda turganingizda qo‘sni navbat har doimo tezroq harakat qiladi.

*Xulosa*: Yoningizdagagi qatorga o‘tganingizda, Sizning oldingi turgan qatoringiz tezrok harakatlana boshlaysi.

33. *Navbatda turish prinsipi*. Qancha ko‘p vaqt navbatda tursangiz, Sizning yomon ketma-ketlikda navbatda turganligingiz ehtimolligi ortadi.

34. *Pardonning birinchi postulati*. Hayotdagi hamma yaxshi narsalarning ko‘pchiligi yoki noqonuniy, yoki ma’naviyatga zid, yoki semirishiga olib keladi.

35. *Yakob qonuni*. Adashish insonga xosdir, lekin o‘z xatolarini boshqalarga ag‘darish undan ham ko‘proq tarqalgan.

36. *Mendelshteyn qonuni*. Siz haqingizda boshqalar nima deb o‘ylashlari haqida ko‘p bezovta bo‘lavermang, chunki Sizning ular haqida nima deb o‘ylashingiz ularni juda ham bezovtalatiradi.

37. *Meder qonuni*. Sizning hayotingizda qanday noxush hol ro‘y bergen bo‘lsa, bu hol tanishlaringizdan birining hayotida ham ro‘y bergen, lekin bundan yomonroq bo‘lgan, xolos.

38. *Bekledj qonuni*. Oxiri bo‘lib kulgan inson ko‘pincha hazilni tushunmagan bo‘lib chiqadi.

39. *Gurd aksiomasi*. Yig‘ilishlarda daqiqalarni tejab, soatlarni yo‘qotishadi.

40. *Evans qonuni*. Har qanday noqulay holat yuzaga kelsa ham, har doim xuddi shunday bo‘lishini oldindan bilgan odam topiladi.

41. *Aniqlanish qonuni*. Har qanday sirli narsa ham bir kun fosh bo‘ladi.

42. *Laborantlar uchun qoida*. Nima qilayotganligingizni bilmasangiz, bu ishni puxta bajaring.

43. *Fineygl qoidasi*. Haqiqat fandadir. Ba’zi faktlarning bizlarni noto‘g‘ri xulosaga keltirishidan saqlaning.

44. *Ishxona qonuni*. Oxirgi marta ishdan bo'shagan inson keyingi odam ishdan bo'shamaguncha ishxonadagi hamma yomon hodisotlarning javobgari deb topiladi.

45. *Parkins postulati*. Qancha pastda o'tirsang, shunchalik og'ritib urishadi.

46. *Xetch qonuni*. Qilgingiz kelmagan ishni keyinga qoldirish uchun hozirgi paytdan ko'ra qulayroq vaqt bo'lmaydi.

47. *Dexay aksiomasi*. Ko'pincha har doim ham buni qila olaman deb, oddiy ishlarni keyinga qoldiradilar.

UDK:371.13/16(075)

74.202.5

Sh33

**Mas'ul muharrir:**

**Yo.A. Abdullaev** – Toshkent moliya instituti ilmiy ishlar bo'yicha rektor muovini, professor.

**Taqrizchilar:**

**M. Almardonov**, Toshkent moliya instituti «Soliq va sug'urta ishi» fakulteti dekani, i.f.d., professor

**Kenjaboev O.T.**, Toshkent moliya instituti

«Axborot texnologiyalari» kafedrasи mudiri, i.f.d., professor

**Ibragimov E.**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti «Axborot texnologiyalari» kafedrasи dosenti, i.f.n.

Interfaol ta'lim usullari : o'quv qo'llanma / Sh.K. Shayakubov, R.X. Ayupov ; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: «Tafakkur-Bo'stoni», 2012-yil, 136 bet.

**ISBN - 978-9943-362-64-2**